

XALQ TA'LIMI

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

2022

ILMIY-NAZARIY VA O'QUV-USLUBIY JURNAL

2022-yil, 1-SON



A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ
TA'LIMI MUAMMOLARINI O'RGANISH
VA ISTIQBOLLARINI BELGILASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

A.AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI MUAMMOLARINI O'RGANISH VA
ISTIQBOLLARINI BELGILASH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTINING
ILMIY-NAZARIY VA O'QUV-USLUBIY JURNALI

Scientific-theoretical and educational-methodical journal
Scientific Research Institute for Studying the Issues and Determining the
Perspectives of Public Education named A.Avloni

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

PUBLIC EDUCATION:

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

1
(yanvar-aprel)

2022



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va
istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot institutining
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

Bosh muharrir:

RADJIYEV Ayubxon Baxtiyorxonovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

PARDAYEVA Mehriniso Doniyarovna

Mas'ul kotib:

ABDULLAYEV Farrux Rustam o'g'li

Dizayner:

DONIYOROV Sanjar

Adabiy tahrirchilar:

DO'SMATOVA Yulduzxon Qambarovna

NURMUHAMEDOVA Dildor Uralovna

Tahrir hay'ati:

PAXRUTDINOV Shukritdin Ilyasovich

SHARIFXODJAYEV Usman Ulfatovich

RAXMANKULOVA Nargiz Xadjiakbarovna

MIRSOLIYEVA Muhabbat To'xtasinovna

XODJAYEV Begzod Xudoyberdiyevich

XALIKOV A'zam Abdusalomovich

KARIMOV Farxod Erkinovich

BAXRAMOV Anvar Axrarovich

XIDOYATOVA Dilafroz Abdugaffarovna

AXMEDOV Murodjon Ubaydullayevich

IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich

BOTIROV Hamid Hakimovich

ABDULLAYEV Farxod Abdurashidovich

RO'ZIQULOV Faxriddin Rasulovich

QODIROV Umarali Do'stqobilovich

Muassis:

Abdulla Avloniy nomidagi ilmiy-
tadqiqot instituti

Jurnal 2021-yil dekabr oyidan
chiqa boshlagan.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar Agentligining
2021-yil 8-noyabrdagi 1459-raqamli
guvohnoma berilgan.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo
ko'chasi, 6-uy. Pochta indeksi – 100095.

© "Xalq ta'limi: muammolar,
izlanishlar, yechimlar" jurnali,
2022.

MUNDARIJA

UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI

B.Saidov	XXI asr ta'limi: milliy qadriyatlar va innovatsiyalar uyg'unligini ta'minlashning dolzarb masalalari	7
A.Radjiyev, F.Karimov, M.Badalova	Turbulent ta'lim muhitida maktab ta'limi sifatini yaxshilash	19
Б.Намазов, М.Пардаева	Использование широкомасштабных оценок обучения учащихся для эффективной трансформации образования в Узбекистане	45
E.Murodov	Bitiruvchi o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarning milliy va xalqaro standartlari	51

TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

S.Haydarova	Ta'lim jarayonida pedagogik kvalimetriya va pedagogik kompetensiya tushunchalari	61
F.Abdullayev	Maktabda ta'limi sifatini monitoring qilishning nazariy asoslari	69
Г.Аекеева, А.Казакбаев	Организация работы учителя по самообразованию	77
M.Usmonova	XX asrning 20-30-yillarida an'anaviy ta'lim tarixi	83
M.Toshmurodova	Kasbiy malaka oshirish jarayonida metodistlar kompetentligini rivojlantirish usullari	91
Sh.Maxsudov	Umumta'lim maktablarida sinf rahbarlari motivatsiyasini oshirishda so'rovnoma metodikasidan foydalanish	99
O.Xudoyorova, A.Xoliqova	Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirishning eng muhim jihatlari	107
R.Mamaniyazova	Dialektal sharoitda o'quvchilarni talaffuzga o'rgatish	113
E.Nazaraliyeva	Geografiya ta'limini tashkil etish usullari	121

ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR		
S.Abduezimova	Effects of digital games on schoolchildren's second language vocabulary learning	129
TA'LIM SIFATI VA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI		
F.Abdullayev	Baholashning innovatsion usullari va zamonaviy yondashuvlar	137
TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYLARI VA RAQAMLASHTIRISH		
M.Nimatova	Kattalar ta'limini tashkil qilishda masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari	143
K.Xalмуратова	Развитие медиаобразования, информационной и медиа- грамотности в современном мире Республики Узбекистан	149
BOSHLANG'ICH TA'LIM		
R.Turdiyeva	Boshlang'ich sinflarda ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali yo'llari	157
U.Xoliqov, S.Xoliqova	Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun shaxmat o'yinini rivojlantirish texnologiyasining pedagogik – psixologik asoslari	165
KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH MASALALARI		
N.Ermetova	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirishda variativ ta'limning ahamiyati	173
M.Mansurov	Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish mexanizmlari va jahon tajribasi	185
G.Tashmatova	Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun kasb haqida tushuncha va kasbiy motivatsiya	195
TA'LIMDA MENEJMENT		
A.Hamidov	Umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbarlarining huquqiy kompetensiyasini takomillashtirish	201
I.Tillaboyev	Online ta'limning yutuq va kamchiliklari	206





UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI



A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

XXI ASR TA'LIMI: MILLIY QADRIYATLAR VA INNOVATSIYALAR UYG'UNLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI

Baxtiyor Saidov,

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vaziri

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar, inson kapitalini rivojlantirish, maktab ta'limi sifatini yangi bosqichga ko'tarish va XXI asr ko'nikmalariga ega muvaffaqiyatli shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va innovatsiyalar uyg'unligini ta'minlashning dolzarb masalalari hamda yechimlari yoritilgan.

Kalit so'zlar

Ta'lim, maktab, islohot, inson kapitali, milliy qadriyatlar, innovatsiya, XXI asr ko'nikmalari, o'qituvchi, tarbiya, rivojlanish, ta'lim sifati, uyg'unlik, uzviylik, uzluksizlik.



Аннотация

В данной статье рассматриваются актуальные вопросы и решения по реформированию системы народного образования, развитию человеческого капитала, поднятию качества школьного образования на новый уровень и обеспечению гармонии национальных ценностей и инноваций в воспитании успешной личности с навыками 21 века.

Ключевые слова

Образование, школа, реформа, человеческий капитал, национальные ценности, инновации, навыки 21 века, учитель, воспитание, развитие, качество образования, гармония, преемственность, непрерывность.

Jadal globallashuv sharoitida yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga samarali integrallashuvi uning noyob kapitali – fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, hayoti davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga bevosita bog'liq.

Ayniqsa, bugun dunyoda ta'lim muvaffaqiyati endi ma'lum hajmdagi bilimlarni o'zlashtirishda emas, balki bu bilimlarni kengaytirish va uni yangi vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini egallash tendensiyalari ilgari surilmoqda. Oddiy qilib aytganda, dunyo endi odamlarni bilimga ega bo'lgani uchun mukofotlamaydi – qidiruv tizimlari hamma narsani biladi – ular bu bilimlarni qanday tasarruf etishi, dunyoda o'zini qanday tutishi va unga qanday moslashishi muhim. Chunki bu holat davrimizning o'ziga xos sifati: bugungi kunda ta'limning mohiyati – ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muloqot qilish va hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirish, bilim, tushuncha va yangi texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyatining dolzarbligida, shuningdek, eng muhimi, shaxsiy fazilatlarida, buning natijasida odamlar o'zlarini amalga oshirishlari va insoniyatning barqaror rivojlanishi uchun hamkorlikda ishlashlari mumkin.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida O'zbekiston xalqining farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" qabul qilindi.

Bugungi kunda

10 mingdan
ortiq

MAKTAB

6,3 mln

O'QUVCHILAR

500 mingdan
ko'proq

PEDAGOG KADR



mamlakat aholisining deyarli **19** foizini tashkil etadi.

Shuning uchun ham maktab ta'limi sifatini yangi bosqichga ko'tarish umumilliy harakatga aylandi va tizimni rivojlantirish masalasi shaxsan Prezident tomonidan nazoratga olindi.

O'zbekistonda ijtimoiy sohalarni, xususan, ta'lim tizimini takomillashtirish, uni yuqori saviyaga olib chiqish orqali inson kapitalini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar, eng avvalo, maktab ta'limidagi mavjud muammolarning yechimini topishga yo'naltirildi.

Jumladan, o'rta ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat budjetidan 605 mlrd so'm ajratish, 141 mingta yangi o'quv o'rinlari yaratish va ularning sonini 2026 yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish belgilandi.

Maktab ta'limi sifati mamlakat aholisining beshdan bir qismini tashkil etuvchilar hayotiga ta'sir etadi, demak, aholi hayotiga ta'sir etadi. Shunday ekan, islohotlar inson qadri uchun, inson hayoti sifatini oshirish uchun xizmat qilmog'i lozim, va bu islohotlarning zarur shartidir.

Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026-yilda 8 foizga, shu jumladan, 2022-yilda 3 foizga oshirish ta'lim xizmatlari spektrini kengaytiribgina qolmasdan, sog'lom raqobat muhitini ham shakllantiradi.

Yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish, 2022 – 2026-yillarda 217 ta «Barkamol avlod» bolalar maktabini rivojlantirish bo'yicha dastur amalga oshiriladi.

Mazkur ustuvor maqsadlar sari amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, so'nggi 5 yillik davr mobaynida tizimda amalga oshirilgan bir qator salmoqli ishlar, erishilgan natijalar tahlilini keltirish maqsadga muvofiq.

Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha 17 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari, 44 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan xalq ta'limi tizimini isloh qilishga qaratilgan va ushbu sohani 10 yillik strategiyasini belgilab beruvchi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" tasdiqlandi.



Endilikda maktab ta'limi o'quvchilarni o'qitish emas, o'qishga o'rgatish, ularning qobiliyat va qiziqishlarini inobatga olgan holda, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, turli hayotiy vaziyatlarda mavjud bilim, ko'nikmalarini amalda qo'llay olish hamda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish, milliy qadriyatlarni e'zozlaydigan, yurtiga xizmat qiladigan muvaffaqiyatli shaxsni, raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilmoqda.

Ta'lim sohasining yetakchi ekspertlari ta'kidlashicha, "Har qanday xalq ta'lim dasturining mazmuni uning qadriyatlarini belgilaydi va kelajak avlodlarga bo'lgan umidlarini aks ettiradi".

O'quvchilarning o'z umidlari, maqsadlariga ko'ra qiziqqan fanlarni chuqur o'rganishiga sharoit yaratish, maktab bitiruvchilarining oliy o'quv yurtiga kirish imtihoniga tayyorgarlik ko'rishini ta'minlash va yuqori sinflarda o'quv jarayonini kasblarga yo'naltirilgan holda tashkil etish maqsadida maktablarning 10-11-sinflari uchun variativ o'quv rejalari 2019-2020-o'quv yilida 5 ta yo'nalishda, 2020-2021- o'quv yilidan 12 ta yo'nalishda joriy etildi.

Milliy o'quv dasturi UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magida, xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda, 246 nafar mahalliy ekspertlar, jumladan, 119 nafar amaliyotchi o'qituvchilar, shuningdek, oliy ta'limdan 105 nafar professor-o'qituvchilar, 22 nafar fan metodistlari, UNICEF va USAID xalqaro tashkilotlari orqali jalb qilingan 16 nafar xalqaro ekspertlar ishtirokida ishlab chiqildi. O'quv fanlari uyg'unlashtirilib, 1-11 sinflarda "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" va "Dunyo dinlari tarixi" fanlari negizida yagona "Tarbiya" fani joriy etildi.

2021-2022-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-2-sinflarida Milliy o'quv dasturi joriy etila boshlandi va uning asosida 22 nomdagi 13,5 mln. nusxa yangi avlod darslik majmualari chop etilib, amaliyotga joriy etildi.



Ta'lim sifatini ta'minlashda eng asosiy omil o'qituvchilar kasbiy mahoratidir. Ta'lim sifati o'qituvchi sifatidan yuqori bo'lolmaydi, o'qituvchining qo'lga tom ma'noda millat taqdirini yaratish berilgan bo'lib, ularni doimiy qo'llab-quvvatlash, kasbiy mahoratini rivojlantirish, kerak bo'lsa, ularni ijtimoiy-iqtisodiy himoyalash zarur.

Jamiyatda o'qituvchilar mavqei va obro'sini ko'tarish borasida Xalq ta'limi xodimlari majburiy mehnatga jalb qilish holatlariga barham berildi. Natijada 59 ming nafar pedagog-xodimlar huquqlari himoya qilinib, 2021-yilning o'zida 2 nafar mansabdor shaxslardan 24,5 mln. so'm jarima undirildi.

Shuningdek, boshqa tarmoq sohalaridan farqli ravishda ilk marotaba belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga bog'liq bo'lmagan holda, pedagog xodimlarning ish haqi 2 bosqichda (2018-yil 1-sentabr va 2019-yil 1-yanvar) 1,5 baravarga oshirildi.

Natijada, oxirgi to'rt yilda o'qituvchilar tarkibiy sifati yaxshilanib, qariyb 45 ming nafar erkak o'qituvchi maktabga qaytdi, o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilar soni 67 ming nafardan 49 ming nafarga (30%ga) kamayishiga erishildi.

O'qituvchilarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida "O'zavtosanoat" AJ tomonidan ilk bor 4 306 nafar xalq ta'limi pedagog-xodimlari uchun foizsiz muddatli to'lov asosida avtokreditlar berildi. Shuningdek, xalq ta'limi xodimlari uchun "UMS" va "Uztelecom" mobil aloqa operatorlari tomonidan imtiyozli tarif rejalari taqdim etildi.

Oxirgi ikki yil davomida xalq ta'limi tizimidagi 141 nafar pedagoglar-xodimlar davlat mukofotlari bilan, 1 864 nafar pedagog-xodimlar "Xalq ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.

Bundan tashqari, 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etilib, 400 nafarga yaqin pedagog-xodimlar taqdirlandi.

Yuqori natijalarga erishgan pedagoglarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-sonli qaroriga muvofiq, o'qituvchilarning malaka toifalarini olish tartibi soddalashtirildi.

Endilikda pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha respublika va hududiy komissiyalarini tuzish va yig'majild orqali hujjat topshirish amaliyoti bekor qilindi. Pensiya yoshiga to'lgan pedagog kadrlar navbatdagi attestatsiyaga jalb etilmaydi, attestatsiyadan o'tganlik muddati tugashidan qat'iy nazar, ularning amaldagi malaka toifasi (lavozimi) saqlab qolinadi hamda mazkur malaka toifasi bo'yicha haq to'lanadi.

Attestatsiyadan o'tish uchun malaka oshirish talabi bekor qilindi. Shuningdek, attestatsiya yilda ikki marotaba o'tkazilishi belgilandi.

Natijada bir yilning o'zida toifaga ega bo'lgan o'qituvchilar soni 260 mingdan 379 mingga oshdi. Bugungi kunga kelib toifaga ega bo'lgan o'qituvchilarning salmog'i 51 foizdan oshdi, vaholanki, 3-4 yil oldin bu ko'rsatkich 30 foizga ham yetmagan.



O'qituvchiga xalqaro fan olimpiadasida o'quvchisi oltin medal olsa, 450 baravar (bugungi kunda 121,5 mln. so'm), kumush medal olsa, 250 baravar (bugungi kunda 67,5 mln. so'm), bronza medal olsa, 150 baravar (bugungi kunda 40,5 mln. so'm) miqdorda bir martalik rag'batlantirish hamda ularga navbatdagi o'quv yili uchun direktor jamg'armasidan oltin, kumush va bronza medallari bo'yicha tegishli darajada qo'shimcha 200, 175 va 150 foizlik ustama to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-sonli qaroriga muvofiq, xalqaro fan olimpiadalari g'oliblarining ustozlariga 2019-yilda 312,2 mln. so'm, 2020-yilda 356,8 mln so'm, 2021-yilda 637 mln so'm pul mukofotlari topshirildi.

2017-2021-yillar davomida eng nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida 4 ta oltin (2012-2016-yillarda – 2 ta), 9 ta kumush (2 ta), 18 ta bronza (12 ta), jami 31 ta (16 ta) medal qo'lga kiritildi.

Mintaqaviy va xalqaro fan olimpiadalarida 9 ta oltin (2012 – 2016-yillarda 5 ta), 34 ta kumush (17 ta), 56 ta bronza (24 ta), jami 99 ta (46 ta) medal qo'lga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-yanvardagi PQ-4940-sonli qaroriga muvofiq olis va chekka hududdagi hamda ta'lim sifati past bo'lgan maktablarga dars berish uchun jalb qilingan oliy va birinchi toifaga ega o'qituvchining bazaviy tarif stavkalariga viloyat doirasida boshqa tuman(shahar)dan kelsa, 50 foiz, boshqa viloyatdan kelsa, 100 foiz maxsus ustamalar joriy qilindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-sonli Farmoniga asosan olis hududlarda joylashgan maktablarga boshqa hududlardan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun kelgan oliy ma'lumotli mutaxassislarga bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarida bir martalik boshlang'ich yordam puli va uy-joylarni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravarida har oylik pul kompensatsiyasi beriladi.

O'qituvchilar ayrim fanlardan sertifikatga ega bo'lgan taqdirda ular uchun alohida ustamalar belgilanmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-son va 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorlariga muvofiq, chet tillar o'qituvchilarining tarif stavkalariga 30 foiz, boshqa ta'lim muassasalarida 15 foiz hamda kamida S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega xorijiy til o'qituvchilariga 50 foiz miqdorida qo'shimcha ustama haqi to'lanmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qaroriga asosan milliy sertifikatning tegishli darajasiga ega matematika fani o'qituvchilariga ular faoliyat olib borayotgan davlat ta'lim muassasasining joylashuviga qarab bazaviy tarif stavkasiga nisbatan 25 foizdan 50 foizgacha har oylik ustama haq to'lanishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son qaroriga asosan raqamli ko'nikmalarni egallash darajasi bo'yicha tegishli sertifikatga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan maktablarning «Informatika va axborot texnologiyalari» fani o'qituvchilariga bazaviy tarif stavkasining 50 foizi miqdorida har oylik ustama haq to'lanadi.

Ta'lim sifatini oshirish o'quvchilar bilan tinimsiz ishlashni nazarda tutadi va bunda

o'qituvchini ortiqcha hisobotlar chalg'itmaslik maqsadida pedagog-xodimlar tomonidan yuritiladigan hujjatlar kamaytirildi. Xususan, o'qituvchilarning hisobotlari 1 ta (ilgari 7 ta), o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari hujjatlari 2 ta (ilgari 10 ta), ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari hujjatlari 7 ta (ilgari 18 ta), sinf rahbarlari hujjatlari 4 ta (ilgari 10 ta) etib belgilandi.

Dunyoni larzaga solgan turli tabiiy, texnogen o'zgarishlar ta'limga ta'sir qilmay qolmaydi. Doimiy ravishda birinchilardan bo'lib shunday ta'sirlarni boshidan kechiradigan maktab ta'limi zamonaviy chaqiriqlar asosida transformatsiyaga yuz tutadi, duch kelgan muammolarni tezkorlik bilan yechish orqali ta'lim sifatida yo'qotishlar minimallashtiriladi.

Pandemiya sharoitida xalq ta'limi tizimida o'quvchilarning ta'lim olish jarayoni masofaviy shaklga o'tkazilib, 3 ta telekanalda "Onlayn maktab" loyihasi doirasida masofaviy ta'lim yo'lga qo'yildi.

Bugungi kungacha "Onlayn maktab" ruknida jami 18 mingga yaqin televizion darslar o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida tasvirlanib va 17 mingdan ortig'i efitra uzatildi.

Pandemiya bilan bog'liq cheklolarga qaramasdan, o'quvchilarning qiziqishlariga ko'ra qobiliyatlarini rivojlantirish, ya'ni, maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish borasida "Barkamol avlod" bolalar maktablarida o'quvchilarning qamrovi 4,2 foizga yetkazildi. 5 ta tashabbus doirasida turli to'garaklarga o'quvchilarni jalb qilish 63 foiz (3,9 mln. nafar)ga yetkazildi.

Maktablarda 2 108 ta havaskor yoshlar teatr-studiyalari faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga 198,7 mingga yaqin o'quvchilar jalb etildi.

Pedagog va xodimlar salohiyatini oshirish borasida A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarni belgilash ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tizimdagi xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha yangi tizim – "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi ishga tushirildi.

Bugungi kunda elektron platforma orqali 200,0 mingga yaqin xalq ta'limi xodimlari o'z malakasini oshirdi. Malaka oshirishning variativ o'quv dasturlari asosida raqamli kontent yaratildi.

Mazkur yo'nalishda xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilib, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish maqsadida «**КЛИАСС**» loyihasi doirasida jami 150 nafar rossiyalik pedagog, "English Speaking Nation" loyihasi doirasida 26 nafar AQSHlik pedagog malaka oshirish markazlari va maktablarga jalb qilindi.

Shuningdek, xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida, 383 ta tayanch maktablari tashkil etilib, Milliy markaz bilan hamkorlikda PISA va PIRLS yo'nalishlari bo'yicha 4 nomdagi uslubiy qo'llanma tayyorlanib, barcha maktablarga yetkazildi.

Bundan tashqari, 80 nafar trenerlar xalqaro baholash dasturlari hamda testologiya bo'yicha tayyorlandi. Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha kaskad usulida 1000 nafar matematik savodxonlik yo'nalishi bo'yicha, 1500 nafar tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha, 1800 nafar o'qish savodxonligi yo'nalishi bo'yicha 1294 nafar pedagoglarning malakasi oshirildi.



O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, ayniqsa, ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda 9 419 ta umuta'lim maktablari keng polosali Internetga ulandi, 7000 ta maktablarda kompyuter sinf xonalariga lokal tarmoq hamda o'qituvchilar xonasiga Wi-Fi qurilmalari o'rnatildi.

Xalq ta'limi tizimini avtomatlashtirish, ma'lumotlar almashinuvini elektron shaklga o'tkazish hamda tizimda shaffoflikni ta'minlash maqsadida 20 tadan ortiq axborot tizimlari ishga tushirildi. Jumladan, erp.maktab.uz – xalq ta'limi tizimini boshqarishning dasturiy majmuasi (ERP) ishlab chiqildi va amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu dasturiy majmua 13 dan ortiq tashqi ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilindi.

Aholiga sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish maqsadida qabul.maktab.uz onlayn qabul tizimi ishlab chiqilib, Toshkent shahrida hamda viloyatlar markazlaridagi maktablardan jami 88 mingdan ziyod 1-sinf o'quvchilar hujjatlari onlayn tarzda qabul qilindi.

Respublika bo'yicha 6 mingta maktabda elektron jurnal Kundalik.com tizimi joriy etilib, 4,1 mln. nafar foydalanuvchi ushbu elektron tizimdan foydalanmoqda. Tizim orqali o'quvchilar davomati va fanlarning o'zlashtirilishi bo'yicha ma'lumotlar olinadi.

Shuningdek, attestat.uzedu.uz – elektron shahodatnoma platformasi yordamida maktab bitiruvchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatlashtirish maqsadida "Attestat" avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishga tushirildi. Bugungi kunda jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) bilan bog'langan holda 1,7 mln. bitiruvchilarning shahodatnomalari raqamlashtirilgan.

Xalq ta'limi tizimini yuqori salohiyatli kadrlar bilan ta'minlash tizimini shaffoflashtirish maqsadida ish.uzedu.uz portali orqali barcha maktablardagi ochiq ish o'rinlarini e'lon qilish hamda ushbu lavozimlarga elektron ariza topishirish yo'lga qo'yildi.

O'quvchilar, ularning ota-onalari uchun Kitob.uz portaliga 2 mingdan ortiq adabiyotlarning elektron va audio shakli joylashtirildi.

Maktablarning moddiy-texnika bazasi va infratuzilmasini yaxshilash maqsadida ta'lim berish uchun zarur moddiy-texnik bazani mustahkamlash borasida oxirgi to'rt yil davomida 134 ta maktab qurildi (oldingi 2013-2016-yillarga nisbatan 61 taga ko'p), 2 965 ta maktab qayta rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi (oldingi 2013-2016-yillarga nisbatan 1 526 taga ko'p). Mazkur maqsadlarga 6,4 trln. so'm (oldingi 2013-2016-yillarga nisbatan 4,7 baravarga ko'p) mablag'lar yo'naltirildi.

Shuningdek, 2021-yilda jami 860 ta (351 ta Investitsiya dasturi, 169 ta Vazirlar Mahkamasi Rayosat bayonlari, 340 tasi "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida) obyektlarda qurilish-ta'mirlash ishlarini (42 ta yangi qurilish, 446 ta rekonstruksiya, 362 ta mukammal ta'mirlash, 10 ta joriy ta'mirlash) amalga oshirildi.

Bunda, 2021-yildagi obyektlar uchun davlat va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan jami 3,6 trln. so'm mablag' ajratildi.

437,6 mlrd. so'm mablag' (2013-2016-yillarga nisbatan 165,8 mlrd. so'm ko'p) hisobiga 3 444 ta umumta'lim maktablari (2015-2017-yillarga nisbatan 1 924 taga ko'p) o'quv inventar, mebel va jihozlar yetkazildi.

Ushbu davrda zamonaviy kompyuter bilan ta'minlanganlik darajasi 62,5 foizga yetkazildi;

2021 yil yakuniga qadar jami 1 445 ta umumta'lim maktab, xususan, 625 ta umumta'lim maktabi, 70 ta fizika faniga ixtisoslashtirilgan, 87 ta, kimyo-biologiya fanlariga ixtisoslashtirgan maktab, Xalqaro PISA tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha 348 ta, "Obod qishloq" va Obod mahalla" dasturiga kiritilgan 315 ta maktablar mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunolari, sport anjomlari va boshqa texnik vositalari bilan ta'minlanadi.

Shuningdek, barcha umumta'lim maktablari birlamchi sport anjomlari bilan va 314 ta umumta'lim maktablari musiqa cholg'u asbob-uskunolari bilan ta'minlanadi.

Sohada davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat umumta'lim tashkiloti faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha 20 ta loyiha amalga oshirilayotgan bo'lib, mazkur loyihalar orqali 6 180 nafar o'quvchi o'rni hamda 748 ta ishchi o'rni yaratiladi.

Bugungi kunda xususiy sektor hisobiga nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni 192 taga yetib, ularda 30 000 dan ortiq o'quvchi tahsil olmoqda va 6 000 ga yaqin xodim ish faoliyatini olib bormoqda. 2017-yildan 2021-yilga qadar nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni deyarli 5 baravarga oshdi.

Bugungi, internet, texnologiyalar rivojlangan bir davrda ta'lim kimni tarbiyalab berishi kerak, degan savol kun tartibining eng asosiy masalasi bo'lib qolaveradi. Robotlar va sun'iy intellekt davrida ular nimani o'rganishi va biz ularni nimalarga o'rgatishimiz kerak? Jadal texnik-texnologik taraqqiyot va ma'lumotlarning ko'pligi an'anaviy ravishda o'quv materiallariga asoslangan ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish hamda takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

Taraqqiyot strategiyasida aniq maqsadlar belgilab berildi, xususan, 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish; Milliy o'quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish; Milliy o'quv dasturi bo'yicha yangi metodikalarga o'qituvchilarni o'qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish ishlari rejalashtirilgan.

Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish bo'yicha quyidagilar:

har bir fan bo'yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatsiya talablarini belgilash, toifaga ega bo'lmagan maktab o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini diagnostikadan o'tkazish;

umumta'lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta'lim maskanlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'ldirish ishlarini davom ettirish;

maktablarda direktor va uning o'rinbosarlarini tayinlash tizimini maktab o'qituvchilari va otalarning ishtiroki ta'minlanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish;



xalq ta'limi tizimi tuman bo'linmalari faoliyatini to'liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda zamonaviy jamiyat va mehnat bozorining real ehtiyojlari qanday o'zgarib borayotganini chuqur anglabgina qolmasdan, milliy yuksalish sari ustuvor maqsadlarimizga eltuvchi ta'lim sohasida tub burilishlar, innovatsion takomillashtirishlarni birgalikda amalga oshirishimiz lozim.

Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi, shu ostonadan katta umidlar bilan maktabga kirgan har bir O'zbekiston farzandi mamlakat taraqqiyotini ta'minlashga qodir bo'lgan muvaffaqiyatli shaxs sifatida uni bitirishi uchun barcha sharoitlarni yaratish, ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi islohotlarni hamkorlikda amalga oshirishda davom etish burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 572-sonli qarori.
4. Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan boshlanadi. Xalq ta'limi vazirligi- Toshkent: 2021. – 256 b.
5. А.Шляхер. Образование мирового уровня. Национальное образование – Москва: 2019. – 331 с.
6. Чарльз Фейдл, Майя Бялик, Берни Триллинг. "Четырёхмерное образование". ВЕНДИ КОПП, Teach for All.





UMUMIY O'RTA TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI



A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

TURBULENT TA'LIM MUHITIDA MAKTAB TA'LIMI SIFATINI YAXSHILASH

(O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyat, Beshariq tumanidagi 41 ta umumiy o'rta ta'lim maktabidan olingan ma'lumotlar asosida)

Ayubxon Radjiyev,

A.Avloniy nomidagi ilmiy
tadqiqot instituti direktori

Farxod Karimov,

A.Avloniy nomidagi ilmiy
tadqiqot instituti direktor
o'rinbosari

Maqsuda Badalova,

A.Avloniy nomidagi ilmiy
tadqiqot instituti bo'lim
boshlig'i

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot Beshariq tumanidagi davlat umumta'lim maktablari misolida, o'zgaruvchan sharoit bilan maktab ta'lim sifatini yaxshilash o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish orqali ta'limdagi turbulentlikni bartaraf etishning samarali yo'llarini topishga qaratilgan. Ma'lumotlar so'rovnoma usuli orqali to'plangan va STATA 16.0 ma'lumotlar dasturi yordamida tahlil qilingan. Dastlab, ma'lumotlarni omillarga mosligini tekshirish usuli KMO, Bartlett testi, Varimax rotatsiyasi, faktor yuklamalari noyob dispersiyalari (o'ziga xos qiymati), ortogonal aylanma yuklanish matritsasi, skri(chiziqli) grafigi, moslik testi va har bir kuzatilgan o'zgarishning ichki barqarorligi Kronbax alfa omil tahlili metodologiyasidan foydalangan holda o'zgarishlarga ta'sir etuvchi yashirin omillar shakllantirildi. Modelga kelsak, har bir omilning ta'sir kuchidan kelib chiqqan holda tahlil qilingan sababiy bog'liqlikni ifodalovchi 10 ta yo'l olingan.

Kalit so'zlar

Davlat maktabi, ta'limning turbulentligi, maktab sifati, integratsiya, islohotlar.

Qo'shimcha kalit so'zlar

CFA, Path modeli, maksimal ehtimollik, Bartlett, KMO, Alpha, Latent.



So'nggi yillarda, O'zbekistonda, maktab ta'limi sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablari reytingi bugungi kun hukumat islohotlarining asosiy vositasiga aylanmoqda. Maktablarda sifat pasayishining eng asosiy sabablaridan biri bu o'z sohasini yaxshi biladigan bilimli va malakali o'qituvchilarning yetarli emasligi hisoblanadi. Maktab ta'limi sifatining o'zgaruvchan holati va muhitiga mos keladigan tegishli ISO standartini joriy etish muhim bir komponent sifatida qaraladi, chunki bu muhimligi jihatidan hatto jahon miqyosidagi maktablar orasida alohida ahamiyatga ega. Maktablarda ta'lim berish va ta'lim olish metodologiyasi sifat-samaradorligini oshirishning asosiy muammoli masalalarini YUNESKO, Jahon banki va OECD tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar bilan integrallashgan holda olib borilishi vaqt o'tishi bilan ilg'or iqtisodiyotda o'z isbotini topgan.

Umumiy o'rta ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish zarur. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari bolalarning har bir sinfda nimalarni bilishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqilishi kerak. Darsliklarni eng zamonaviy uslublar asosida yaratish va nashr etish, maktablarda texnologiya, muxandislik, matematika, san'at, chet tillari ta'limi yo'nalishlarini yanada kuchaytirish, o'quv laboratoriya xonalarini qayta jihozlash zarur. Va albata bu jarayonda maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim tizimlari bilan integratsiyani (uyg'unlashuvini) ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar tahlili.

Maktab ta'limi sifati va ta'limning turbulentligi o'rtasida yaxshigina mutanosiblik mavjud. Ko'pgina oldingi tadqiqotlarda maktab ta'limi sifati va o'quvchilar natijalari sinflar soni, o'qituvchilarning o'ziga xos xususiyatlari yoki xarajatlarning aholi jon boshiga hisobi kabi ko'rsatkichlar asosida va yordamida tahlil qilingan [1], [2], [3].

Bu tadqiqotlar 55 ta beqaror, ya'ni o'zgaruvchan jarayonni maktab ta'limi sifatini yaxshilashga bevosita ta'sir etuvchi holat sifatida qaraydi. Bunday yondashuv o'zgaruvchan holat bilan o'quvchilar natijalari o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri munosabatlarning sabab-oqibatlarini tadqiq qilishni nazarda tutganligi sababli, maktab ta'limi sifati tushunchasi tadqiqiga muhtoj emas. Ushbu tadqiqotlarning ba'zilar maktab ta'limi sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatsa-da, ayrimlarida buni aniqlab bo'lmaydi (unday emas) [4]. Biz ta'sirni aniqlay olmaslik maktab ta'lim sifati va o'quvchilar natijalari o'rtasidagi bog'liqlikning yo'qligi bilan bog'liq emasligini, balki maktab ta'limi sifat ko'rsatkichi pastligi bilan o'quvchilar o'zlashtirish natijalari o'rtasidagi ijobiy va muhim bog'liqlikni Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi maktablardagi ta'lim sifat ko'rsatkichlari asosida aniqlashni taklif etamiz.

Shu nuqtai nazardan ushbu tadqiqot, maktablar o'zlarini o'zgartira olmaydigan islohotlar samarasini tahlil qilishga qaratilgan. Kam sonli innovatsion maktablar va amaliyotning rivojlanishi maktablar faqat lahzalik urinish, g'ayrioddiy topqirlik va yetakchi shaxslar yoki guruhlarining kuchli rahbarligi orqali o'zgarishi mumkin degan qoidani aks ettirishi mumkin [6].

Turbulentlik nazariyasi maktablarda innovatsiyalarni o'rganish bilan boshlandi: [7] maktabga joriy etilayotgan innovatsiyalarda, har doim ham noqulaylik darajasi bordek tuyuladi.

Ulardan birinchisi holat yoki turbulentlik bilan bog'liq bo'lgan vaziyat. Holatni aniqlash uchun biz tashkilotda mavjud bo'lgan turli guruhlarni (masalan, direktor, o'qituvchilar, ota-onalar, o'quvchilar) va ular o'zgarishni, turbulentlikni qanday tasavvur qilishlarini intervyu jarayonida ishtirok etgan direktorlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. Shuningdek, biz nomutanosiblik (turbulentlik) ning kuchayishi tufayli maktab faoliyatini yaxshilash maqsadida maktab direktorlari tomonidan qo'llanilgan turli yondashuvlarni taqqosladik.

Ta'limdagi turbulentlikni bartaraf etish bo'yicha ikkita yo'nalishiga asoslangan ushbu tadqiqotda har bir maktabda amalga oshirilgan nisbiy yechimning mohiyatini tushunishga harakat qilinadi. Innovatsion maktab kaskad usulidan foydalanadi, chunki shahar o'zining boshlang'ich startup (ish bowshlash) islohoti orqali ijobiy natijaga erisha oladi [8].

Tadqiqotchi olimlardan biri S.J. Gross ta'kidlashicha, iqtidorli rahbar o'zining innovatsion umumiy o'rta ta'lim maktabini og'ir turbulentlik davrida muloqat va uzluksiz hamkorlikni barqarorligini ta'minlagan holda; innovatsiyon tashabbusni hamda o'z missiysini targ'ib qilishda demokratik-tenglik va boshqaruvda hamjihatlik tamoyillariga asoslangan holda takomillashtirib boradi [9].

Nilsson va Bunar, maktabda alohida mahalliy tartib mavjud bo'lmasa, "yangi kelgan, tilga, o'zlashtirishga va qadriyatlarga e'tiborli bo'lgan bolalar maktabning ijtimoiy-pedagogik jarayoniga muammosiz moslashib ketadi" degan mafkuraviy ishonch bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar [10].

Tadqiqot tahlili natijalari: tanishtiruv darsi yoki to'g'ridan-to'g'ri jalb etish; ona tilini o'qitish; tushuntirishlarni ikki tilda olib borilishi yoki boshqa qo'llab-quvvatlovchi harakatlar direktorga o'quvchilarning ta'lim olishini qanday tashkil etish, rejalashtirish va amalga oshirish yuzasidan qaror qabul qilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi [11].

Ma'lumotlarni yig'ish va namunalarni saralash

Ma'lumotlarni to'plash uchun biz 55 ta savoldan iborat so'rovnoma usulidan foydalandik. 55 ta maktab direktorlari, ma'muriyat xodimlari va o'qituvchilardan ushbu tadqiqotning respondentlari hisoblanadi. So'rovnoma 2021-yilning iyun-avgust oylarida Google dasturi orqali respondentlarga tarqatildi. 41 ta maktab tasodifiy bo'lmagan tanlab olish usuli yordamida tanlandi va Googldagi so'rovnoma shakli mazkur maktablarning barchasiga tarqatildi. Tadqiqotni amalga oshirish maqsadida Googl dasturi orqali tarqatilgan anketani to'ldirmagan respondentlar bilan individual tarzda bog'lanib, ularning javobi va ma'lumotlari yig'ildi. Shu tariqa, javob bermagan 13 ta maktab ro'yxatdan olib tashlandi. Kuzatuvdagi raqamlar soni juda kichik va modelda beqarorlik ko'pligi sababli qolgan 41 ta maktab samaradorligi haqidagi ma'lumotlar bo'limlar kesmi asosida tahlil qilindi.



Metodologiya

Ushbu tadqiqot jarayoni O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyatidagi 41 ta umumta'lim maktablari faoliyatini qamrab olgan. Aynan shu yondashuv statistik ma'lumotlar tahlilida Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi 65 maktabi misolida ta'lim turbulentligini bartaraf etishga qaratilgan harakatlarning o'zaro ta'sirini tahlil qilishda qo'llaniladi. Biz 55 ta mustaqil o'zgaruvchan holat misolida tasdiqlovchi omil tahlili yondashuvi asosida tadqiqotni tahlil qilish uchun yangi yondashuvni joriy qildik.

Faktor analizi/tahlili (FA) 100 yil avval Pearson va Spearman (Spearman 1904) tadqiqot ishlari natijasida paydo bo'lgan. Faktor analizi ko'p o'lchovli statistik jarayon sifatida odatda axborot tizimlari, psixologiya, tijorat va ta'lim sohalarida qo'llaniladi va hisobot beruvchi so'rovlarini sharhlash uchun tanlov yondashuvi hisoblanadi [12].

FA ko'p sonli omillarni miqdorini kichikroq hajmga qisqartiradi. Bundan tashqari, u omillar va yashirin tuzilmalar o'rtasidagi asosiy me'yorlarni o'rnatadi va shu yo'l bilan nazariyani shakllantirish va takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek, u o'zi hisobot beruvchi shkalalarning asosiligidini tasdiqlaydi [13].

Faktor tahlili ikkita asosiy kategoriyaga bo'linadi, ya'ni, Exploratory Factor Analysis (EFA) – (Tadqiq qiluvchi omillar tahlili) va Confirmatory Factor Analysis (CFA) – (Tasdiqlovchi omillar tahlili). Strukturaviy tenglamalarni modellash (SEM) shakli sifatida CFA tadqiqotchi yoki model tomonidan taklif qilingan nazariyani sinab ko'rish uchun qo'llaniladi. [14].

Garchi EFA va CFA usullari kichikroq yashirin o'zgarishlar, omillar yoki komponentlar to'plami bilan kuzatilgan o'zgarishlar to'plamida iloji boricha ko'proq farqni hisobga olishga harakat qiladi [15].

CFA taxminlarni tasdiqlash va o'tkazilgan tadqiqot tahlillarini ifodalovchi tahlil modellaridan foydalanadi. EFA esa ma'lumotlar bazasini o'rganish va bashoratlarni sinab ko'rish orqali murakkab tendentsiyalarni aniqlashga harakat qiladi [16].

Ushbu tadqiqotdagi ba'zi o'zgarishlarni bir marta kuzatish (masalan, munosabat va xabardorlik) bilan o'lchash qiyin. Ushbu o'zgarishlar SEMning omil tahlili modeli yordamida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot tahlili STATA 16.0 dasturidan foydalangan holda kategoriali va raqamli ma'lumotlarni qamrab oladi.

Empirik natijalar

So'rovnomaning ushbu bo'limi respondentlardan maktab sifatining o'ziga xos xususiyatlari va ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berishni talab qiladi. Respondentlarning asosiy qismi ta'lim sifati darajasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qo'yilgan talablar asosida "Yashil hudud" toifasiga kiritilgan maktablar edi. CFA dan foydalanib, biz 11 ta yashirin (kuzatilmagan)

o'zgarishlarni umumlashtirish orqali turli bosqichlarni tahlil qildik. Shunday holda, biz ulardan faqat ikkitasini amalga oshirishga harakat qildik va qolgan natijalarni jadval shakllariga quyidagi tarzda kiritish orqali ko'rish mumkin:

Bu yerda omil ballari shunday tanlanadiki, birinchi omil eng katta o'zgarishni izohlaydi. Faktorli tahlilni o'tkazishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat: muammoni shakllantirish, korrelyatsiya matritsasini yaratish, omil tahlili metodining mustahkamligi, bir nechta omillarning mustahkamligi, omillarni almashinuvi, omillarning talqini, omillar ballarini hisoblash va modelga mos kelishini aniqlash.

Birinchi yashirin omil 6 ta omilni o'z ichiga olgan "O'qituvchining_imkoniyatlari" deb nomlanadi. Tanlovning adekvatligi sinovi omillarning o'ziga xos xususiyati qiymatlarini hisoblash orqali omil tahlilini qo'llash uchun eng muhim natijadir. O'ziga xos ahamiyatga loyiq holatlar - bu chiziqli tenglamalar tizimi (ya'ni, matritsa tenglamasi) bilan bog'liq bo'lgan maxsus o'lchovlar to'plami bo'lib, ular ba'zan o'ziga xos ildizlar, o'ziga xos xususiyatlar [17], alohida ahamiyatli holatlar yoki yashirin ildizlar [18] deb ham ataladi.

Ma'lumotlar jadvalidagi o'ziga xosliklar bu ma'lumotlar modelidagi umumiy farqni ifodalaydi. Demak, 1-omilning 37 foizi eng katta deb taxmin qilishimiz mumkin. 2-omil nisbati 21 ga yetadi, 3-omil esa 17 foizga baholanishi mumkin. Ushbu ro'yxatdagi umumiyliklarning barchasi kuchli, bu o'zgarishlar ajratilgan komponentlar tomonidan yaxshi aniqlanganligini ko'rsatadi (3-jadval).

1-jadval. O'zgarish xissasi va omillarning o'ziga xos qiymati

Faktor/Omil	Xususiyl qiymat	Farq	Proporsiya	Jamlangan o'rtacha qiymat
Faktor 1	2.25401	0.99708	0.3757	0.3757
Faktor 2	1.25693	0.22474	0.2095	0.5852
Faktor 3	1.03219	0.23783	0.1720	0.7572
Faktor 4	0.79436	0.16377	0.1324	0.8896
Faktor 5	0.63059	0.59866	0.1051	0.9947
Faktor 6	0.03193	.	0.0053	1.0000
Faktor analiz/korrelatsiya			Kuzatuv soni = 41	
Metod: asosiy-komponent omillar			Turg'un omillar = 3	
Ketma-ketlik: (aralash)			Parametrlar soni =15	
LR test: mustaqil va to'ldirilgan: $\chi^2(15) =113.83$ Prob> $\chi^2 = 0.0000$				
Kuzatilmagan/yashirin o'zgarish: O'qituvchining yashirin potentsiallari				

Modelning o'ziga xos va farqli omili hissasi 3-jadvalda keltirilgan. Shunday qilib, olti omilning o'ziga xos qiymatlari mos ravishda 2,25, 1,25, 1,03, 0,79, 0,63 va 0,032 ekanligini ko'rishimiz mumkin. Uchta omil 1 dan katta va barcha o'zgaruvchilarni ifodalash uchun yetarli. Berilgan omillar yuklamalarini 2-jadvalda ko'rish mumkin.



2-jadval. Faktor yuklamalari (namuna matriks) va o'ziga xos farqlar

O'zgarish	Faktor 1	Faktor 2	Faktor 3	O'ziga xoslik
O'qituvch. soni	0.5188	0.3661	-0.4365	0.4064
Erkak o'qituvch	-0.7326	0.1916	-0.3105	0.3302
O'rtacha o'qituv. s	0.7660	0.2403	0.0192	0.3551
O'quvchi. s.	-0.3844	0.6572	-0.0163	0.4200
O'quvchi s.~r	-0.0295	0.1384	0.8794	0.2067
O'qituvch. s.~l	-0.0297	-0.7784	-0.1332	0.3754
LR test: mustaqil va to'ldirilgan: $\chi^2(15) = 113.83$ Prob> $\chi^2 = 0.0000$				

Kaiser-Meyer-Olkin (KMO) metodi omil tahlilining qo'llanilishini baholaydigan usullardan biridir. KMO tekshiruv ma'lumotlarning omil tahliliga qanchalik mos kelishini tushunishdir (1-jadval). Ushbu test tahlilga tortilgan har bir kompetensiyani baholaydi. Statistika - bu umumiy tafovut bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgaruvchilar orasidagi tafovutlar miqdorini hisoblash. Foiz miqdori kichikroq bo'lsa, faktor tahlili sizga kutilgan natijalaringizni olish imkonini beradi. KMO 0 dan 1 gacha bo'lgan qiymatni qaytaradi. 1 ga yaqin qiymat yaxshiroq va natijalarning adekvatligi uchun kamida 0,5 tavsiya etiladi [19]. KMO testi 0,544 maqbul natijani ko'rsatdi (<0,50 qabul qilinishi mumkin emas) (3-jadval).

3-jadval. Yuqori darajadagi ta'sirni tahlil qilishga qaratilgan KMO va Bartlett's testi.

H0: Xilma-xil talqinlar o'zaro korelatsiya qilinmaydi	
Aniqlovchi Korelatsiya matriksi	Det = 0.047
Sharsimon Bartlett testi, Chi-maydon = 3.304	p-qiymat = 0.000
Namuna Adekvatligini o'lchash bo'yicha Kaiser-Meyer-Olkin o'lchovi KMO= 0.544	

Ekstremal multikollinearlikning boshqa mezonlarini tekshirish kuchli multikollinearlik mavjudligini ko'rsatadigan korrelyatsiya matritsasi Determinantini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu qiymat 0,00001[20] evristik qiymatidan kattaroqdir, bu 6 ta o'zgaruvchi o'rtasida 0,047 ga teng juda katta korrelyatsiya koeffitsientiga ega bo'lishiga qaramay, multikollinearlik mavjud emasligini ko'rsatadi (3-jadval).

Faktorlar matritsasining almashinuvi/aylanishi (aylanish ketma-ketligi)

Almashuv ketma-ketligining (Aylanishning) bir nechta usullari mavjud. Faktor tahlili dasturi beshta usulni o'z ichiga oladi: varimax [21], quartimax [22], to'g'ridan-to'g'ri oblimin va promax. Birinchi uchta tanlov ketma-ket aylanish ortogonalidir; oxirgi ikkitasi esa qiyalamadir. Bu holatga bog'liq, lekin ko'pincha varimax aylanma ketma-ketlik usulida, qiyalama aylanishda esa o'ziga xos oblimin ishlatiladi.

4-jadval. Ketma-ket aylanma, varimax

Faktor	Variance	Farq	Proporsiya	Kumulative
O'qituvchilar s_t~s	2.20376	0.94871	0.3673	0.3673
Erkak o'qituvchi~o	1.25505	0.17074	0.2092	0.5765
O'rtacha_te~e	1.08432	.	0.1807	0.7572
Rotatsiya: ortogonal varimax (Kaiser off) Parametrlar soni =15				

Ortogonal aylanish, tegishli ma'lumotlarning olingan omillariga "aylanishdan keyingi" omil yuklanishini ko'rsatadigan aylantirilgan element/ omil matritsasi va aylanish burchagi haqida batafsil ma'lumot beruvchi o'tish matritsasi bilan tugaydi (4-jadval). Jami dispersiya har bir faktor bilan izohlanadi "o'qituvchilar soni_t~s"2,20376, "erkak o'qituvchi~o" 1,2"5505 va "o'rtacha_te~e" 1,08432.

Aylanma omil yuklamalari matritsasi tahlili

Analitik natijani parametrlar uchun 5-jadvalda va uchta omil bo'yicha natijani esa omillarni yuklash matritsasida ko'rish mumkin. Yuklash omili - bu o'zgaruvchi va ma'lumotlardan olingan omil o'rtasidagi bog'liqlik. Ortogonal aylanish usulidan olingan omil va o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlikni omillarni yuklash matritsasini tadqiq qilish orqali ko'rish mumkin (5-jadval).

5-jadval. Aylanma faktor (omil) vazni (yuklamasi) (matritsa namunasi) va farqlarning ahamiyatlilik darajasi

O'zgaruvchi	Faktor1	Faktor2	Faktor3	Ahamiyatlilik darajasi
x ₁ o'qituv soni_t~s	0.9406	-0.1016	-0.0837	0.0979
x ₂ erkak o'qituv~o	-0.0658	-0.1169	0.8804	0.2069
x ₃ o'rtacha o'qit_te~e	0.2840	-0.4799	-0.4821	0.4566
x ₄ o'quv.soni_p~s	0.9738	0.0411	-0.0589	0.0465
x ₅ o'quvchisoni~r	0.5143	0.6212	0.1074	0.3382
x ₆ o'qituvsoni~l	-0.1456	0.7831	-0.2340	0.3108

LR test: mustaqil vs. ta'minlangan: chi2(15) =113.83 Prob>chi2 = 0.0000

- Ushbu natijalarga asoslanib, x_1 ning F_1 ga yuklanishi $A_1 = 0,940$ va F_2 ning A_1 ga yuklanishi $-0,101$ ga teng.
- x_1 uchun omil modeli tenglamasi: $x_1 = 0,940 \cdot F_1 - 0,101 \cdot F_2 - 0,083 \cdot F_3 + e_1$
- Har bir omil bilan izohlangan umumiy dispersiya F_1 uchun $2,413$ (48,3%) va F_2 uchun $1,317$ (26,3%).


Shuningdek, omillarning ortogonalligini ta'minlash uchun "varimax" aylanish usuli qo'llanildi. Omillarning ortogonalligi logistik regressiyadan foydalanishni maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi. Bartlettning Sharsimon testi statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, korrelyatsiya matritsasi faktorli ekanligini ko'rsatadi [23].

6-jadval. Aylanma faktor(omil) matritsasi


Faktor	Faktor 1	Faktor 2	Faktor 3
masofaviy_k~m	1.53099	0.23715	0.2552
Qabulqilingan o'quvchi~e	1.29384	0.21240	0.2156
sobiqbitiruvchi~d	1.08144	.	0.1802

Rotatsiya: orthogonal varimaks (Kaiser off) parametrsoni =15

Faktor rotatsiyasining maqsadi juda katta (± 1 ga yaqin) va yuklamalar juda kichik (0 ga yaqin) bo'lgan ba'zi yuklarni olishdir. Parametrlar va omillarni yuklash matritsasi uchun analitik natijani 1-shaklda ko'rish mumkin. Yuklash omili - bu o'zgaruvchi va ma'lumotlardan olingan omil o'rtasidagi bog'liqlik. Ortogonal aylanish usulidan olingan omil va o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlikni omil yuklash matritsasini tahlilidan ko'rish mumkin.



1-shakl. Faktor yuklash matritsasi va o'zgaruvchilarni x o'qi va y o'qiga nisbatan tahlil qilish, ma'lumotlar nuqtasi O'qituvchining yashirin potentsiallari aniqlash uchun ishlatiladigan 6 ta omilni bildiradi.



2-shakl. Me'yoriy holat uchun og'ma/kurtoz testlari

5-jadvalda ko'rsatilgan tavsifiy tahlilga asoslanib, har uch omil ham me'yorga rioya qilmasligi kuzatiladi. Bu, shuningdek, 2-shaklda tasvirlangan Kolmogorov-Smirnov statistik testi orqali me'yoriy holat aniqlovchi testlar bilan tasdiqlangan. Har uch omilning o'rtacha-medianasi va uslubi teng emas, shuningdek, og'ish va kurtoz koeffitsienti ham mos ravishda 0 va 3 ga teng emas. Pr (Skewness) 0,0694, Pr (Kurtoz) 0,6848, adj chi2 (2) 3,72. P-qiymati 0,05 ahamiyatlilik darajasidan 0,155 ga yuqori. Demak, me'yoriy holat haqidagi gipotezani rad etib bo'lmaydi. "O'qituvchining_potentsiallari" yuzasidan ma'lumotlar odatda Yashirin taqsimlanadi.

A2+ • sonlarning bo'linish munosabatiga, Dirixle va matematik induksiya prinsiplariga, juft-toqlikka oid nostandart masalalarni yecha oladi; • ayniyatlar, ko'phadlar, tenglamalar va tengsizliklarga oid nostandart masalalarni yecha oladi; • uchburchaklar haqidagi klassik teoremlardan va murakkab bo'lmagan yassi figuralar xossalariidan foydalanib, geometrik masalalarni yecha oladi; • graflarga, to'plamlar, obyektlarning takrorsiz kombinatsiyalariga oid masalalarni yecha oladi; • sodda amaliy vaziyatlarda ro'y beradigan hodisalar ehtimolliklarini topa oladi, ro'y berish-bermaslik imkoniyatlari bo'yicha taqqoslay oladi; • turli manbalardan ma'lumotlarni izlab topadi, dastlabki ishlov bera oladi.	A2+ • nostandart matematik holatlarda klassifikatsiya, analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya usullaridan foydalana oladi; • qabul qilingan mezonlarga asosan o'z faoliyati samarasiga baho bera oladi.

B1 • kompleks sonlarni o'z ichiga olgan sodda sonli ifodaning qiymatini hisoblay oladi; • formulalar bo'yicha aniq va taqribiy arifmetik hisob-kitoblarni va ayniy almashtirishlarni bajara oladi; • o'rganilgan turlardagi tenglamalar va tengsizliklarni hamda ularning sistemalarini aniq va taqribiy yecha oladi; • turli usullarda berilgan funksiyalarning xossalari aniq qayd etiladi, elementar funksiyalar grafiklarini tasvirlay oladi; • murakkab bo'lmagan vaziyatlarda differensial va integral hisob usullaridan foydalana oladi; • o'rganilgan yassi va fazoviy figuralar xossalari, geometrik almashtirishlar, vektor va koordinatalar usullaridan foydalanib amaliy va o'quv masalalarni yecha oladi, sodda geometrik tasdiqlarni isbotlay oladi; • sodda tasodifiy hodisalarning modellarini qura oladi va tahlil qila oladi; • mulohazalar va predikatlar hisobi, to'plamlar nazariyasi, kombinatorikaga oid amaliy va o'quv masalalarni yecha oladi.	B1 • murakkab bo'lmagan hodisa va jarayonlarni matematik modellashtira oladi; • o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv va amaliy masala yechishda qo'llay oladi; • standart vaziyatlarda klassifikatsiya, analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya usullari yordamida strategik, refleksiv va evristik tafakkur yurita oladi.
B1+ • sonlar nazariyasiga oid masalalarni yecha oladi; • nostandard tenglama va tengsizliklarni yecha oladi; • sodda funksional va differensial tenglamalarni yecha oladi; • o'rganilgan yassi va fazoviy figuralar kombinatsiyalariga oid geometrik masalalarni yecha oladi; • kombinatorikaga oid nostandard masalalarni yecha oladi; • amaliy vaziyatlarda ro'y beradigan ayrim hodisalar va jarayonlarning modellarini qura oladi va tahlil qila oladi; • sodda amaliy vaziyatlarni grafiklar yordamida modellashtira oladi.	B1+ nostandard vaziyatlarda klassifikatsiya, analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya usullari yordamida strategik, refleksiv va evristik tafakkur yurita oladi.

Yuqorida milliy davlat ta'lim standartlarining qisqacha tarixi va uning bugungi holati, qonunchilik asoslari, ta'lim, bilim, malaka, ko'nikma va kompetensiya talablari haqida ma'lumot berib o'tdik. Endi xalqaro ahamiyatdagi ta'lim standartlarini o'rganib chiqamiz undagi kompetensiya talablarini ko'rsatib o'tamiz.

Ilk va asosiy xalqaro ta'lim standarti UNESCO tarafidan ishlab chiqilganligini ta'kidlashimiz mumkin. Zero, UNESKOning asosiy vazifasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida belgilangan irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barcha xalqlar uchun umumbashariy hurmat, adolat, qonun



ustuvorligi va inson huquqlari, shuningdek, asosiy erkinliklarni ta'minlash maqsadida xalqlarning ta'lim, fan va madaniyat sohalarida hamkorlikni kengaytirish orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga hissa qo'shishdan iborat.

UNESCO ta'lim sohasida hamkorlik va aloqalarni rivojlantirish va ta'lim sohasi taraqqiyotida muhim bo'lgan ko'plab amaliy ishlarni olib borgan. Shunday ishlardan biri – Ta'limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasi (ing.: ISCED, ruscha: MSKO) bo'lib, bu davlatlarning milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlar ta'lim yutuqlarini solishtirish va ta'lim tizimlarning jihatlari va jarayonlarini tushunish imkonini orttirdi.

Klassifikatsiya (ISCED)ga ko'ra, «kvalifikatsiya» so'zi, «sertifikat», «daraja» yoki «diplom» so'zlari bilan sinonimdir) – odatda, ta'lim dasturini yoki ta'lim dasturi bosqichini muvaffaqiyatli tugatganligini tasdiqlovchi hujjat shaklidagi rasmiy tasdiqdir.

Klassifikatsiya (malaka) quyidagi yo'llar bilan olinishi mumkin:

- 1) butun ta'lim dasturini muvaffaqiyatli yakunlash;
- 2) ta'lim dasturining bir bosqichini muvaffaqiyatli yakunlash (oraliq ta'lim malakasi);
- 3) ta'lim dasturida ishtirok etishga bog'liq bo'lmagan bilim, ko'nikma, kompetensiyalarni sinovdan o'tkazish.

Dasturni muvaffaqiyatli yakunlashi o'quvchining ma'lum o'quv maqsadlariga erishgan, deb hisoblaydi. Bunda ta'lim dasturlari, kurslar (masalan, modullar yoki fanlar) ISCED bo'yicha malakali deb topilishi uchun ISCED talablariga (darajalar, dars soatlari, ballar va boshqa mezonlar) to'g'ri kelishi kerak.

ISCEDning ta'lim daraja va mezonlarini bizga tegishli bo'lgan daraja 3 ya'ni, ikkinchi bosqich (to'liq) o'rta ta'lim haqida batafilroq ma'lumot berib o'tamiz. Bu daraja har xil nomlanadi: yuqori sinf, to'liq o'rta maktab, ikkinchi bosqich. Bu darajadagi dasturlar o'quvchilarga ISCED 2 daraja dasturlardan ko'ra turli xil, ixtisoslashtirilgan va fanlarni chuqurroq o'rganishni taklif qiladi. Ko'proq va kengroq imkoniyatlar va yo'nalishlarni tanlash imkonini beradi. O'qituvchilar, odatda, o'zlari o'qitadigan fanlar yoki ixtisoslik yo'nalishlari bo'yicha, ayniqsa, yuqori sinflar uchun yuqori malakaga ega bo'ladi.

Umuman olganda, UNESCOning ta'lim standartlari yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, ta'lim bo'yicha umumiy mezonlarni taqdim qilayotgan bo'lib, individual o'quvchilarning kompetensiyalarini bevosita baholash uchun mo'ljallanmagan. Buning sababi, UNESCOga ko'ra, ta'lim dasturlari yoki malakalari va haqiqiy ta'lim yutuqlari o'rtasida bevosita bog'liqlik yo'q. Shaxsning o'qigan va muvaffaqiyatli bitirgan dasturlari, eng yaxshi holatda, dasturni tugatish vaqtida olingan ko'nikmalar, bilim va kompetensiyalar yaqinroqdir.

Shu bois, UNESCO milliy va mintaqaviy malaka tizimlari malaka va dasturlar bilan bog'liq bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni farqlash uchun foydali vosita bo'lishi mumkinligini ilgari suradi. Ko'pgina mamlakatlar aholining ta'lim yutuqlarini baholash bo'yicha kompetensiya va ko'nikmalar darajasini tavsiflash va solishtirish uchun milliy va mintaqaviy tizimlardan foydalanadi. Mamlakatlarga milliy va mintaqaviy malaka tizimini ISCED bilan aniq aloqa o'rnatish tavsiya etiladi.

Individual o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholaydigan mintaqaviy va xalqaro sinov va standart tizimlardan biri Programme for International Student Assessment (PISA, o'zb.: Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi) dasturi bo'lib, u OECDning xalqaro o'quvchilarni baholash dasturidir. PISA 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini hayotdagi qiyinchiliklarni hal qilishda qo'llay olish qobiliyatini o'lchaydi.

Xalqaro miqyosda boshqa tadqiqot markazlari International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA) – Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi, International Assessment of Educational Progress (IAEP) – Ta'lim taraqqiyotini xalqaro baholash va boshqalar haqida ham fikr yuritishimiz mumkin. Lekin, ular OECD/PISA kabi tizimli va keng miqyosli tadqiqot olib bormaydi. Qolaversa, PISA o'rta ta'limni bitiruvchilarning hayotlarida egallashlari kerak bo'lgan kompetensiyalar nuqtayi nazardan katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu xalqaro standartlar va tadqiqotlar milliy ta'lim dasturlari va standartlari uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro standartlar va OECD/PISA kabi xalqaro tadqiqot markazlarining organislari zamonaviy talablardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bu global rivojlanishda, texnologiya va innovatsiyalarni o'zlashtirishda, zamonaviy hayot shartlariga moslashishda o'rta ta'lim bitiruvchilari egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar borasida muhim talablarni ilgari suradi. Shu bois, milliy ta'lim dasturlari va standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, xalqaro tadqiqotlarning xulosalarini diqqat bilan o'rganish va ular asosida ta'lim islohotlarini olib borish, ta'lim dasturlariga o'zgartirish va qo'shimchalar qo'shish milliy kadrlarimizni sifatli va talabgor kadrlar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish to'g'risida» Toshkent sh., 1998-yil 5-yanvardagi 5-son. <https://lex.uz/docs/622242>
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining buyrug'i "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida" Toshkent sh., 2021-yil 17- dekabr, 406-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining buyrug'i "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida" Toshkent sh., 2021-yil 17- dekabr, 406-son.
4. Международная стандартная классификация образования: МСКО 2011. Институт Статистики ЮНЕСКО. Canada, 2013.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) – o'zbekchasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) – 100 dan ortiq mamlakatlar bilan hamkorlik qiluvchi global siyosat forumi bo'lib, butun dunyodagi odamlarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini yaxshilash siyosatini ilgari suradi. <https://www.oecd.org/about/>
6. What is PISA? <https://www.oecd.org/pisa/>



TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK KVALIMETRIYA VA PEDAGOGIK KOMPETENSIYA TUSHUNCHALARI

Sayyora Haydarova,

Guliston Davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida pedagogik kvalimetriya va pedagogik kompetensiya tushunchalari, kvalimetriya fan sifatida o'lchov jarayonini amalga oshirish nazariyasi asosida o'rganilishi, hozirgi zamon nuqtayi nazaridan kvalimetriyaning sifat ko'rsatkichlari to'g'risidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar

Kvalimetriya, nazariy, maxsus, amaliy kvalimetriya, pedagogik kvalimetriya, tabiiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar, buyum, xizmatlar, tahlil, sintez, qiyoslash va taqqoslash, etalon, model, pedagogik kvalimetriya metodlari.



Kvalimetriya - tabiatdagi barcha obyektlarni va jamiyatda sodir bo'ladigan barcha jarayonlar, ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulotlarning sifatini miqdoriy baholash muammolari va metodologiyasini o'rganuvchi ilmiy fan. Kvalimetriya -(lotincha quails – sifat, qadimiy yunoncha metros – o'lchov) degan ma'noni anglatib, obyekt, mahsulot, jarayonlar sifatini miqdoriy baholash metodlarini o'zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani belgilovchi fan tarmog'i. Kvalimetriya fan sifatida o'rganilishi va baholanishi lozim bo'lgan obyektning sifatini belgilovchi hajm, birlik, shkala, talablar yordamida mazkur ob'ektning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini aniqlashni belgilangan va qabul qilingan o'lchov jarayonini amalga oshirish nazariyasi asosida o'rganadi.

Hozirgi zamon nuqtayi nazaridan kvalimetriyaning sifat ko'rsatkichlari ikkita yirik guruh: tabiiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarga ajratib o'rganiladi. Tabiiy ko'rsatkichlar o'z navbatida: o'rganilayotgan obyektning fizikaviy, kimyoviy va biologik miqdor ko'rsatkichlariga ajratiladi. Ijtimoiy ko'rsatkichlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi voqea-hodisalar, ishlab chiqarish va iste'mol mahsulotlari, pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim – o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi; jarayonlar, shaxsning ijtimoiy va mustaqil hayotdagi mavqeyi va o'rne, savodxonligi, tarbiyalanganlik darajasi, shaxs kamolotiga qo'llaniladi. Kvalimetriya yuqorida qayd etilgan har bir guruhning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yaxlitlikda o'rganadi hamda baholashning umumiy tartibini ishlab chiqadi. Obyekt va mahsulotlarning sifatini tashxislash, shuningdek, miqdoriy baholash eramizdan avvalgi XV asrda yo'lgan qo'yilgan bo'lib, dastlab hunarmandlar o'z mahsulotlari sifatini belgilaydigan ko'rsatkichlarni aniqlagan va sifat belgilarini qo'ya boshlaganlar. Shu tariqa sifat ko'rsatkichlariga asoslangan tovarshunoslik vujudga kelgan va 1549-yili Italiyadagi Paduan universitetida dastlabki tovarshunoslik kafedrası tashkil etilgan.

XIX-XX asrning boshlarida AQSH va Yevropa mamlakatlarida obyekt va mahsulotlarni ballar vositasida baholash hamda standartlashtirish yo'lga qo'yildi. Shu tariqa, boshqa mamlakatlarda ham sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va amaliyotga qo'llash borasida muayyan ishlar amalga oshirila boshlandi. Bu harakatlar kvalimetriyaning ilmiy fan sifatida maydonga chiqishiga va tadqiqot ko'lami kengayishiga turtki bo'ldi. Kvalimetriyaning uchta tarmoqlari mavjud:

- nazariy (umumiy) kvalimetriya;
- maxsus kvalimetriya ;
- amaliy kvalimetriya.



Nazariy kvalimetriyada aniq obyekt loyihalanadi (abstraksiyalanadi) va uning sifat ko'rsatkichlarining umumiy qonuniyatlari va matematik modellari o'rganiladi. Nazariy kvalimetriyaning tadqiqot objekti jism, ishlab chiqarish mahsulotlari, obyekt va subyektlar sifatini miqdoriy baholashning falsafiy va metodologik asoslarini ishlab chiqish sanaladi. Nazariy kvalimetriyaning amaliy sohalarida turli obyekt va jarayonlar sifatini baholash metodikasi va nazariy asoslari umumiy xususiyatga ega.

Maxsus kvalimetriya turli xildagi va har xil maqsadda foydalaniladigan aniq obyektning sifatini baholashning aniq metodikasi va matematik modelini ishlab chiqadi. Maxsus kvalimetriyaning ekspert, ehtimollik-statistik, indeksli, kvalimetrik taksonomiya kabi turlari mavjud. Amaliy kvalimetriya-texnika, ishlab chiqarish, inson mehnati faoliyati, turli loyiha va jarayonlarning sifatini baholashni ishlab chiqadigan soha sanaladi. Amaliy kvalimetriyaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanib, texnik kvalimetriya, ijtimoiy kvalimetriya, pedagogik kvalimetriya, tibbiy kvalimetriya, geologik kvalimetriya va hokazo tarmoqlari mavjud. Bozor iqtisodiyoti davrida mahsulot (buyum, xizmatlar, jarayonlar)ning raqobatbardoshligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. U yoki bu buyum, xizmatlar, jarayonlarga ehtiyoj bo'lishi uchun muayyan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirish, maqsadga muvofiq bo'lish, belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish kabi qiymatga ega bo'lishi lozim. Ishlab chiqarish mahsulotlari va jarayonlarda mazkur belgilarning bo'lishi ular sifatining miqdoriy baholash imkonini beradi .



Xalqaro tajribalar buyum, xizmatlar, jarayonlarning yuqori sifatli bo'lishiga erishish uchun ularning sifatini aniqlaydigan ilmiy, texnik va tashkiliy mezonlar ishlab chiqilishi lozimligini ko'rsatdi. Muayyan obyekt yoki jarayon borishi, xizmatlar, jarayonlar sifati etalon tarzida qabul qilingan modelning mezonlari bo'yicha o'lchash va olingan natijalarni taqqoslash orqali baholash amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, kvalimetriya buyum, xizmatlar, jarayonlar sifatini baholash masalalarini o'rganadi. Bu jarayonda kvalimetriyaning asosiy metodlari: tahlil, sintez, qiyoslash va taqqoslash sanaladi. Etalon sifatida qabul qilingan modelning sifat ko'rsatkichlari asosida baholanayotgan obyektning xususiyatlari hisobga olingan holda uning sifati aniqlanadi.

Kvalimetriyaning amaliy tarmog'i bo'lgan pedagogik kvalimetriyada kadrlarni tayyorlashda malaka talablari etalon sifatida qabul qilingan bo'lib, pedagogik kadrlarning kasb malakasi va pedagogik mahorati sifati taqqoslash orqali aniqlanadi. Raqobatbardosh pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida mazkur jarayonni maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarishni rejalashtirish, o'quv jarayonini modernizatsiyalash, mazkur jarayonni metodik va texnik jihatdan ta'minlashni talab etadi.

XX asrning boshlarida ta'lim muassasalari pragmatik pozitsiyada, ya'ni, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni va keyinchalik kompetensiyalarni nazorat qilish hamda baholash yo'lga qo'yilgan. O'sha davrda Rossiya ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga urg'u berilib, ta'lim-tarbiyaning uzviyligiga asoslangan nazariy tizim yo'lga qo'yilgan va nazariy reproduktiv bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va ta'lim-tarbiyaning yakuniy natijasi sifatida har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan.

Pedagogik kvalimetriyaning eng yangi rivojlanish davrida talabalar shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi maydonga chiqdi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, pedagogik munosabatlar insonparvarlashtirilgan, talaba shaxsning qiziqishlari, ehtiyojlari, ichki va tashqi o'quv motivlarini e'tiborga olingan holda, ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish nazariyasi turadi.

Pedagogik kvalimetriya yillar davomida to'plangan tajribalar, dalillar asosida vujudga kelgan va shakllangan ilmiy-nazariy fan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan pedagogik innovatsiya va unga bog'liq holda o'qituvchining pedagogik faoliyatini yaxlit o'rganadi. Pedagogik kvalimetriya ko'p qirrali pedagogik jarayon va unga bog'liq holda o'qituvchining pedagogik faoliyatini o'rganib, pedagogika fanlari sohalari ichida eng muhim o'rin tutadigan, lekin kam o'rganilgan soha sanaladi. Shuni qayd etish kerakki, pedagogik kvalimetriya pedagogik jarayon va o'qituvchi pedagogik faoliyatining sifatini belgilaydi.

Pedagogik kvalimetriyaning metodologik muammolari shu kunga qadar ilmiy tadqiqotchilar diqqatidan chetda qolgan va bu sohadagi muammolar o'z yechimini kutmoqda. Adabiyotlar tahlili, pedagogik kvalimetriyaning metodologik asoslari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ta'lim muassasalari oldiga qo'yiladigan davlat va ijtimoiy buyurtmalarga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, uning metodologik asoslari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining mantiqiy birligi qonuniyati asosida rivojlanganligini ko'rsatdi.

Pedagogik kvalimetriyaning tadqiqot obyekti davlat va ijtimoiy buyurtmalar zimmasiga yuklangan ta'lim muassasasining mazkur buyurtmalarni bajarish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, talabalarning o'quv-bilish faoliyatining tashkil etilishi va boshqarilishi, o'qituvchi pedagogik faoliyatining maqsadga muvofiq tashkil etilishi sifatini nazorat qilish va baholash sanaladi.

Xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlar tahlili, kvalimetriya metodlaridan iqtisodiyotda, iste'mol buyumlarni indekslash, bunda tahlil, eksperimental, indeksli metodlardan foydalanish metodikasi G. Agzalov, A. Kostin, A. Omistelar tomonidan chop etilgan "The ABC of Qualimetry" kitobida o'z ifodasini topganligini ko'rsatdi. Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini nazorat qilish va baholash, mazkur tizimda pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlashda pedagogik kvalimetriya metodlari muhim o'rin tutadi.

Pedagogik kvalimetriya professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini aniqlashda ham o'rin tutadi. Pedagog kadrlarning o'z kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o'z-o'zini baholash uchun pedagogik kvalimetriyaning quyidagi metodlaridan foydalaniladi:

- Ekspertiza metodi
- Tahlil metodi
- Pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilish
- So'rovnoma o'tkazish
- Test topshiriqlari
- Suhbat metodi
- Matematik-statistik tahlil qilish
- Umumlashtirish

Pedagogik kvalimetriya jarayonini qo'llashda quyidagi mantiqiy yondashuvlar mavjud:

Pedagogik kvalimetrik jarayonni deduktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish;

Pedagogik kvalimetrik jarayonni induktiv mantiqiy yo'nalishda tashkil etish;

Pedagogik kvalimetrik jarayonning deduktiv-mantiqiy yo'nalishda tashkil etilishiga oliy ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiyalash, oliy ta'lim muassasalarining reytingini aniqlash jarayonlarini misol qilib olish mumkin. Mazkur jarayonda ekspertiza metodi vositasida oliy ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari, o'quv kurslarining didaktik va metodik ta'minoti, moddiy-texnik bazasi tahlil qilinib, ekspertizadan o'tkaziladi. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish



jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida, tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda, xususiy kompetensiyalar belgilandi. Pedagogning kasbiy kompetentligi pedagogika va psixologiya fanlariga doir bilimlarga ega bo'lish, o'z ustida ishlash, ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish, o'quvchilardan o'quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi bilish, ta'lim muhitiga yangilik kiritish, o'z fanini mukammal bilish, xorijiy tillardan birini yaxshi bilishini taqozo etadi.

A.V.Xutorskiy ta'lim jarayoni uchun muhim bo'lgan pedagogning quyidagi kompetentligini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash, qadriyat va o'zini anglash - o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqea-hodisalar mohiyatini aniqlay biladi va tushunadi; unga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida o'z fikrini asoslay olish hamda muammoning yechimini topa bilish ko'nikmasiga ega. Bu kompetensiya o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'z-o'zini anglash mexanizmini ta'minlaydi.
2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf-odatlariga hurmat; ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish. Ilm-fanning inson hayoti hamda dunyo rivojiga ta'sirini anglay olishi va o'quvchi-yoshlarga tushuntira olishi.
3. O'quv va bilish jarayoni – o'qituvchining mustaqil bilish faoliyati, mantiqiy fikrlashi, o'quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko'nikmasini tahlil qila olishi.
4. Ma'lumotga ega bo'lish – pedagogik faoliyati, o'z faniga doir ma'lumotlarni egallash ko'nikmasi.
5. Muloqotchanlik – til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo'lishi, jamoada o'ziga xos o'rinda turishi.
6. Ijtimoiy-foydali mehnat – oilaviy munosabatlar va mas'uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko'nikmalarga ega bo'lish.
7. O'z ustida ishlashi – jismoniy, ma'naviy, intellektual jihatdan o'z-o'zini rivojlantirib borishi, hissiyatini boshqarish. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik faoliyat subyekti hisoblangan o'qituvchining kasbiy mahorati va tajribasiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Garry G. Azgaldov. Alexander V. Kostin Alvaro E. Padilla Omiste. The ABC of Qualimetry. Toolkit for measuring theim measurable Ridero 2015. pp 87
2. "Pedagogik kvalimetriya" moduli bo'yicha o'quv qo'llanma Nizomiy nomli TDPU, p.f.d., dos. J.Tolipova, katta o'qituvchi A.B.To'rayev



TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

MAKTABDA TA'LIMI SIFATINI MONITORING QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Farrux Abdullayev,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Maqolada ta'lim sifati monitoringi, uning maqsadi va vazifasi, monitoringining asosiy funksiyalari, afzalliklari va kamchiliklari, turlari, monitoringni samarali tashkil etish va o'tkazish shartlari to'g'risidagi fikr-mulohazalar, nazariy ma'lumotlar va amaliy tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar


Kalit so'zlar. Ta'lim sifati monitoringi, axborot, diagnostika, qiyoshlash va prognozlash monitoringi, ta'lim tendensiyalari, strategik boshqaruv qarorlari.



Ta'lim sifati monitoringi, uning maqsadi va vazifasi. Monitoring deganda, ta'lim sifati to'g'risida ishonchli, yetarlicha, to'liq va foydalanish darajalari bo'yicha farqlangan axborot bilan ta'minlash maqsadida ta'lim sifatining eng muhim xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlarni uzluksiz yig'ish, ularni qayta ishlash, tahlil qilish va izohlash jarayoni (tizimi) tushuniladi. Bunda ta'lim jarayonlari va natijalarini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga, prognoz qilingan tendensiyalarga muvofiqligi o'rganiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, monitoring - bu o'quv jarayoni va uning natijalarini standartlashtirilgan kuzatish bo'lib, u o'z vaqtida obyektning holati aniqlash, ta'lim subyektlari va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni miqdoriy jihatdan baholash, o'zgarishlarni aniqlash va ularning rivojlanish yo'nalishini prognoz qilish imkonini beradi. Monitoring tizimini yaratishdan asosiy maqsad ta'lim sifatini oshirishdan iborat [1].

Monitoring tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: ta'lim jarayonining obyektlari va subyektlari, ta'lim sifati ko'rsatkichlari majmui, axborotni to'plash vositalari, ma'lumotlar bazalari, axborotni tahlil qilish, qayta ishlash va izohlash usullari, ma'lumotlarni qayta ishlash dasturiy ta'minoti va vositalari.

Ta'lim sifati monitoringi bir qator funksiyalarni o'z ichiga oladi.



Monitoringning axborot funksiyasi maktabdagi ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlari/komponentlari bo'yicha axborotlarni to'plashni o'z ichiga olsa, diagnostika funksiyasi esa, to'plangan axborotlarni tahlil qilish natijasida birlamchi va umumiy tashxislashni, qiyoslash funksiyasi esa, axborotni tahlil qilish, qayta ishlash davomida oldingi va/yoki belgilangan natijalar bilan taqqoslash, solishtirish tushunilsa, prognozlash funksiyasida esa, yakunda mavjud barcha tahliliy ma'lumotlar asosida ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun tahminlarga ega bo'lish, ta'lim sifatini o'zgarish trayektoriyasini bashoratlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Maktabning ichki baholash jarayonida to'plangan ma'lumotlardan o'qitish uslublaridagi yutuq va kamchiliklar, o'quv materiallarining samaradorlik darajasi, maktabni boshqarish yo'nalishidagi muammolar va boshqa ko'plab o'quv jarayoni masalalarini aniqlashda foydalanish mumkin. Ichki baholash (monitoring) maktabda joriy etilayotgan innovatsiyalarning oqibatlarini baholashga

yordam beradi. Monitoring ma'lumotlari maktab rahbariyati va o'qituvchilarni o'z faoliyatini yaxshilashga undaydi va o'quv jarayoni natijalari uchun mas'uliyatni oshirishga hissa qo'shadi.

Monitoringning afzalliklari va kamchiliklari. Monitoring ko'rsatkichlari har doim ishlab chiqilgan ta'limning mamlakat bo'yicha eng umumiy tendensiyalariga mos kelishi lozim. Ta'lim sifati yuzasidan ma'lumotlarni to'plash va statistik ma'lumotlarga ega bo'lish nafaqat ta'lim uchun muhim, balki maktab rahbariyati uchun ham juda ahamiyatli.

Ta'lim sifatining holatini tavsiflovchi statistik ma'lumotlardan maktabdagi ta'limni isloh qilish zarurligini ko'rsatish, oldingi holatning, maktabda amalga oshirilayotgan islohotlarning afzalliklari va/yoki kamchiliklarini ko'rsatish uchun foydalanish mumkin. Ayrim hollarda tahlilchilar ataylab hisobot berish uchun qulay/yuqori ko'rsatkichlarni tanlaydilar, bu esa real holatni ifodalashda qiyinchilik tug'diradi, shu sababli, ba'zi hollarda monitoring jarayoni ustidan nazoratni kuchaytirishni talab qiladi.

Maktabda o'tkazilgan ichki baholash natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarini manipulyatsiya qilish o'rnatilgan ba'zi standart mezonlar yoki test samaradorligi standartlari bilan solishtirishni qiyinlashtiradi.

Monitoring diagnostik xarakterdagi ko'plab kundalik vazifalarni hal qilishga imkon beradi. Maktab monitoringida to'plangan ma'lumotlar fanlarning ayrim bo'limlarini o'zlashtirishdagi tizimli qiyinchiliklarni aniqlashga, o'qituvchilar ishining innovatsion usullarining samaradorligini baholashga, alohida o'quvchilarning muvaffaqiyatsizliklari sabablarini diagnostika qilishga, umuman olganda, maktab monitoringi tizimi o'quv tizimining kuchli va zaif tomonlari haqida fikr-mulohazalarni berishga xizmat qiladi.

Monitoringni samarali tashkil etish va o'tkazish shartlari. Monitoring bo'yicha mutaxassislar uning samaradorligi uchun bir qator shartlarni belgilaganlar, jumladan:

- ma'lumotlarni yig'ish mexanizmining uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan tizimli yondashuvdan foydalanish;
- axborotni qayta ishlash, tahlil qilish va izohlash;
- monitoringda miqdoriy va sifat o'lchash usullarini uyg'unlashtirish;
- ko'rsatkichlar o'rtasidagi turli omillarlarni hisobga olgan holda monitoring ma'lumotlarini to'g'ri talqin qilish;
- monitoringni tashkil etish va o'tkazishga tegishli mutaxassislar va maktab o'qituvchilarini jalb qilish ;
- monitoring ma'lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish uchun salohiyatli mutaxassislar, samarali usullar va zamonaviy dasturiy ta'minotdan foydalanish;
- turli darajadagi ta'lim organlarining (TXTB, VXTB, MOHM, NTT) uslubiy va moliyaviy yordami.



Monitoring turlarining tasnifi. Monitoring turlarini tasniflash turli asoslarga ko'ra farqlanishi mumkin, ular quyidagilardan iborat:

- monitoring maqsadlari;
- uning asosiy funksiyalari;
- ma'lumotlar doirasi;
- usul va vositalar;
- monitoring modeli yoki texnologiyasi va boshqalar.

Ko'pincha monitoring turlarini tasniflash uning asosiy funksiyalariga muvofiq amalga oshiriladi: axborot, diagnostik, qiyosiy va prognostik.

Axborot monitoringi. Axborot monitoringini o'tkazish, tahlil, qiyosiy yoki bashoratli emas, balki aniqlovchi bo'lishi sharti bilan tanlangan ko'rsatkichlar/komponentlar to'plami bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, to'plash, tahlil qilish, tizimlashtirish va talqin qilishga qaratilgan jarayondir.

Axborot monitoringining o'ziga xos xususiyati ko'rsatkichlarning aloqa va o'zaro ta'siri, ta'lim sifatini boshqarishning turli darajalarida monitoring natijalarini taqqoslash, ta'lim tendensiyalarini aniqlash va ularning ta'lim sifatiga ta'sirini prognozlash ta'sirini tahlil qilmaslikdir.

Axborot monitoringi doirasida tahliliy ma'lumotlar ma'lum me'yorlar va standartlarga muvofiqligi darajasini aniqlashga qaratilgan. Masalan, maktab bitiruvchilarining attestatsiya sinovlari monitoringi ma'lumotlarini tahlil qilish bitiruvchilarning ta'lim yutuqlarining DTS talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan [2; 3].

Diagnostik monitoring. Diagnostik monitoring o'quvchilarning ko'pchiligi o'quv dasturining turli mavzulari yoki bo'limlari bilan qanday o'zlashtirayotganini aniqlash uchun mo'ljallangan. Diagnostik monitoring turli darajalarda amalga oshirilishi mumkin. O'qituvchilar o'quv materialini o'zlashtirishda muammolarni aniqlaydilar va sinf darajasida diagnostik monitoring faoliyatini amalga oshiradilar.

Diagnostik monitoring uchun ma'lumotlarni yig'ish odatda pedagogik o'lchovlar orqali amalga oshiriladi. Asosiy vositalar sifatida tuzatuvchi mezonlarga yo'naltirilgan testlar qo'llaniladi, ular o'quv materialini o'zlashtirishdagi bo'shliqlarning sabablarini aniqlash uchun diagnostik testlar bilan birga qo'llaniladi.

Diagnostik monitoring o'quvchilarning umumiy xususiyatlarini hisobga olmaydi, chunki uning asosiy maqsadi o'quvchilarning xususiyatlaridan va ularning o'quv qobiliyatlaridan qat'i nazar, o'quv yutuqlari va o'quv faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlashdir. Shuning uchun diagnostika monitoringi ma'lumotlari sinflar yoki maktablar o'rtasida taqqoslash uchun foydalanilmaydi.

Qiyosiy monitoring. Qiyosiy monitoring boshqa monitoring turlaridan o'zining aniq ma'lumotlar tahlili bilan ajralib turadi, u sinflar, alohida o'qituvchilar va ta'lim faoliyatining boshqa ishtirokchilari bo'yicha ko'rsatkichlar majmuasi bo'yicha miqdoriy baholarni solishtirishga

qaratilgan. Taqqoslash vertikal yoki gorizontal bir xil ko'rsatkichlar bo'yicha miqdoriy baholarni tahlil qilish asosida va baholarga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Qiyosiy monitoring natijalariga ko'ra, odatda, ma'muriy-boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Taqqoslashda ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqalar va ularning o'zaro ta'sirini tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Qiyosiy monitoringda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar to'plamining yetarli darajada to'liqligi va monitoringda ishtirok etayotgan o'quvchilarning tanlanma populyatsiyasining representativligi haqida dalillar talab qilinadi. Qiyosiy monitoringda ma'lumotlarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari va uning natijalari uchun alohida mas'uliyat baholash vositalari to'plamining sifati, ishonchliligi va asosililigiga yuqori talablarni qo'yish zaruratini tug'diradi. Qiyosiy monitoringni tashkil etishda odatda maktablar faoliyatidan tashqari, lekin ularning ta'lim faoliyati natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida qo'shimcha ma'lumot to'plash uchun miqdoriy shkalalar, ta'lim yutuqlarining standartlashtirilgan testlari va professional tarzda ishlab chiqilgan anketalardan foydalanadi.

Qiyosiy monitoring ko'pincha o'rganishga kirish va natijalarni o'lchashni o'z ichiga oladi, chunki ularning aksariyati o'quvchilar natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Garchi ko'plab o'qituvchilar ushbu turdagi monitoringni o'tkazish imkoniyatlariga shubha bilan qarasalar va ko'pincha tanqid qilishsa ham, jahon tajribasi qiyosiy monitoring aniq ijobiy natijalarga olib kelishini ko'rsatmoqdi. Maktablararo, tumanlararo yoki mintaqalararo taqqoslashlar raqobatni uyg'otadi va o'qituvchilarni ta'lim jarayonini yaxshilashga undaydi.

Prognozlash monitoringi. Bunday monitoring ta'lim tizimlari rivojlanishidagi ijobiy va salbiy tendensiyalarni aniqlash va bashorat qilish uchun mo'ljallangan. Bu ijtimoiy tartibni shakllantirish bilan bog'liq va ta'lim tizimining imkoniyatlariga mos keladigan ta'limdagi boshqaruv muammolarini hal qilish uchun juda muhimdir. Mamlakatimiz ta'limini isloh qilish kontekstida prognozlash monitoringining roli boshqaruv qarorlari tabiatining o'zgaruvchanligi sharoitida doimiy ravishda oshib bormoqda [4].

Ilgari ta'lim tuzilmalarining joriy faoliyatiga yo'naltirilgan tezkor boshqaruv qarorlari ustuvor bo'lgan bo'lsa, endi ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik qarorlar ko'pincha birinchi o'ringa chiqadi. Bunga yaqqol misol sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonini ko'rsatishimiz mumkin. Bu Farmonda ham uzoq yillik strategik vazifalar va boshqaruv qarorlari belgilangan.

Ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik boshqaruv qarorlari prognozli monitoring yordamida olinishi kerak bo'lgan ta'lim tendensiyalarini ehtimoliy baholashga asoslangan bo'lishi kerak. Prognozlash uchun odatda regressiya tahlili usullari va boshqa matematik hamda statistik usullar keng qo'llaniladi.

Ko'rib chiqilayotgan monitoring turlari sof shaklda ta'lim amaliyotida kamdan-kam uchraydi. Odatda maktabda o'tkaziladigan ichki baholash jarayonlari ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish



va talqin qilish, tashxislash, qiyoslash va solishtirish, prognozlash orqali boshqaruv, tashkiliy, ilmiy-metodik qarorlarni qabul qilishni taqozo etadi. Shuning uchun ta'lim amaliyotida yuqorida keltirilgan turlarni birlashtirgan holatda qo'llash kuzatiladi. Faqat shuni inobatga olish kerakki, maktabda ichki baholash ya'ni monitoring o'tkazilayotganida yuqoridagi monitoring turlaridan to'g'ri nisbatda birlashtirish va foydalanish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ефремова Н.Ф. Современные тестовые технологии в образовании. – М., 2003
2. Масленников А.С. разработка методики проведения педагогических измерений уровня подготовки выпускников в условиях аттестации учебных заведений среднего и высшего профессионального образования / сб. мат. По программе «Научное и научно-методическое функционирование развития системы образования»: в 3 т. – М., 2003 – Ч.3.
3. Селезнева Н.А., Байденко В.И. / Проблема качества образования: актуальные аспекты пути решения // Проблемы качества, его нормирования и стандартов в образовании: сб. науч. Статей. – М., 1998.
4. Басова А.Л. Перспективы использования методов тестирования абитуриентов для прогноза успешной учебной деятельности в вузах с различными формами обучений. Психология и социология образования. – М., 2001.





TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

ХАЛҚ ТА'ЛИМИ:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ УЧИТЕЛЯ ПО САМООБРАЗОВАНИЮ

Гулжахон Аекеева,

ст.преподаватель кафедры «Методика
преподавания языков», РЦППКРНО
Республика Каракалпакстан

Алимжан Казакбаев,

учитель русского языка и литературы
общеобразовательной школы №5, район
Тахиаташ, Республика Каракалпакстан

Аннотация

В данной статье отмечается, что важнейшим моментом в работе учителя по самообразованию является правильная, системная поэтапная постановка работы над самообразованием.

Ключевые слова

Краткосрочные курсы, специальные электронные платформы, онлайн курсы, индивидуальное профессиональное образование, самообразование учителя.



Annotatsiya

Mazkur maqolada faoliyatni tizimli hamda bosqichma-bosqich amalga oshirish o'qituvchining o'z ustida ishlashini tashkil etishning muhim omili ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar

Qisqa muddatli kurslar, maxsus elektron platformalar, onlayn kurslar, individual kasbiy ta'lim, o'qituvchining o'z ustida ishlashi.

Формулируя основные принципы продвижения страны к демократическому, правовому обществу с открытой рыночной экономикой, Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев определил в качестве одного из приоритетных направлений политики государства – развитие системы образования.

В теории и практике педагогического образования длительное время преобладала традиция готовить не столько субъекта профессиональной деятельности, сколько учителя практика. По-прежнему немало тех, кто считает, что главное в подготовке будущего учителя - сообщить ему сумму знаний. Поэтому практически не уделяется внимание становлению личности профессионала, развитию у него позитивной концепции «Я педагог». Важной характеристикой педагога как субъекта деятельности является и то, что он в отличие от специалиста – предметника, который в своей профессиональной деятельности не выходит за рамки своего статуса. Профессиональная позиция включает в себя осознание учителем норм, правил, модели своей деятельности (требование к педагогической деятельности, общению, личности) как эталонов для оценивания своих качеств. Именно здесь на основании общей образованности складывается профессиональное кредо учителя, из которого он исходит в своей профессиональной деятельности. Другими словами, можно сказать, что профессиональная позиция, по существу, есть индивидуальное самоопределение личности в контексте профессиональной деятельности и выстраивании на этой основе профессиональной концепции «Я – педагог». Согласно Э. Бернсу «Я – концепция» представляет собой диалектическую совокупность свойственных каждой личности установок, направленных на саму личность. Позитивная «Я – концепция» создает позитивное отношение к себе, самоуважение, ощущение собственной ценности. Только в случае позитивной «Я – концепции» педагог будет стремиться к саморегуляции, самоактуализации в педагогической деятельности. Эффективность повышения квалификации учителя

зависит от соблюдения трех основных принципов: систематичности, непрерывности и обязательности.

Одним из основных принципов является принцип непрерывности пополнения и совершенствования знаний в системе до курсовой, курсовой и после курсовой работы по повышению квалификации, требующей от учителя постоянного творчества и работы над своим самообразованием.

До курсовая подготовка учителя реализуется через выполнение специальных заданий и является важным звеном в обеспечении непрерывности до курсовой и курсовой подготовки его к предстоящим курсам повышения квалификации по специальности.

Важнейшим моментом в работе учителя по самообразованию является правильная, системная поэтапная постановка работы над самообразованием, связанная с развитием профессионального мышления учителя.

Важно, чтобы вопросы, которые будут им изучаться как в теоретическом, так и в практическом плане, учитель сам сформулировал до изучения источников. Такой подход интересен тем, что создаёт условия для сравнения и лучше помогает войти в проблему, а также вызывает интерес, помогает выработать свою гипотезу, т.е. предполагаемое решение данного противоречия.

Такая работа над гипотезой поможет учителю развить его прогностическую, профессиональную, мыслительную деятельность.

При планировании самообразовательной работы, знание теории своего предмета, должно быть одним из главенствующих.

Между тем тесты по специальности, проводимые при аттестациях, свидетельствуют о слабой теоретической подготовке некоторой части учителей, что говорит о необходимости серьезной работы учителя в этом направлении. К сожалению, эти вопросы часто выпадали из поля зрения руководства.

Следует чаще заслушивать на педагогических советах отчеты учителей об их работе над повышением своего профессионального уровня, периодическом повышении своих научно – теоретических и психолого-педагогических знаний.

Неплохо, если в школе, районе будут проводиться научно – практические конференции, конкурсы на лучшее знание теории предмета, профессионального мастерства.

Сегодня, когда бурными темпами обновляется и совершенствуется вся система народного образования, настойчиво ведутся поиски наиболее эффективных и результативных приёмов обучения, необходимо обеспечить **непрерывность образовательной работы педагогических кадров**. Учитель должен систематически работать над собой, над пополнением своей методической копилки.

Самообразование учителя должно организовано таким образом, чтобы вся его деятельность как можно быстрее получила практический выход в повышении качества знаний учащихся и уровня их воспитанности.



Самообразование должно быть самоуправляемым. Подготовку и руководство самообразованием осуществляют методические кабинеты, школьные предметные комиссии и методические объединения, директор школы. Но чтобы самообразование было целенаправленным, предметным: изучают работу учителей, качество знаний, умений и навыков учащихся по предметам, уровень их воспитанности, выявляют недостатки и причины их породившие, намечают пути их устранения. Именно в это время надо ориентироваться на вопросы дидактики, психологии, теории воспитания, которые помогут полнее раскрыть содержание проблемы, над которой должен работать учитель, группа учителей или весь педагогический коллектив.

Некоторые опытные педагоги считают, что им уже не нужно работать над собой. Это неправильно. Самообразование сегодня необходимо любому педагогу - и начинающему, и опытному. Начинающему - так, как он ещё много не знает, и опытному - потому что, он многое уже забыл.

Педагогической общественностью Узбекистана горячо поддерживаются инновации в образовании, в котором заложены основные идеи педагогики сотрудничества.

Знакомство с ними во время самообразовательной работы - обязательно, так как участие в претворении этих инноваций значительно активизирует творческую инициативу учителя, поиски им наиболее результативных приёмов обучения.

Самообразовательная работа складывается из следующих основных направлений:

- *глубокое изучение учителем государственных нормативных программных документов, определяющих пути дальнейшего развития народного образования в Республике Узбекистан;

- *углубление и расширение знаний учителя по специальности;

- *знакомство учителя с успехами и достижениями в науке и технике, искусстве, литературе;

- *расширение знаний и опыта учителя в области психологии, педагогики, дидактики, частных методик;

- *периодическое ознакомление учителя со всеми новинками и достижениями в области педагогики и методики преподаваемого предмета, передового педагогического опыта работы.

Самообразование каждого учителя осуществляется обычно по индивидуальному плану, составленному на весь год и утвержденному директором школы, указывается и проблема, над которой учитель будет работать в течение предстоящих 3-5 лет.

Самообразовательная работа должна включать взаимопосещение уроков, обсуждение рабочих планов, развернутых конспектов занятий, проведения открытых уроков, отражающих деятельность учителя по избранной им теме.

Наиболее сложившимися формами самообразовательной работы является школа «Устоз - шогирд» («Наставник-преемник»), где основным направлением методической

работы с молодыми специалистами является: наставничество, школа молодого учителя и консультации по условиям вопросов учебно-воспитательного процесса. Выбор форм и методов работы с молодыми специалистами должны обеспечить решение определенного круга вопросов, содержание которых остаётся постоянным в любом педагогическом коллективе — это обеспечение производственной адаптации молодых специалистов, организация постоянного сотрудничества между опытными и молодыми специалистами, способствованию формирования индивидуального стиля деятельности молодого специалиста.

Таким образом, самообразование педагогических кадров – первое звено в системе непрерывности, формами которого являются методические объединения, семинары, тренинги, краткосрочные курсы (проблемные), специальные электронные платформы (онлайн курсы), обеспечивающие непрерывное, индивидуальное профессиональное образование повышения квалификации учителей.

Активное участие во всех формах методического совершенствования профессионального мастерства должно быть обязательным для каждого учителя. Учителем не рождаются. Учителем становятся, если в школе хорошо будет организована самообразовательная работа и методическая служба будет работать эффективно, целенаправленно и самое главное - регулярно (без сбоев).

Список литературы

1. «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года». УП-5712. 29 апреля 2019 года. Т
2. Закон Республики Узбекистан «ОБ ОБРАЗОВАНИИ» 23.09.2020 г.
3. «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» УП-6108. 6-ноября 2020 год.
4. «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности и внедрению системы непрерывного профессионального развития в сфере народного образования» ПП - 4963. 25 января 2021 год

Интернет-ресурсы

1. Педагогический университет «Первое сентября» <https://edu.1september.ru/distance/>
2. Образовательный портал «Мой университет» <http://moi-universitet.ru/ru/freedk>,
3. Центр онлайн-обучения «Фоксфорд» http://foxford.ru/about_kpk



TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

XX ASRNING 20-30-YILLARIDA AN'ANAVIY TA'LIM TARIXI

Matluba Usmonova,

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan
maktab-internati tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqaloda jahon ilm-faniga Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farobiy kabi buyuk mutafakkirlarni yetishtirib bergan mintaqadagi an'anaviy ta'limning so'nggi o'rta asrlarga kelib qoloqlikka yuz tutish sabablari, ularga ta'sir etgan omillar, oqibatlari tahlili, Turkistondagi an'anaviy maktablar, "jadid maktablari" va sovet maktablari jamiyatning ma'naviy qiyofasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar

An'anaviy ta'lim, "jadid maktablari", sovet maktablari, boshlang'ich maktablar, madrasa, o'tish jarayoni, xaus-bo'shliq.



O'zbekiston milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari odimlar ekan, nafaqat siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'sish, balki ma'naviy taraqqiyot hamda o'zlikni anglash, shuningdek, milliy qadriyatlarni tiklash uchun ham keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda, ayniqsa, yuksak ma'naviyatga erishish yo'lida belgilangan maqsad hamda vazifalar, ta'lim islohotlarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, xususan, Milliy o'quv dasturi va "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" yangi tahririning amaliyoti ahamiyatga molik jarayonlardir.

Ta'lim-tarbiya sohasida dastur va qonunlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda Turkistonda asrlar davomida rivojlanib kelgan maktablarning boy tajribalarini o'rganish, ulardan tegishli saboq chiqarish zarurati tug'iladi. Zero, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, ularni shakllantirishda an'anaviy ta'lim tizimi muhim rol o'ynagan.

Biroq, sovet davri tarixshunosligida Buxoro amirligidagi ma'naviy hayot va ta'lim tizimi hukmron mafkura tazyiqi ostida bir yoqlama yoritib kelindi. Jahon ilm-faniga Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Forobiy kabi buyuk mutafakkirlarni yetishtirib bergan mintaqadagi an'anaviy ta'limning so'nggi o'rta asrlarga kelib qoloqlikka yuz tutish sabablari, ularga ta'sir etgan omillar, oqibatlari xolisona tahlil etilmadi, an'anaviy ta'lim maskanlari asossiz ravishda jaholat va qoloqlik namunasi, diniy xurofot o'chogi sifatida qoralab kelindi.

O'lkamizdagi an'anaviy ta'lim tizimida so'nggi asrlarda haqiqatan ham turg'unlik va zamon talablaridan ortda qolish holatlari yaqqol namoyon bo'la boshlagan edi. Ammo tarixiy adabiyotlarda bu holatlar umumlantirilgan holatda, cheklangan doirada, maishiy shakllarda ta'riflandi, ularni tubdan isloh etish harakatlari chuqur yoritilmadi, arxiv fondlari, qo'lyozma asarlar, davriy adabiyotlarda mazkur muammoga oid muhim tarixiy manbalar e'tibordan chetda qoldi, ilmiy iste'molga kiritilmadi.

Muammoning tarix fanida hozirgacha o'zining chuqur ilmiy va xolisona bahosini olmaganligi, bu borada talay tarixiy manbalar hanuzgacha o'rganilmaganligi, ular orqali ijtimoiy, ma'naviy voqelikning ko'plab masalalariga oydinlik kiritishga erishish mumkinligi o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini asoslab beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Turkistonda amal qilgan an'anaviy ta'lim muassasalari, jadid maktablari va "sovet maktablari" savod chiqarish o'chog'i sifatidagina emas, jamiyatning ma'naviy qiyofasini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular asrlar davomida katta tajriba maktabiga ega bo'lish bilan bir qatorda, o'ziga yarasha muammo va kamchiliklardan xoli bo'lmagan.

Bu muammolar o'z davrining ilg'or fikrli ma'rifatparvar kishilari tomonidan anglab yetilgan va kun tartibiga ularni isloh qilish vazifalari qo'yilgan. Jarayon esa o'ziga xos muammo va qiyinchiliklar bilan kechgan. Mazkur holatlarni o'zaro uzviylikda, tarixiylik asosida, turli manbalarni qiyosiy tahlil etish, ularning sabab va oqibatlarini aniqlash, o'sha davrda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqlikda tadqiq etish mavzuning yanada dolzarbligini belgilab beradi.

O'sha davrda chop etilgan adabiyotlar orasida xizmat burchi yuzasidan ta'lim tizimi ahvolini maxsus tadqiq etgan mualliflarning asarlari alohida o'rin egallaydi. Xususan, Turkiston o'lkasida

maktab va madrasalar ishlari bo'yicha Turkiston general-gubernatorligi noziri lavozimida ishlagan V.G.Nalivkin [1] asarlari va maqolalarida Turkistondagi ta'lim maskanlari haqida qiziqarli faktlar qayd etiladi.

Sharqshunos olim V.V.Bartold asarlarida esa Turkistondagi madaniy hayot, ayniqsa, amir Abdulahadxon va amir Olimxonlarning hukmronligi davridagi me'morchilik, yevropacha uslubdagi binolar qurilishi, texnik yangiliklar va ularning mahalliy aholining ilg'or qatlami kayfiyatiga ijobiy ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etiladi [2].

Siyosiy huquqsizlik, tashqi aloqalar cheklanishi natijasida kuchaygan biquqlik sharoitida mamlakatda nafaqat ijtimoiy sohada, balki madaniy hayotda ham turg'unlik, davr talablaridan ortda qolish tendensiyalari namoyon bo'la boshlagan. Ta'lim tizimida ham bu holat yaqqol ko'zga tashlangan. Mamlakatda an'anaviy ta'lim tizimi amalda bo'lib, Buxoro amirligida va xususan, O'rta Osiyoda faoliyat ko'rsatgan boshlang'ich maktablarda ta'lim olgan, so'ngra madrasalarda tahsil olib dunyoni lol qoldirgan buyuk zotlar: Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Mahmud Xorazmiy, Imom Buxoriy, Mahmud Zamaxshariy, Ulug'bek, Ali Qushchi, Imom Termiziy, Imom Marg'inoniyalar kabi ko'plab yirik olim - mutafakkirlarni yetishtirgan ilm maskanlari bu davrga kelib ancha eskirgan, zamon talablaridan ortda qolgan edi.

Buxoro XX asr boshlarida ham Markaziy Osiyo, Kavkazorti, hozirgi Tatariston va Boshqirdiston hududlari uchun islom dinining markazlaridan biri sifatida namuna bo'lgan. Bu Turkiston general - gubernatorining 1899-yil yakuni bo'yicha podshoga yozgan xatida ham tan olingan. Xat orqali Rossiyada 14 million atrofida musulmonlar yashayotganligi, qadimdan Buxoro musulmonlar dunyosida islom ma'rifati markazlaridan biri sifatida tan olinganligi va hozirda ham ulug'lanishi to'g'risida xabar berilgan.

Boshlang'ich an'anaviy maktab musulmon bolalari uchun umumiy ma'lumot beradigan xat-savod chiqarish maskanlari bo'lib, arab imlosida savod olish, yozish va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, hisoblash qoida va ko'nikmalarini hosil qilish, tabiat va jamiyat, atrof-muhit, islom dini haqida bilim va tushunchalar berish, axloq-odob me'yorlariga amal qilishni o'rgatishdan iborat edi.

Buxorodagi birinchi an'anaviy maktab 714-yil Qutayba ibn Muslim tomonidan Buxoro arkida, zardushtiyalar ehromi o'rnida bunyod etilgan. «Maktab» so'zi arabcha «kataba» - yozmoq fe'lidan yasalgan bo'lib, yozishga o'rgatiladigan joy deyilsa, boshqalarida «maktab» termini "mirzalar maktabi" ma'nosini bildirgan. 1896-yil Sank-Peterburgda nashr qilingan ensiklopediyada: "Maktab – musulmonlarning masjidlar qoshidagi xat-savod chiqarish va diniy udumlarni o'zlashtirish dargohi" – , deya ta'rif berilgan. Bunday an'anaviy ta'lim tizimi O'rta Osiyo yerlari Arab xalifaligi tomonidan bosib olingandan keyin (VIII asrda) zardushtiyalarning "dabiriston"lari o'rnida shakllangani ma'lum.

O'rta Osiyoda an'anaviy ta'lim ikki bosqich: quyi - boshlang'ich maktab va yuqori - madrasa bosqichidan iborat bo'lgan. Ushbu tizim maktablari davlat tomonidan to'liq mablag' bilan ta'minlanmagan, ular doimiy ravishda xususiy shaxslar mablag'i va vaqf mulklari hisobiga yashab



kelgan. Shariat qoidalariga muvofiq, maktab, madrasa, masjidlariga vaqf qilingan mulklardan binolarni ta'mirlashga, madrasa talabalari, maktab mudarrisi va boshqa xizmatchilarni ta'minlashga va davlat soliqlarini to'lashga sarflangan.

O'rta Osiyoning barcha shahar, qishloq va ovullarida maktabxonalar mavjud bo'lgan. Maktablar ko'pincha bir sinf xonasidan iborat bo'lganligi uchun ham ularni "maktabxona", deb atashgan. Musulmon qoidalaridan kelib chiqqan holda, o'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktabxonalarda o'qitilgan. O'g'il bolalar maktabxonalarining aksariyati masjidlar, madrasalar, qorixonalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida, qiz bolalar maktabxonalari otin ayollar uyalarida yoxud badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uyalarida tashkil etilgan.

Maktablarda o'g'il bolalarni o'qitgan kishi "domla, ustod, ustoz, muallim", deb atalgan. Qizlarni o'qitgan ayollarni esa «otinoyi» yoki «otinbibi» (Toshkentda) «bibixalifa» yoki «bibiotin» (Buxoroda), «eltibibi» (Xorazmda) deb atashgan. Shuni e'tiborga olish lozimki, hozirgi Qoraqalpog'iston hududidagi maktabxonalarda o'sha davrda ham o'g'il va qiz bolalar birgalikda bir muallim tomonidan o'qitilavergan.

Ayrim an'anaviy maktablarda dars berish bilan shug'ullanuvchi domlarning ish haqi vaqfnomada belgilangan mablag'dan to'lab borilishi ko'pgina vaqfnomalarda uqtirilgan. Bu kabi ma'lumotlarni Raufboy o'g'li Ma'rufboy, Mirmansurning qizi Nozikoy, Mirzo O'zbek o'g'li Mirzo Gulom vaqfnomalaridan bilib olishimiz mumkin.

Masalan: Raufboy o'g'li Ma'rufboy vaqfnomasida: «Vaqf mulkidan hosil bo'lgan pulni musulmon farzandlariga diniy ta'lim beradigan hamda har juma ertalab va kechqurun «Mulk», «Taborak» surasini o'qib, o'shandan hosil bo'ladigan savobni vaqf egasi va uning ota-onasiga, o'tgan barcha olim-ulamolarga bag'ishlagan kishi»ga berilishi yozib qo'yilgan.

Yana bir vaqfnomada 1338-hijriy yilda Shamsuddin valadi Mirg'iyos Mirzog'ulomning Mullo Shodiy guvohligida vaqf vakolatini olgani quyidagicha yozilgan: «Hovli vaqf qilinganligi va shunga bizdan keyin tirik qolgan kishi ushbu vaqflarga valiy (egalik) qilib maktabdagi musulmon bolalariga hovlini ijaraga bergan pulining bir qismini berishlarini va ular har juma kuni «Yosin» surasini o'qib vaqf va Payg'ambarimiz sallallohu alayhi va sallam ruhlariga bag'ishlashini shart qilgan». Bundan tashqari, muallimga nisbatan quyidagicha shart qo'yilgan: «O'qituvchi maktabni uzrsiz tark etmasligi kerak».

Maktablar, ko'p hollarda, ayrim badavlat shaxslarning xayr-ehsonlari evaziga, ba'zan esa masjidlariga tushgan daromad evaziga qurilgan. Masalan, Mir Mansurning qizi Nozikoy yetti xonali uy va boloxonadan iborat bo'lgan hovlisini maktab o'quvchilari foydasiga diniy ta'lim olishlariga yordam sifatida vaqf qildirgan.

Vaqfnomalarda yozilishicha, maktabxonalar yog'och, xom va pishiq g'ishtdan bino qilingan. Maktabxona binosi, odatda, bir xonadan iborat bo'lib, bolalar bo'yra yoki gilam (to'shamcha, sholcha) ustida o'tirishgan. Maktabning xonalari kichik, tor bo'lib, yorug'lik tushmaydigan qorong'i, o'quvchilar o'tiradigan joy esa nam va zax bo'lgan. O'g'il bolalar maktabxonalarida masjid qavmi tomonidan taklif etilgan masjid imomi, muazzini yoki madrasani tugatgan kishi muallimlik qilgan.

Buxoro amirligidagi maktabxonalar faoliyatini Abdurauf Fitrat shunday ta'riflaydi: «Maktab shunday joydirki, bir muallimi bor, uni maktabdor deydilar, bolalar u yerda yetti yildan to o'n yilgacha zaruriy xat-savodlarini chiqargunga qadar qoladilar, undan keyin xohishlariga qarab, madrasaga borib, dars o'qiy boshlaydilar».

Sadriddin Ayniyni yozishicha, Buxorodagi maktabxonaning ko'rinishi quyidagicha bo'lgan: «Maktab torgina bir xonadan (hujradan) iborat bo'lib, uning ikki eshigi bor, buning biri bir tavaqali va eshik ko'pincha yopiq turar edi. Ikkinchi eshigi darcha bo'lib, uch gaz* bo'yi va yarim gaz eni bor. Bu darchaning oldida domla(maktabdor) ning o'tiradigan joyi bor. Darchalarga esa parda qilingan (derazasi qog'oz bilan qoplangan) va qog'ozga qor-yomg'irdan saqlash uchun zigir moyi surtilgan edi.

Shuningdek, maktabning derazasidan darsxonaga hech bir yorug'lik kirmas edi. Hujraning shipi tagidan devorning shipga yaqinlashgan joyida ikki tomondan ham bir-biriga ro'parama-ro'para qilib ochilgan ikki tuynukcha bo'lsa ham, bulardan kiradigan yorug'lik pastga tushmasdan, hujraning devorlarida qolar edi. Bu hujraning kengligi o'n olti gaz murabba' (kvadrat) edi, uning ichida bir- birining ustidan o'tkazilib, to'rtta sinch tortilgan va bu bilan hujra to'qqiz bo'lakka bo'lingan, go'yo maktabxonaning ichida to'qqiz oxur paydo bo'lgan edi. Eshik oldidagi oxurchada bolalarning kavushlari turardi, darcha oldidagi oxurchada bo'lsa domla va qolgan yetti oxurchada esa bolalar o'tirardi».

Buxorodagi boshlang'ich maktablar aholining savod chiqarishi, diniy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin egallasa-da, ta'lim maskani sifatida XX asr boshlarida zamon talablariga javob bera olmas, uning faoliyatida qator jiddiy muammolar bor edi. Chunonchi, maktablar uchun yagona o'quv dasturi, yagona o'quv rejasi mavjud emas edi. Ularning har biri o'z holicha faoliyat ko'rsatgan, o'quv jarayoni majburiy rejaga asoslanmagan va boshlang'ich maktablarda ta'lim jarayoni ko'p jihatdan maktabdor domlani faoliyati, iqtidoriga bog'liq bo'lgan.

O'qitish, ta'lim- tarbiya berish usuli zamon talablari darajasidan past bo'lgan yoki orqada qolgan. O'tilgan saboqning mazmunini o'quvchilarga to'la tushuntirish, uning mohiyatini ochib berish o'rniga, asosiy e'tibor matnni yod olish, uning mazmunini tushunmay, takrorlatishga qaratilgan. Ayniqsa, o'qitishning harfiy usuliga amal qilinishi, uning fonetik harflar beradigan tovushlar bilan uyg'unlashganligi, o'qish va yozish baravar o'rgatilmassligi savod chiqarishni murakkablashtirgan.


Maktablarda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinmagan, qolaversa, aksariyat maktablarning o'zi uchun maxsus o'quv binosi mavjud bo'lmagan; maktablar, asosan, jamoatchilik, xayriya va vaqf mulki asosida moliyalashtirilgan, davlat tomonidan mablag'lashtirilmagan. Maktablarda ona tilini emas, balki kundalik hayotda ishlatilmagan arab tili: leksikasi va grammatikasining o'rgatilishi savod chiqarish muammosini to'la hal etmagan. Shuningdek, maktablarda atrof- muhit, tabiat va jamiyat haqida dunyoviy bilimlarga e'tibor berilmagan, asosiy urg'u islom asoslari va diniy-axloqiy masalalarga qaratilgan. Ularda olib borilgan ta'lim jarayonlarida bolalarning psixologik holatlari hamda yosh xususiyatlari hisobga olinmagan.



Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ta'lim sohasida jadal sur'atlarda olib borilayotgan islohotlar zahirida jonajon O'zbekistonimizni jahon miqyosida rivojlantira oladigan salohiyatli kadrlar yetishtirish vazifasi mujassam. Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tayotganda ta'limda "xaus", ya'ni bo'shliq bo'lib qolmasligi, buning jabrini yosh avlod ko'rmasligi uchun doimo boy tariximizdan o'rnak olishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. Yangi tahriri 2020-yil, sentabr.
2. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. - Ленинград; АН СССР. 1927. - С.256; Иллюстрация. Бухара. Её памятники и их судьба/Сочинения.- М.: Наука. 1966. и 9 томах. Т.IV. - С.72.
3. Наливкин В.П. Азбука для русско-мусульманских школ оседлого населения Туркестанского края. - Ташкент. 1886. - С.26
4. S.Ayniy "Eski maktab" (qissa). – Toshkent, Yosh gvardiya, 1982. – bet 147.





TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

KASBIY MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA METODISTLAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Moxigul Toshmurodova,

Abdulla Avloniy nomidagi

ilmiy-tadqiqot instituti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy malaka oshirish jarayonida metodistning androgogik kommunikativ, metodik ishlarining tahliliy kompetensiyasini rivojlantirish va nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish yo'llarini o'rganadilar, bo'shliqlarini to'ldiradilar, markaz professor-o'qituvchilar va tinglovchilar bilan o'zaro tajriba almashadilar va bu yo'nalishda ijodiy ishlarni bajaradilar. Bundan tashqari, amaliyotga joriy etish yuzasidan zaruriy metodik materiallar haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar

Kasbiy, malaka, oshirish jarayoni, metodist, androgogik, (kommunikativ, metodik ishlarini tahlili,) kompetensiyasi, rivojlantirish, androgogikada, o'quvchi shaxsiga, ta'lim, mashg'ulotlar, mezonlar, mutaxassis, kasb darajasi, kasbiy shaxsiy, dolzarbligi.



Annotatsiya

В данной статье Анализ андрогенной коммуникативной, методической работы методиста в процессе профессиональной переподготовки изучаются пути развития компетенции и применения теоретических знаний на практике, восполняются пробелы, центр обменивается опытом с профессорско-преподавательским составом и слушателями и проводит творческую работу в этом направлении, рассматриваются необходимые методические материалы по внедрению в практику.

Kalit so'zlar

Профессиональная, квалификационная, процесс повышения, методист, андрологическая, компетенция (анализ коммуникативной, методической работы.), развитие, Андрагогичность, личность обучающегося, образование, обучение, критерии, специалист, уровень профессионализма, профессиональная личностность, актуальность.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish, informatika, matematika, fizika, kimyo, biologiya fanlarini chuqur o'rganishga e'tibor qaratgan holda ixtisoslashtirilgan sinf va maktablarni yaratish amaliyotini kengaytirish usuli bilan maktablarda ta'lim sifatini tubdan yaxshilash; 10 – 11-sinf o'quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan, shu jumladan, ijtimoiylashuvga, iqtidor va kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o'quvchilarning kasbiy o'qitish imkoniyatlarini kengaytirgan holda ta'lim berishni rivojlantirish masalalari xalq ta'limi tizimining ustuvor vazifalari etib belgilab berilgan.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi xalq ta'limi xodimlarining kasbiy mahoratlari va kompetentlikning talab darajasida bo'lishini taqozo etadi. Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda malaka oshirish tizimining o'rne va roli muhimdir. Chunki malaka oshirish jarayonida tinglovchilar o'z mutaxassisliklari bo'yicha zamonaviy metodikalar va ilg'or xorijiy tajribalar, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni o'zlashtiradilar.

Mashg'ulotlar davomida PISA, TIMSS, TALIS, PIRLS xalqaro tadqiqotlarning mazmun-mohiyati va ularni amalga oshirish yo'llari va imkoniyatlari, shuningdek, PISA topshiriqlari mazmuni va ularni yechish yo'llari bilan tanishadilar. So'nggi xalqaro tadqiqotlar tahliliga ko'ra,

Singapur davlati matematikadan birinchi o'rinda ekanligi bois, malaka oshirish kurslarida mashg'ulotlar davomida Singapur matematikasining asosiy xususiyatlarini o'rganadilar va shu asosda matematika darslarini tashkil etishning zamonaviy metodlari, usul va vositalari bilan amaliy tanishadilar. O'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida o'zlari tanlagan malaka ishlari mavzulari yuzasidan mahorat darslarini o'tib beradilar.

Mustaqil ta'lim yo'nalishida tinglovchilar Milliy markaz tomonidan yo'nalishlar kesimida xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan ishlab chiqilgan to'plamlarga kiritilgan topshiriqlarni tahlil qiladilar va malaka ishlarida ularni yechib ko'rsatib beradilar. Shuningdek, o'quvchilarni bu tadqiqotlarga tayyorlashda ularni kreativ fikrlashga yo'naltirilgan masalalarni va test topshiriqlarini mustaqil tuzadilar.

Tinglovchilar o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish yo'llarini o'rganadilar, bo'shliqlarini to'ldiradilar, markaz professor-o'qituvchilar va boshqa tinglovchilar bilan o'zaro tajriba almashadilar va bu yo'nalishda ijodiy ishlarni bajaradilar, amaliyotga joriy etish yuzasidan zaruriy metodik materiallarni tayyorlaydilar. Malaka oshirish jarayoni nafaqat tinglovchilarni yangiliklar bilan qurollantiradi, balki ularni mustaqil o'zlashtirishlari, kasbiy mahoratlarini muntazam oshirib borishlari sari metodik jihatdan yo'naltiradi.

Kasbiy malaka oshirish jarayonida metodistning androgogik (kommunikativ, metodik ishlarini tahlili) kompetensiyasini rivojlantirish. Androgogikada o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini aniqlovchi mezonlar, mutaxassislarning kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali kasbiy va shaxsiy rivojlanish darajasini ta'minlash masalaning dolzarbligini belgilaydi.

Malaka oshirish tizimida o'quv jarayoniga xorijiy davlatlardan mutaxassislarni jalb qilish tinglovchilar tomonidan ilg'or pedagogik xorijiy tajribalar va o'zlarining pedagogik mahoratlari va zamonaviy metodikalari bilan o'zaro tajriba almashishlariga, metodikalarini boyitishga, ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish yuzasidan o'zlarining qiziqtirgan savollariga aniq javoblar olish va xulosalar chiqarishga hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladilar.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish masalasi ham malaka oshirish tizimida ilmiy salohiyatning ortishiga, zamonaviy metodikalar va ilg'or xorijiy texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga va buning barobarida tinglovchilar uchun ham keng imkoniyatlar eshigining ochilishi, bugungi kunda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish istagini bildirayotgan amaliyotchi o'qituvchilar ko'p sonni tashkil etishini inobatga oladigan bo'lsa, bu yo'nalishda aniq bir mexanizmni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Barcha ta'lim muassasalari kabi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, tabiiy fanlar bo'yicha zamonaviy STEAM laboratoriyalarini tashkil etish va jihozlash tinglovchilarning nazariya bilan amaliyotni hamohang olib borishga, fanlararo integrasiyani amalga oshirishga, natijada ularda ixtirochilik, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga, ijod qilish uchun yo'naltirishga va bu orqali



o'quvchilarining ham ijodkorligini oshirishga yo'naltirish imkonini beradi, maktablarda kreativ fikrlaydigan o'quvchilar juda ko'p, har bir o'quvchida iqtidor kurtaklari borligi va ularni rivojlantirish uchun o'qituvchilarga kasbiy mahorat va kreativlikni rivojlantirishga oid ham amaliy, ham nazariy bilimlarni egallashlari taqozo etiladi.

Xalq ta'limi muassasalariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislari quyidagilarni bilishlari zarur:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, ta'lim sohasidagi mamlakat qonunchiligi, shuningdek, ta'lim sohasiga doir boshqa qonunlar hamda me'yoriy hujjatlar mazmunini;
- mamlakatda joriy etilgan ma'muriy, fuqarolik va mehnat huquqlarini, fuqarolik va mehnat nizolarini hal qilish tartibini;
- innovatsion iqtisodiyot va "inson kapitali" tushunchalarini;
- ta'lim sohasida davlat siyosatini va uni amalga oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarining vazifalarini;
- mamlakatda joriy etilgan ma'muriy, fuqarolik va mehnat huquqlarini, fuqarolik hamda mehnat nizolarini hal qilish tartibini;
- ta'lim muassasasining pedagogik faoliyati asoslarini;
- ta'lim muassasalarining oila, jamoat, davlat-jamoat, nodavlat, davlat tashkilotlari va ta'lim muassasalari bilan munosabatlarning huquqiy jihatlarini;
- pedagogik jarayonni amalga oshirish qonuniyatlarini hamda ta'limning zamonaviy psixologik-pedagogik nazariyalari va o'qitish texnologiyalarini;
- tanqidiy fikrlash (tahlil qilish, umumlashtirish, ustuvor yo'nalishlarni belgilay olish, o'z-o'zini baholash, jarayonlarni baholash, g'oyalarni shakllantirish, tizimli fikrlash) asoslarini;
- mafkuraviy immunitet va mafkuraviy kompetentlilik tushunchalari mohiyati;
- ta'lim sohasida innovatsion faoliyat asoslarini;

Kommunikativ kompetentlik – o'zgalar fikrini hurmat qilishni namoyish eta olish, o'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot maneralarini tanlay olish, o'zgalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot shakllarini tanlay olish, ta'lim jarayoni sifatini oshirish va ta'lim oluvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida, o'z hamkasblari bilan AKTning turli vositalari yordamida aloqa o'rnatish olish va hamkorlik qilish, ta'lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlarda ishtirok etish, o'zgalar bilan o'zaro hurmat asosiga qurilgan munosabatlarni o'rnatish olish, o'zini tutishda, boshqalar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilish hamda resurslarni boshqarishda axloq normalariga rioya etish, milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas'uliyati, ijtimoiy adolatni himoya qila olish.

AKT va mediasavodxonlik kompetentligi – ta'lim muassasasini axborotlashtirish g'oyalarini ilgari surish, AKT madaniyatini rivojlantirish va ushbu g'oyalarni amalga oshiruvchi ta'lim muhitini shakllantirishni ta'minlash, AKTdan foydalangan holda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ta'lim strategiyalarini joriy etishga ko'maklashish, ta'lim jarayonida AKTdan foydalanishning ijtimoiy, huquqiy va axloqiy normalari ahamiyatini tushunish, ulardan havfsizlikni ta'minlagan holda foydalanish va ushbu yo'nalish bo'yicha tegishli yo'riqnomalarni ishlab chiqish, ta'lim mazmuniga mos bo'lgan AKTni o'qitish vositasi sifatida ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning turli samarali strategiya va yondashuvlarini rejalashtirish, ilgari surish va qo'llab-quvvatlash, fanlarni o'qitish jarayonida faoliyatni takomillashtirish va samarali tashkil etishda AKT vositalarini joriy etilishini ta'minlash, ta'lim muassasa faoliyatini va o'quvchilar kompetensiyasini baholashning samarali usullarini joriy etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, ommaviy axborot vositalaridagi mediakontentni tushunish, mediasavodxonlik elementlarini o'zida mujassam etgan holda ularni o'quvchilarda shakllantirish yo'llarini bilish, turli shakllar va vositalar orqali axborotlarni tahlil etish, baholash, qayta ishlash va yangi ma'lumotlarni yaratish.

O'zini-o'zi rivojlantirish, o'z ustida ishlash kompetentligi – o'z kasbiy mahoratini oshirish rejasini tuza olish, kasbiy rivojlanishiga oid manbalarni aniqlay olishi, o'zi va ishlaydigan muassasasining ehtiyojlaridan kelib chiqib kasbiy malakasini oshirish bo'yicha o'quvlarni tanlay olishi va ularda ishtirok etish, AKT va global tarmoq resurslaridan foydalangan holda doimiy tarzda o'z kasbiy malakasini oshirib borish, boshqaruv usullari, ta'lim va axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanishga oid innovatsiyalar bilan tanishib borish, kasbiy (rahbarlik, mutaxassislik) faoliyatini takomillashtirishda turli texnologiyalardan foydalanish, o'z kasbiy bilim va mahoratini oshirish hamda takomillashtirishda kollegial forumlardagi muhokamalarda ishtirok etish.

Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetentligi ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga, yangilanish jarayonlariga tez, oson moslasha olish, ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qilish, ularni egallash hamda o'zining kasbiy amaliyotiga joriy eta olish, o'ziga, jamoaga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatli bo'lish, yuqori marra va standartlarni belgilash, ularga erishish, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchini qo'yish va har bir o'quvchining o'zlashtirishi, sifatli ta'lim olishi bo'yicha mas'uliyatni zimmasiga olish.

Inklyuziv ta'limni joriy etish kompetentligi – imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid qonun hujjatlarini bilish va ularning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashning turli strategiyalarini bilish, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va joriy eta olish, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolarni samarali hal eta olish.

Huquqiy kompetentlik – Qonunchilik normalarini bilish hamda ularga og'ishmay rioya qilish, ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda samarali foydalana olish, o'z kasbiy faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, bolalar huquqlari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va ularga rioya qilish.



- pedagogik texnologiyaning turlari, asosiy yo'nalishlari va tasnifini;
- interfaol ta'lim, uning shakllari, asosiy mezonlarini;
- xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat tizimi bo'g'inlarining funktsiya va vazifalarini;
- xalq ta'limi muassasalarini o'quv-metodik adabiyotlar va didaktik materiallar bilan ta'minlash tizimi va tartibini;
- xalq ta'limi muassasalarini o'quv-laboratoriya jihozlari, fan kabinetlari va kompyuter sinflari bilan ta'minlash tizimi va tartibini;
- xalq ta'limi muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini kuzatish, tahlil qilish va nazoratini amalga oshirish tartibini;
- ta'lim muassasalariga metodik xizmat ko'rsatish yo'llari;
- metodik tavsiyalar, ma'lumotnoma va hisobot tayyorlash tartibini;
- tahliliy ma'lumotlar tayyorlash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilashni;
- fanlarni o'qitish bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va amalda qo'llashni;
- darslarda interfaol metodlardan foydalanish usullarini;
- fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan axborot texnologiyalarini.

Androgogikada o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini aniqlovchi mezonlar quyidagilardan iborat:

- o'qituvchi o'z kasb mahoratini muttasil oshiradi, ijodiy faoliyatga qadam qo'yadi, uning roli va mavqeyi ortadi;

- o'qituvchining maktab o'quvchilari bilan individual ish olib borishiga xohish va imkoniyat yaratiladi;

- maktabda metod birlashmalar ishini takomillashtirish, monitoring qilish yuzasidan tizimli faoliyat yo'lga qo'yiladi;

- o'qituvchi o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etishi va boshqarishi orqali ma'naviy-ma'rifiy salohiyati rivojlanib boradi;

- fan o'qituvchisining shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi amaliy faoliyati rivojlanadi;

- umumiy pedagogik, psixologik va metodik bilimlarni puxta o'zlashtirish, mazkur sohaga oid yutuqlardan boxabar bo'lish, fanning nazariy va metodik asoslarini puxta o'zlashtirish, ular bo'yicha amaliy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi;

- ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy ta'lim vositalaridan samarali, o'rinli foydalana oladi;

- o'qituvchi o'z darslarida o'qituvchi shaxsiy sifat va qobiliyatini tarbiyalash, ma'naviyatini oshirish, uni mustaqil fikrlash, to'g'ri xulosa chiqarish, bilganlarini amaliyotda qo'llashga qodir komil inson qilib shakllantirish usul va vositalarini puxta o'zlashtiradi;

- maktab o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi asosida tashkil etish ularning kasbiy mahoratlarini oshirish bilan birga ta'limiy muammolarning oldini olish va bartaraf etishdagi faol ishtiroklarini ta'minlaydi;

- malaka oshirish jarayonining mustaqil ta'lim, maqsadli malaka oshirish kurslari va kursdan keyingi monitoring kabi bosqichlar asosida maktab fan o'qituvchilari malakasini oshirish muayyan dinamik o'zgarishlarning sodir bo'lishiga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, androgogik tayyorgarlik qator tarkibiy qismlardan iborat tashkiliy, mazmunli va prosessual komponentlardan tashkil topadi. Tashkiliy komponent o'z ichiga tayyorgarlik darajalari, talab va shart-sharoitlarni, tashkiliy shakllarni, materialni o'zlashtirish usullari, o'quv kursining davomiyligi kabi jihatlarni qamrab oladi. Mazmunli komponent maqsad qo'yish, kurs va dasturlar mazmuni, o'qitish metod va usullari va natijani o'zida aks ettiradi. Prosessual komponent rejalashtirish, tayyorgarlikni tarkiblashtirish, androgogik tayyorgarlik subyektlarining o'zaro harakatini tashkil etish kabilardan iborat.

Jamiyatdagi o'zgarishlar, mutaxassislarning kasbiy bilim va shaxsiy sifatlariga qo'yilayotgan zamonaviy talablar pedagogika oliygohlaridagi ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi. Shu asosda, bugungi kunda pedagogika oliygohlaridagi moddiy-texnik ta'minotini takomillashtirish, o'quv-uslubiy imkoniyatlari doirasini kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedjanov M.M., Xo'jayev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat – Buxoro Davlat universiteti, 2014
2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. – 120 bet.75
4. Azizxodjayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – 52 b.
5. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari / Monografiya. – T.: Fan, 2004.B –73-80



TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA SINFLAR RAHBARLARI MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA SO'ROVNOMA METODIKASIDAN FOYDALANISH

Shofozil Maxsudov,

Toshkent viloyati Parkent tumani 13-maktabning
Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf rahbarlarining motivatsiyasini oshirishda so'rovnoma metodikasi yoritilgan. Sinf rahbarlari faoliyatini yanada oshirish, ularning motivatsiya olish yo'llari, so'rovnoma metodining o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar

Motivatsiya, anketa metodi, so'rovnoma metodi, intervyu metodi, kavzometriya, tahlil, sinf rahbarlari, ta'lim muhiti.



Zamonaviy sinf rahbari - bu turli xil dasturlar va uslubiy ishlanmalarni tushunadigan malakali mutaxassis, bilimdon shaxs. Shuningdek, bolalar va ularning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlarning murakkab tizimini o'rganishga qodir yaxshi psixologdir. Har doim hamkorlik va o'zaro yordamga tayyor, hamfikrlar jamoasida qanday ishlashni biladigan sezgir hamkasb. Doimiy ravishda o'z-o'zini tarbiyalash, bolalar bilan ishlashning yangi usullarini izlash, shu bilan birga, eng yaxshi pedagogik tajribadan foydalanish - bularning barchasi zamonaviy sinf rahbarini ajratib turadi, bizning kasbimizni qiziqarli, ijtimoiy talabga ega qiladi.

Taniqli ustoz - novator Sh. Amonashvili shunday dedi: "O'qituvchi - bu boshqa shaxsning rivojlanishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan shaxs".

Sinf rahbari, avvalo, o'zida motivatsiyani rivojlantirishi, muammolarni hal etishda so'rovnoma metodidan foydalanib, aniqlab olishi, o'ziga kerakli yo'lni tanlashi, maqsad qo'ya olishi lozim. Ota-onalar bilan birgalikda farzandlarni tarbiyalab, mamlakatimiz kelajagini yaratadi. Sinf rahbarlari so'rovnoma metodidan foydalanish haqida gap ketganda, birinchi navbatda, so'rov metodi va uning asosida ishlab chiqiladigan metodikalar. So'rovnomalar turlari haqida bilish zarur.

So'rovnomalar savolnomali psixodiagnostik metodlar maxsus standart bo'yicha tanlab olingan savollarga yozma og'zaki javoblarni tahlil qilishdir. Ushbu metodning bir necha turi mavjud: anketa, savolnoma, intervyu. Sinaluvchi savollarga javob berishidan tashqari, o'zi haqida ma'lumot berishi anketa metodi deb aytiladi.

Anketa – oldindan tuzilgan savollar tizimiga javoblar olish uchun so'rovnoma varag'idan iborat verbal kommunikatsiya asosida birlamchi ijtimoiy-psixologik axborot olishda qo'llaniladigan metodik vosita hisoblanadi.

Yozma so'roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa) yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, shubhasiz, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi. So'roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, hattoki, kompyuter dasturida ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkazilishi nazarda tutiladi.(1)

Sinaluvchiga beriladigan savollar majmuasi savolnoma metodi deyiladi. Bu savollar ochiq va yopiq usulda bo'ladi. Standartlashtirilgan javoblarga, sinaluvchi o'ziga mos javobni berishi yopiq savollar deyiladi. Masalan: «ha», «yo'q», «bilmayman», «roziman, rozi emasman», «aytish qiyin».

Sinaluvchi mustaqil ravishda xohlagan javobni berishi ochiq savollar deyiladi, bu javoblar yopiq savollardan farqli ravishda, faqat sifat jihatdan tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, savolnomali psixodiagnostik metodlar shaxs sifatlarini to'g'ridan to'g'ri yo'naltirilgan hamda yo'naltirilmagan savollar usulida bo'lishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan savollarga sinaluvchi o'zida u yoki bu psixologik sifatlarning ko'rinishlari bor-yoqligi haqida javob beradi. To'g'ridan to'g'ri yo'naltirilmagan savollar, sinaluvchidagi o'rganilayotgan

xususiyatga yo'naltirilmagan bo'lib, psixologik taraqqiyotini o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, shaxs sifatlaridan «xavotirlanish»ni diagnostika qilish uchun savollarga murojaat qilamiz (bezovtalik, o'ychanlik):

Ochiq savol: «Kuchli xavotirlanish holatiga tushib qoladigan hodisalar haqida gapirib bersangiz».

Yopiq savol: «Siz ko'p hollarda xavotirlanish holatida bo'lasizmi? Quyidagi javoblardan birini tanlang va belgilang «ha», «yo'q», «ba'zan», «bilmayman».

To'g'ridan to'g'ri yo'naltirilgan savol: «Sizda rahbarlik sifati mavjudmi?».

To'g'ridan to'g'ri yo'naltirilmagan savol: «Sizda sinf rahbari bilan yakka tarzda muloqotda bezovtalik holati vujudga keladimi?».

Yozma savolnomalardan tashqari, og'zaki savolnomalar ham mavjud, bu intervyu deb yuritiladi. Unda psixolog sinaluvchiga o'zi savol berib, o'zi javoblarni yozib boradi, bu savollar oldindan aniqlanib, tayyorlab qo'yiladi ular xuddi yozma savollar tipidagi kabi bo'lishi mumkin.

Psixodiagnostik metodlardan yana biri faoliyat mahsullarini analiz qilish orqali kontent-analiz hisoblanadi. Kontent-analizning vazifasi shundan iboratki, u kishining psixologik tavsifini aniqlash va baholashda, uning nima ish qilayotganligi, asosan, yozma ijod mahsuli tahlili orqali o'rganishga qaratilgandir.

Eksperimentning psixodiagnostik metod sifatidagi muhim jihatlari shundan iboratki, sinaluvchining biron-bir xususiyatini baholashda maxsus psixodiagnostik eksperiment ishlab chiqiladi va tashkil qilinadi. Bunday eksperiment muolajalari bir qancha tibbiy voqeliklarni o'z ichiga oladi, ya'ni bu hodisalar sinaluvchining o'rganilayotgan xususiyatini namoyon qilish hamda bu sifatning taraqqiyotini baholash va belgilashning standart metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan. Psixodiagnostik eksperimentni tashkil qilish va o'tkazish natijasida tadqiqotchi o'zini qiziqtirayotgan muammolar bo'yicha maxsus tarzda tashkil qilingan eksperimental tadqiqotda sinaluvchi xulq-avtorini kuzatish orqali ma'lumotlarga ega bo'ladi. Masalan, tadqiqotchini shaxs sifatlaridan xavotirlanish muammosi qiziqtiradi. Bu holda diagnostik eksperiment quyidagi tarzda olib boriladi. Sinaluvchi imtihon sinovlari kabi voqelik holatiga tushiriladi, qandaydir murakkab ishni vaqt tig'izligida bajarib qat'iy natijalar olishga undaydi. Sinaluvchi topshiriqni bajarayotgan paytda, uning xulqida har xil yuqori darajali «xavotirlanish» kuzatilishi va belgilab borilishi mumkin.

Biz yuqorida psixodiagnostik metodlar va ularning turlari hamda qo'llanishi haqida ma'lumotlar berdik, har qanday psixolog yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishi uchun, albatta, ushbu psixodiagnostik metodlarni o'zlashtirishi va amaliyotda foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi shart.

Yuqorida qayd etilgan belgilarning mavjudligi pedagoglar va psixologlar tomonidan o'quv jarayonida turli didaktik vosita va usullar yordamida aniqlanadi.

Eksperimental tadqiqot sharoitida yuqoridagi belgilarning mavjudligi so'zli, predmetli va psixometrik metodikalar yordamida aniqlanadi. Har bir konkret holda olingan ma'lumotlarni sifat jihatdan tahlil qilish va ularni boshqa metodlardan olingan natijalar bilan bog'lash zarur.



Psixologik diagnostikada metodikalarning ishonchliligi muhim hisoblanadi. Soddaroq qilib aytganda, bu tushuncha «testda olingan natija nechog'lik to'g'riligini ko'rsatadi». (A. Anastazi). Har qanday metodikaning, testning ishonchliligi o'rganilayotgan psixologik xususiyatlarning ularda aks etishi nuqtai nazaridan to'g'ri qo'llanishini xarakterlaydigan ma'lumotlar majmui sifatida qaralmog'i kerak (L.F. Burlachuk, S.M. Moroz, 1989).

Shunday qilib, maqsadga muvofiq tanlangan metodika va testlar psixik faoliyat ko'rinishlarini to'liq va har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

Bolalar ustida psixologik tadqiqotlar o'tkazish tajribasi shundan dalolat beradiki, qo'llanilayotgan psixodiagnostika metodikalarini shartli ravishda u yoki bu psixik jarayonlarni o'rganish metodikalariga ajratish mumkin. (L.I. Poperechnaya 1978; L.A. Venger, V.V. Xolmovskaya 1978; Z.I. Kalmikova, 1982; V.M. Bleyxer, I.V. Kruk, 1986). Masalan, bola xotirasi haqida faqat bir metod asosida xulosa chiqarish mumkin emas, buning uchun metodikalar majmuini qo'llash kerak. Shu bilan bir vaqtda, har bir eksperimental metodika o'zining asosiy yo'nalishidan tashqari (ya'ni shaxsning ma'lum xususiyatini o'rganishdan tashqari), psixikadagi boshqa xususiyatlarning holati haqida ba'zi ma'lumotlar beradi. Masalan: bolaga berilgan 10 ta so'zni qanday yodlashiga qarab, faqat uning xotirasi haqidagina emas, balki ixtiyoriy diqqati, harakatlarining maqsadga yo'naltirilganligi, ularning sabablari haqida ham bilsa bo'ladi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotning sifati eksperimentda qo'llaniladigan metodikalar soniga bog'liq bo'ladi. Lekin bog'cha va maktab yoshidagi bolalar bilan tadqiqot o'tkazganda ularning tez charchashini hisobga olish zarur. Shuning uchun bir tadqiqot o'tkazganda, tadqiqot vazifalariga bog'liq ravishda tanlangan 5 – 7 metodikadan foydalanish tavsiya etiladi. Bir necha bosqichda o'tkaziladigan tadqiqotlarda ko'proq metodikalardan ham foydalanish mumkin. Eksperimental tadqiqot usullarini yaxshi egallash ham muhimdir. Tadqiqotchi tajriba vaqtida bola bilan qanchalik yaxshi munosabatda bo'lsa, topshiriq shunchalik yaxshi bajariladi.

Tadqiqot o'tkazish uchun eksperimental metodikalarni tanlashda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

- a) tadqiqot maqsadi – psixik taraqqiyot darajasini aniqlash, uning yoshiga, ma'lumotiga mosligi, shaxs xususiyatlarini aniqlash;
- b) sinaluvchining yoshi va uning hayot tajribasi, unga ta'lum va tarbiya berilayotgan sharoit;
- v) bolaning eksperimental tadqiqotga moslashishi, muloqotga kirishishi, verbal aloqa o'rnatish xususiyatlari.

Bolaga tanlangan eksperimental psixologik metodikalarni qiyinligi o'sib borish darajasida berish kerak. Shuningdek, so'rovnoma o'rnida kavzometriyaga ham e'tibor bersa bo'ladi.

Kavzometriya - E.I. Golovaxa va A.A. Kromiklar tomonidan taklif etilgan usul bo'lib, u shaxsning psixologik vaqti va hayotiy subyektiv holatlari tahlilini tadqiq etish metodi hisoblanadi. Bu intervyu quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: biografik savol-javob, muhim voqealar ro'yxatini tuzish, voqealarni keltirib chiqargan sabablarini aniqlash va boshqalardir.

O'QUVCHILAR UCHUN SO'ROVNOMA (namuna)

1. Sinf rahbari sizga sinf rahbarlik qilishi yoqadimi?
A) ha B) yo'q
2. Siz sinf rahbaringizga shaxsiy muammolarni ishonib ayta olasizmi?
A) ha B) yo'q C) javob berishga qiynalasiz
3. Shu sinfda o'qiganingizdan xursandmisiz?
A) ha B) yo'q C) javob berishga qiynalasiz
4. Sinf rahbaringiz sizlarni tarbiyalash bo'yicha maslahat bera oladimi?
A) ha B) yo'q C) javob berishga qiynalasiz
5. Sinf rahbaringiz tomonidan taklif qilingan pedagogik jarayonning sifatini qanday baholaysiz?
A) a'lo darajada B) yaxshi C) hamma ham mos emas
6. Siz sinf rahbaringizga yordam so'rab murojaat qilasizmi?
A) har doim B) ba'zan C) hech qachon
7. Sizningcha, bu sinf rahbaringiz
A) qat'iy B) demokratik C) adolatli
8. Sizningcha, sinf rahbaringiz individual yondashishni ta'minlaydimi?
A) ha B) yo'q C) javob berishga qiynalaman
9. Sinf rahbaringiz sizga yordam berishiga aminmisiz?
A) ha B) yo'q C) javob berishga qiynalaman
10. Siz sinf rahbaringiz bilan muammolar haqida suhbatlashishni xohlaganmisiz, lekin biron sababga ko'ra u ishlamadi?
A) yo'q, men har doim sinf rahbariga murojaat qilishim mumkin
B) yo'q, men uchun aytgan so'zlari yetarli
C) ha, bu bir yoki ikki marta bo'lgan
D) juda tez-tez



11. Sinfning tarbiya muhiti sizni qoniqtiradimi? (javobingizni yozing)

12. Siz sinf rahbarining qanday bo'lishini xohladingiz? (javobingizni yozing)

13. Sinf rahbaringiz bilan sizning o'rtangizda qanday muammolar mavjud? (javobingizni yozing)

14. Zamonaviy sinf rahbar qanday bo'lishi kerak? (javobingizni yozing)

15. Sinf rahbaringiz uchun tilaklaringiz (javobingizni yozing)

16. Siz ham kelajakda sinf rahbari bo'lasizmi? (javobingizni yozing)

Shunday qilib, motivatsiya kishini harakatga undaydigan, faoliyat chegaralari va shakllarini belgilaydigan va bu faoliyatga ma'lum maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar majmui hisoblanadi. Sinf rahbari o'zining sinf o'quvchilari va ularning ota-onalari bilan muloqot qilishda, sinfni eng ilg'or sinf etib tarbiyalashda o'z motivatsiyasiga ega bo'lishi va bu motivatsiyani aniqlab olishda so'rovnoma metodida mohirlik bilan foydalansa, ijobiy zamonaviy sinf rahbari darajasiga erishishi mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, so'nggi yillarda sinf rahbarining faoliyatiga doir metodlar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, sinf rahbarlari motivatsiyasini oshirish usullari haqida ko'pchilik bosh qotirmoqda. Bunda so'rovnoma o'quvchilar, ota-onalar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi.

So'rovnoma orqali sinf rahbari kelajak rejalari, xato va kamchiliklarini aniqlaydi. O'zi rahbarlik qilayotgan sinfning unga munosabati o'zgaradi. Shuning uchun sinf rahbarlariga tarbiyaviy faoliyatni olib borishda so'rovnoma metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasbiy psixologiya.T.-2016 yil.
2. L.B.Sultonova. Kasbiy psixologiya fanidan o'quv uslubiy majmua.Toshkent.2020-yil.
3. G.Suleymanova.Umumiy psixologiya fanining maqsadi,vazifalar.A-2015 yil
4. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.-T.:”Tib-kitob”,
5. Tarbiyaviy ishlar metodikasi-Qarshi. 2007yil.
6. O.Otajonova.,V.Karimova Kasbiy psixologiya Toshkent.2018 yil.



TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI AMALGA OSHIRISHNING ENG MUHIM JIHATLARI

Oysoat Xudoyorova,

Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Anora Xoliqova,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot
instituti magistranti

Annotatsiya

Maqolada sharq mutafakkirlari dunyoqarashidagi g'oyalar asosida ma'naviy barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi aks etgan. Shuningdek, yoshlarning insonparvarlik, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'usini kuchaytirishda ma'naviy axloqiy tarbiyani amalga oshirishning eng muhim jihatlari to'g'risida ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar

Sharq allomalari falsafiy tafakkuri, tarixiy meros, ajdodlar hayot tajribasi, millat va jamiyat, ma'rifat, komil inson, axloqiy yetuklik, ilm-ma'rifat, ma'naviy boylik, vatanparvarlik.



Ma'lumki, yosh avlodning milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalash, boy madaniy – tarixiy merosimizning munosib vorislarini voyaga yetkazish eng muhim masala hisoblanadi. Azaldan inson va insoniy munosabatlar, inson shaxsini qaror toptiradigan ijtimoiy muhit, inson qadri va erki masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda sharq falsafiy tafakkuri, ajdodlar hayot tajribasi, bilimi, yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari millat va jamiyat taraqqiyoti uchun ishonchli va mustahkam tayanch bo'lib xizmat qiladi. Komillikka eltuvchi yo'l ezgu fikrlar va ezgu amallarga tayanish, ilm – ma'rifatga intilish orqali namoyon bo'ladi. Barcha fazilatlar manbayini o'qish, o'rganish va ma'rifat tashkil etadi. Ilm olish esa dastlab axloqiy poklikni talab etadi.

Ta'lim tizimining asosiy vazifasi, ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan, erkin insonni tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir. Buning ma'nosi shuki, erkinlik inson hayotining mazmunidir. Insonning barcha faoliyati erkinlashtirilgandagina uning intilishlari jamiyat rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'ladi. Ana shunda olingan bilimlar taraqqiyotga xizmat qiladi, yoshlarning mustaqil hayot kechirishini ta'minlaydi.

Komil inson deganda, ongi yuksak, mustaqil fikrleydigan, o'zining xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat va namuna bo'ladigan ma'naviyatli va ma'rifatli insonlarni tushunamiz. Komillik – bu insonning hayotligida amalga oshirgan barcha ishlarining pok e'tiqodi bilan sug'orilishi, haqqa intilishi, haqiqatni va yorug'likni ravshanroq ko'ra bilish yo'lidir. Komil insonlar o'ta rostgo'y, pokiza, iymonli, bilimli, haqiqatga intiluvchi, saxovatli, bardoshli va samimiy bo'ladilar.

Ma'naviy barkamol inson o'zining insonparvarligi, vatanparvarligi, bilimdon, mehnatsevarligi, oqil-u dono, halol, to'g'riligi, o'zini anglashi bilan har qanday yovuz, qabih ishlar va nojo'ya qiliqlardan saqlanib turadi. U o'zining aql-zakovati bilan mo'jizalar yaratadi. Komil insonlar o'zida odillik, oqillik, fozillik, insof-u diyonatni jo qilib, pok yeb, pok yashaydilar, harom-xarishdan jirkanadi. Ular barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan holda qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zotlar sifatida e'zozlanadi. Atoqli olim N.Komilov komil inson haqida shunday yozadi: "Komil inson, shunday qilib odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi. Dunyo shunday zotlar tufayli barqaror va osoyishtadir... Dunyoning tinchligi va farovonligi, insoniyat butunligi, haqiqatan ham, dono va oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog'liq, ya'ni ilohiy poklik va nafosat, e'tiqod va tafakkur bizni balo-qazolardan asraydi, hayotni avaylab, saqlab turadi".

Sharq mutafakkirlari komil inson jamiki insonlarning mukammali haqidagi fikrlarni buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy ta'limoti misolida ko'rish mumkin. Insonning yashashdan asl maqsadi zavqli-lazzatli, huzur-halovatli, baxtli-saodatli umr kechirishdan iboratdir, degan g'oya uning falsafiy ta'limotida ustuvorlik qiladi. Shu bois, ul zot "Insonning mohiyati haqiqiy baxt-saodatga erishuv ekani, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirib, bu yo'lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt-saodatga erishadi", - deb uqtirgan edi.

Abu Nasr Farobiy inson komilligining tayanch manbayi sifatida yetuk axloq, ma'rifatli va adolatli jamiyat g'oyasini ilgari suradi. Axloqiy fazilatlar negizida insonni komillik sari yetaklovchi xislatlar shakllanadi. Fozil inson g'oyasi Farobiy ta'limotida fozillik xislatlarini tarbiya etuvchi fozil jamiyat g'oyasi bilan uyg'unlashib ketgan. «Fozil odamlar shahri» asarida mutafakkir axloqiy

yetuklikka erishgan inson o'n ikki fazilatga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Bular: sog'lomlik; farosatlilik; kuchli xotira; zukkolik; sabr-qanoatlilik; ma'rifatparvarlik; notiqlik; haqiqatgo'ylik; oliyjanoblik; molparast bo'lmaslik; mardlik; adolatparvarlikdir. Abu Nasr Farobiyning komillik fazilatlari turkumida keltirgan ushbu insoniylik fazilatlari, avvalo, insonning ma'naviy yetuklik xislatlari bilan uzviy bog'lanib ketgandir. Vaholanki, bugun biz o'zida komillik fazilatlarini mujassam etgan barkamol inson tarbiyasini ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning pirovard maqsadi deb bilar ekanmiz, yoshlar tarbiya insonparvarlik, vatanparvarlik, erkarparvarlik va fidoyilik tuyg'ularini qaror toptirishda buyuk ajdodlarimiz belgilab o'tgan axloqiy fazilatlarni ustuvor deb bilamiz. Insonning axloqiy yetukligi va insoniy fazilatlar uyg'unligi, insonda tana va ruh tarbiyasi masalalari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz ta'limotlarida muhim o'rin egallaydi. Alloma Abu Ali ibn Sino insonparvarlik va insonda komillik fazilatlarini ro'yobga chiqaruvchi muhit o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka doir chuqur falsafiy fikrlarini bayon etgan. Tabobat ilmini inson jismi va ruhiyati tarbiyasi ilmi bilan uzviylikda tahlil etish Ibn Sino falsafasiga xos xususiyatdir. Ibn Sinoning insonparvarlik, inson va uning ma'naviy dunyosiga oid fikrlari axloqiy g'oyalarda bayon etilgan. Ayniqsa, alloma inson komilligi haqida gapirar ekan, "Axloq haqida risola"sida komillik fazilatlariga mos xislatlardan or-nomus, qadr-qimmat, saxiylik, sabr-toqat, sha'n, g'ayratlilik, sirni saqlay bilish, ilm-ma'rifatli bo'lish, ochiqlik, vijdoniylik, sadoqatlilik, do'stlik, haqiqatgo'ylik singari tushunchalar ta'rifini keltiradi. Xususan, oila muhitida qaror topadigan munosabatlarda farzand tarbiyasi amalga oshiriladi. "Agar oila o'z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his tuyg'u unga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi".

Ibn Sino ota-ona mas'uliyati, farzandlik burchi, ayol oqilaligiga xos fazilatlar, ustoz-muallim xislatlari to'g'risida alohida to'xtalib o'tadi.

She'riyat mulkinining sultoni Mir Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik g'oyalari, u yaratgan ijobiy obrazlardagi insoniylik fazilatlari orqali bayon qilinadi. O'zining insoniy fazilatlari, ilmiy salohiyati bilan dunyo ahli e'tiboriga tushgan buyuk alloma bobolarimiz, mustaqillik yo'lida ezgu maqsadlarimiz ifodasi hamda tayanchi bo'lgan barkamol avlod tarbiyasiga ibrat va namuna maktabi bo'ladilar. O'rta asrlar Sharq allomalari – buyuk bobolarimiz tarixiy va madaniy merosining bugungi kun uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga e'tibor qaratar ekanmiz, o'zimizning tarixiy, madaniy va intellektual merosimizni asrab avaylash, boyitish va ko'paytirishga, shuningdek, unib – o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yetarlicha e'tiborni qaratish zarur. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - deb ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarimizga shunday ta'lim-tarbiya berishimiz kerakki, ular nafaqat ma'naviy merosimizni o'rganibgina qolmasdan, o'zlarining ilmlari bilan mamlakatni



yanada rivojlantirishlari joizdir. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Har qanday davlat siyosatining asosini vatanparvarlik tarbiyasi tashkil etadi" degan so'zlari zahirida chuqur ma'nolar mujassamdir. Vatanparvarlikning harakatlantiruvchi kuch esa odamlarning ma'naviy dunyosi, intellektual salohiyati bilan o'lchanadi. Shunga ko'ra, ilm - fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harakatlardir. Chunki ilm odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki boshqarish tartiblari. Toshkent "Ma'naviyat" 1998.
3. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. "O'zbekiston". 2016.
4. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. Toshkent-G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2017.
5. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Birinchi kitob. T., "Yozuvchi", 1996.





TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

DIALEKTAL SHAROITDA O'QUVCHILARNI TALAFFUZGA O'RGATISH

Robiya Mamaniyazova,

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahar
15-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'rtasida sheva ta'sirida kelib chiqadigan dialektal orfoepik xatolarning oldini olish bo'yicha ma'lumotlar hamda metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar

Orfoepiya, orfografiya, dialektologiya, sheva, uslubiyat, nutq uslublari, ko'nikma, og'zaki nutq, talaffuz, imlo.



Zamonaviy sharoitda mazkur fanni o'qitish o'qituvchi kadrlarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan ilg'or yutuqlar, umuminsoniyg'oyalar, milliy qadriyatlarga tayangan holda tayyorlash, ularda pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni tarkib toptirish, tarbiyachi, o'qituvchi hamda yoshlar murabbiysi sifatida pedagogik jarayonlarni to'g'ri tashkil etish malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan.

Yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish, kasb-hunar o'rgatish, iqtidorli, qobiliyatli qilib tarbiyalash har bir ustozning vazifasidir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda qabul qilingan O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining hayotga tatbiq etilishi, uning mantiqiy davomi bo'lgan "Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" va boshqalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlar zamirida farzandlarimizni komil insonlar qilib tarbiyalash orqali yurtimiz taraqqiyotining mustahkam poydevorini qo'yish, uning buyuk kelajagini bunyod etishdek ezgu maqsad yotadi. Bu maqsad yo'lida, avvalo, o'quvchilarni ona-Vatanga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda ona tili va adabiyot fanlarining ahamiyati juda katta.

Maktab ta'limini rivojlantirish, ayniqsa, ta'lim jarayonini maqsadli tashkil etishda pedagogning boshqaruvchilik mahorati asosiy omillardan biridir. Chunki pedagog qanchalik samarali tajribalarni egallash ustida tinimsiz ishlasa, o'zi yangiliklar ijod etish uchun izlansa, uning darsida ta'limning samarasi yuqori bo'lishi shak-shubhasiz. Pedagogning mana shunday xislatlarini oshirishda kasbiy mahoratlarini boyitib, yangilab borishida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining o'rni beqiyosdir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur [1]

Yurtboshimizning yuqoridagi fikrlari orqali yoshlar tarbiyasi hamda kamolotini ta'minlashda asosiy ishtirokchi hisoblangan o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida ko'rilyotgani ham ustoz va murabbiylar jamiyatimiz bunyodkorlari vazifasini bajarib berishini anglab yetishimiz mumkin. Yozuv og'zaki nutq bilan o'zaro mustahkam bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda ular bir-birlariga ta'sir qiladilar. Talaffuzdagi nuqsonlar bevosita imloga ta'sir qilib, ko'plab orfografik xatolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Lekin shunga qaramay, maktablarda og'zaki nutqning roliga va uning dialektal xarakteriga yetarli ahamiyat berilmasdan ona tilini o'zbek adabiy matnlar asosidagina o'qitib kelinayotganligi o'zbek adabiy tilini o'rganishdagi jiddiy kamchiliklardan biridir.

Ona tili o'qitishda maktabning vazifasi – o'qituvchilarning o'zbek adabiy tilining fonetik, grammatik va leksik normalariga rioya qilgan holda so'zlash malakasiga ega bo'lishdan iboratdir. Ularga orfoepik normalarni singdirish ham shu ishning ajralmas tarkibiy qismidir. Adabiy til normalarini egallashda, orfografiya bilan bir qatorda, to'g'ri talaffuz ham muhim ahamiyatga ega.

To'g'ri talaffuz ko'nikmalari hosil qilish faqat adabiy tilni egallash uchungina zarur bo'lib qolmasdan balki, "...to'liq savodxonlik nutq madaniyati bilan bevosita bog'liqdir". Orfoepik malakalarni mustahkam egallash ona tilining barcha bo'limlarini – grammatika, leksika va orfografiyani muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy omilidir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar nutqidagi orfoepik xatolar tubandagi ikki asosiy sabab tufayli vujudga keladi:

- a) Mahalliy sheva ta'sirida kelib chiqadigan orfoepik xatolar;
- b) So'z qanday yozilsa, shunday aytish tufayli kelib chiqqan xatolar... (kitobiy talaffuz)

Sheva ta'sirida kelib chiqadigan dialektal orfoepik xatolar "tug'ma " xato bo'lib, u bola dastlab tilga kirganda, atrofdagi kishilar bilan o'zaro aloqa qilishi tufayli shakllanadi. Bola qanchalik yosh bo'lsa, uning nutqida dialektizmlar shunchalik ko'p bo'ladi.

Og'zaki nutqdagi xatolar ancha mustahkam bo'lib, ularni bartaraf qilish biroz qiyindir. Chunki yangini o'rgatishga nisbatan noto'g'ri o'zlashib qolgan narsani yo'qotish bir qadar murakkab bo'ladi. Shuning uchun bolalarni bog'chada ham to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish kerak. Sababi bog'chada yozma nutqdan ko'ra og'zaki nutqqa ko'proq talaffuz qilinadi. Bolalar o'rtasida sahna ko'rinishlari yoki ko'proq bolalar yoshiga mos ertaklardan o'qib berilsa,shu ertak asosida savol-javob o'tkazilib, og'zaki nutqini rivojlantirilsa,natija beradi.

Ayrim kishilar adabiy tilni egallash uchun grammatikani bilish va to'g'ri yozish malakasini o'zlashtirishning o'zi kifoya, deb hisoblaydilar. Biroq hayotda shunday kishilar borki, grammatikani to'la o'zlashtirib, imloda biror xatoga yo'l qo'ygani holda, talaffuzda elementar orfoepik normalarga ham rioya qilmay, o'z shevalarida gapiradilar.

Demak, shundan ma'lumki, to'g'ri talaffuz malakalarini egallash uchun faqat tayyor tekstlar asosida kitobdangina o'rganib bo'lmaydi. Chunki yozuvimiz hamma vaqt ham talaffuz bilan mos kela bormaydi. O'quvchilar nutqidagi orfoepik xatolarni bartaraf qilishda, yuqorida qayd qilinganlardan tashqari, tubandagi kabi umumiy omillar ham o'qituvchining e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Shu bois, ona tili darslarida o'qituvchi quyidagilarga ko'proq e'tiborini jalb qilib borishi lozim:

- a) grammatikani o'rganishda o'quvchilar nutqidagi sheva xususiyatlarini yo'qotishga yordam beruvchi bo'limlar (masalan, viloyatlar sharoitida kelishik va egalik, ko'plik affikslarini o'rganish)ga alohida diqqat jalb qilinib, ko'proq ahamiyat berish; (masalan: Samarqand shevasida poyezdga ketdik emas,balki poyezda ketdik tarzda bo'lishi kerak)
- b) adabiy til normalari bilan mahalliy shevalarni qiyoslangan va turli taqqoslash,qiyoslash masalalar, mashqlar aks ettirilgan maxsus ko'rgazmalar chiqarish; (Farg'ona shevalarida shatta-shu yerda, qatta- qayerda)

Shevaga oid so'zlar	Adabiy tilga oid so'zlar
<i>maxtab</i>	<i>maktab</i>
<i>soxat</i>	<i>soat</i>
<i>treza</i>	<i>deraza</i>
<i>daptar</i>	<i>daftar</i>



c) o'quvchilar va ularning ota-onalari oldida o'qituvchilar, boshqa madaniyat hamda san'at arboblarning nutq madaniyati, orfoepik normalar va nutqdagi orfoepik nuqsonlarni bartaraf qilish yo'llarini ko'rsatuvchi ko'rgazmalar va videolavhalar ko'rsatish;

d) maktab va mahalliy matbuotda adabiy til va nutq madaniyati masalalariga doir maqolalar bilan chiqishni tashkil qilish.

O'qituvchilar nutqidagi orfoepik xatolarni siqib chiqarish uchun orfoepiyadan o'tkaziladigan ishlarni shunday yuritish kerakki, toki uning har bir turi didaktikaning eng muhim prinsipi - ongli o'zlashtirish prinsipiga tayansin. To'g'ri talaffuz qoidalarini amalyot jihatdan o'zlashtirishda o'quvchi o'z nutqining adabiy-orfoepik normalarga mos kelmayotganligiga ishonsin va bu kamchilikni olgan bilim hamda malakalari asosida tuzata olish ko'nikmasiga ega bo'lsin. Lekin o'qituvchi shuni ham unutmasligi kerakki, "... turli dialektal sharoitda adabiy tilning talaffuz normalarini o'rgatish biri xil xarakterda bo'ladi", - deb aytib bo'lmaydi.

O'quvchi ko'proq insho yozishda yoki matn yaratishda shevaga oid so'zlardan foydalanishi, yoki tovushlarni almashtirib qo'yishi, xato gapiradigan so'zlarini ham yozmada qo'llashi mumkin. Tazyiq ostida yurgan bola ham kimdandir qo'rqib yurgan o'quvchi ham so'zlarning oxirgi tovushlarini tashlab ketishi mumkin. Xullas, imlo masalasi doimo dolzarb va jiddiy bo'lib kelgan. Shu bois, u pedagogikada hal etilishi shart bo'lgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mana shu xatolarning oldini olish uchun har bir sinfdagi hal etilishi shart bo'lgan va o'quvchilar yo'l qo'yayotgan xatolarni guruhlashtirib olishimiz lozim:

- harflarni tashlab ketilishi;
- jarangli-jarangsizni almashtirish;
- Qo'shimchalar variantligi;
- bo'g'in ko'chirish xatosi;
- bosh harflar imlosi;
- shevaga oid so'zlar xatosi.
- jodiy yozma ish – matn tushunchasi

Keling, barcha to'xtalib o'tgan xatolar ustida qanday metodik yordam zarurligini navbati bilan ko'rib chiqamiz.

1. Harflarni tashlab ketilishi;

- bu xatoni tuzatish uchun o'quvchilarga 8-10 tadan so'zlar yozilgan tarqatmalar tarqatiladi. So'zlarda harflar tushib qolinadi. nuqtalar o'rniga kerakli harfni qo'yib yozib berishadi. (go'sh..., do's..., daroma...)

2. Jarangli-jarangsizni almashtirish

- o'quvchilarga jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni yod oldirish va 8 ta jaranglining 8 ta jarangsiz jufti borligini misollar asosida tushuntirib berish;

- o'quvchilarga lug'at diktantdan foydalanib diktant yozdirish;

- tuz –tus, dars-darz kabi soʻzlardan misollar keltirishi va maʼnosini tushuntiib berish topshirigʻini berish

3. Qoʻshimchalar variantligi:

Bir qoʻshimcha turli koʻrinishga ega boʻlishi mumkin. Masalan, joʻnalish kelishigi koʻrinishlari: -ga,-ka,-gʻa,-qa,-a; chiqissh kelishigi koʻrinishlari: -dan, -din. Ular qoʻshimchani variantini tanlash - nutqiy madaniyat belgisidir.

Quyidagi jadval asosida tushuntirish orqali nutqiy vaziyatlarda qoʻshimchalar maʼnodoshligi ham kuzatiladi. Bunday holda bir necha kelishik shakllari oʻzaro sinonim boʻladi.

Joʻnalish kelishigi	Chiqish kelishigi va tushum kelishigi
kelganiga xursand boʻldi	kelganidan xursand boʻldi
gapingizga tushunmadim	gapingizni tushunmadim

4.Boʻgin koʻchirish xatosi.

Boʻgin koʻchirishda ham oʻquvchilar talaffuzi natijasida notoʻgʻri boʻgʻinga ajratadilar.Masalan:

Xato yozilgan soʻzlar	Toʻgʻri yozilgan soʻzlar
Den-giz	De-ngiz
o-nam	onam

Bosh harflarni xato yozish.

Oʻquvchilar bosh harflarni yozish uchun quyidagi jadval asosida nazariy va amaliy tushuncha beriladi.

Turdosh ot	Atoqli ot
Bola ona uchun aziz	Aziz mening eng yaqin doʻstim
Sportchilarimizni jahon taniydi	Jahongir kelajakda zoʻr jurnalist boʻladi
Vatanga sodiq inson haqiqiy qahramon	Abdulla Oripov Oʻzbekiston Respublika Qahramoni

5.Shevaga oid soʻzlar xatosi.

Oʻquvchilarga “Izlab top”,yoki “Ajratib ol” deb nomlanib adabiy va shevaga oid soʻzlarni aralash holda beriladi ;

Matn berilib, matn ichidan shevaga oid soʻzlarni toʻgʻrilab qoʻyib ketish va fonetik, leksik xususiyatidan kelib chiqib, qaysi hududlarda qoʻllanishini aniqlash;

Masalan: 1. Shashma-shashma, qo'rquvdirgan jeri jo'q, qani, munday uzatchi...(Murod Mansur). Qashqadaryo, Surxondaryo shevalariga doir bo'lib, jeri jo'q- yeri yo'q, shashma-shoshma, munday-bunday

6. Ijodiy yozma ish – matn tushunchasi: rasm asosida, hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa-buyum, voqea-hodisa tasviri.

Quyidagi rasm jadvaldagi metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu jadvalda yuqorida aytib o'tgan metodimiz asosida o'quvchilar matn yaratadi. Matn yaratish orqali o'quvchida grammatik, uslubiy va leksik bilimlar shakllanadi.

Kelishik qo'shimchalari uslubiyati bo'yicha gap tuzish, kelishik qo'shimchalarini ko'makchilar bilan almashtirish va farqini tushuntirish.

Masalan:

1. *Uzum yeng – uzumni yeng- uzumdan yeng.*

2. *O'quvchilar daraxtlarni sug'orish uchun maktabga ketishdi. Maktab tomon ketishdi*

Bu usulning qulayligi shundaki, o'quvchi ustozni aytayotgan so'zni eshitadi va rasm orqali ko'rib turgan kalitlardan foydalanib matn yaratadi. Sinfdagi barcha o'quvchilar bilan bir vaqtning ustida ishlash uchun qulay. Bolalarning tilni ongli o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida fonetika, leksika va grammatikaga doir nazariy bilimlar o'rgatiladi. Bular zamirida bolalarda og'zaki va yozma nutq malakalari shakllantiriladi. Tildan o'zlashtiriladigan bilimlar, hosil qilinadigan malakalarning barchasi o'quvchilarda nutq va nutq madaniyatini taraqqiy ettirishga xizmat qiladi.



Xulosa shuki, har bir o'qituvchi, avvalo, dars jarayonida o'quvchini adabiy talaffuzga o'rgatib, muntazam o'quvchilarni ko'proq badiiy kitoblarni mutolaa qilishga o'rgatsa, o'qigan badiiy kitobni qayta hikoya qilishni, ularni sahnalashtirish, she'rni yod oldirish o'qituvchilarga katta mahorat va mas'uliyat yuklaydi. O'quvchida og'zaki nutqi va eslash xotirasi, lug'atining boyishiga hamda nutqning grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Biz yuqorida aytgan kamchiliklarning oldi olinadi. Badiiy asarlarni o'quvchi o'qish bilan birga asar qahramonlarining qiyofasini chiroyli qilib tasvirlash orqali o'quvchining og'zaki nutqi va shevaga oid so'zlarning ma'nosini ham eslab qolishga yordam beradi. Bolalar hech qiynalmay asar yuzasidan berilgan savollarga mustaqil javob topib, erkin fikrlashga chorlaydi.

Ona tili va adabiyot fanidan topshiriqlari tuzishda – o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ona tili va adabiyot sohasida bo'layotgan yangiliklarga, ongli

yondashish, Vatanimizda ona tili va adabiyot fanlarini rivojlantirishga hissa qo'shayotgan o'zbek olimlarining ish faoliyatlari bilan tanishtirish, o'zligini anglash, Vatanga mehrli, sadoqatli bo'lishga tayyorlashdan iboratdir. Ijodiy topshiriqlar esa, o'quvchilarning fanga qiziqishlarini, mavzu doirasida chuqurroq fikr yuritish, mantiqiy mushohada etish kabilarni ta'min etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" asari , Toshkent " O'zbekiston" 2017-yil, 45-bet
2. F.Kamol."O'zbek orfografiyasi haqida " Toshkent 1957
3. N.M.Mahmudov,A.Sh.Sobirov,Y.R.Odilov, G.h. Ziyodullayeva Ona tili (10-sinf darsligi) 2017- yil



TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

GEOGRAFIYA TA'LIMINI TASHKIL ETISH USULLARI

Esongul Nazaraliyeva,

Respublika ta'lim markazi

Standart va baholash bo'limi metodisti

Annotatsiya

Ushbu maqolada geografiya fanini zamon talablari darajasida o'qitish, dars sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarda qiziqish uyg'otish, har bir o'qituvchi oldida turgan muhim vazifalar, darsni rejalashtirishda darslarda uchrashi mumkin bo'lgan pedagogik muammolar to'g'risida fikr yuritilgan, amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar

Dars, darsni rejalashtirish, pedagogik muammo, mantiqiy fikrlash, "O'rgan-o'rgat" tizimi, "Easy Quizzi", "My test" dasturlari.



Dars – ta'lim berishning an'anaviy shaklidir. Har bir o'qituvchi o'z darslarini tashkil etish jarayonini mukammal rejalashtirishi lozim. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, sinfning o'zida tarkib topgan pedagogik-psixologik vaziyat hisobga olinishi lozim. Shu sababli dars jarayonlarini rejalashtirishda har bir sinfning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, turli metodlar yig'indisidan foydalanishga harakat qilish lozim.

Darsni rejalashtirishda darslarda uchrashi mumkin bo'lgan pedagogik muammolarni avvaldan, ko'ra bilish o'qituvchi uchun birinchi navbatda lozim bo'lgan pedagogik xususiyatdir. Darslarni rejalashtirishda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan shunday holatlarni oldindan ko'ra bilish muhim ahamiyatga ega. Masalan, 5-sinfda "Havo harorati va bosimi" mavzusini o'tishda haroratning yuqoriga ko'tarilgan sari pasayishini, o'rtacha haroratni hisoblay olish ko'nikmalarini shakllantirish bir oz murakkablik tug'diradi. *(Buning sababi hali o'quvchilarda matematik bilimlar to'liq shakllanmagan bo'ladi)*

Shuning uchun o'quvchilarda bu ko'nikmani shakllantirishni amaliy ishlar tarzida, soda arifmetik hisoblashlar orqali, grafik tasvir holatida tushuntirishga harakat qilish lozim.

Darsda uchrashi mumkin bo'lgan muammoli pedagogik vaziyatlarga misollar:

O'quvchi mavzu ichidagi asosiy tushunchalarni ajrata olmasligi

Odatda bu muammo 5-6- sinflarda yuzaga keladi

O'quvchilarni darslik bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish zarur

Mantiqiy fikrlash talab qiladigan, vaziyatlarda ikkilanish, noto'g'ri qaror qabul qilish

Bu muammo barcha sinflarda uchrashi mumkin

O'quvchilar bilan tizimli shunday topshiriqlar berish orqali, o'qituvchi yordamida shakllantiriladi

Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish qiyinligi, vositalarning yetishmasligi

Bunday muammoning vujudga kelishiga sabab, o'quvchilarda yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tasavvurning to'liq shakllanmaganligi

O'qituvchi har bir mavzu uchun kerakli ko'rgazmalar bankini yaratishi lozim

O'quvchilarda bilimlarning shakllanish jarayonini yakunga yetmay qolishi

O'qituvchi sinflar kesimida har doim, o'zlashtirilgan bilimlar monitoringini amalga oshirib borishi, shu asosida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirib borishi lozim

Albatta bu muammolar qatori har bir o'qituvchida har xil ko'rinishda bo'ladi, lekin ularni birlashtirib turadigan umumiylik mavjud. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bunday muammolarni hal qilishda quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

- Darslik bilan ishlash ko'nikmasini 5-sinfdanoq shakllantirishga harakat qilish. Buning uchun matnda ajratib ko'rsatilgan iboralar bilan ishlashni tashkil etish, darslikda berilgan xaritalardan mustaqil ishlash orqali matndagi qo'shimcha ma'lumotlarni nazardan qochirmaslikka o'rgatish, darslik asosida mustaqil topshiriqlar tuzishga o'rgatish lozim.
- O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun javobi darslikda to'g'ridan to'g'ri berilgan, yoki bir hisoblash yo'li bilan ishlanadigan topshiriqlarni bermaslikka harakat qilinadi. Berilgan mustaqil ishlar, topshiriqlarni bajarish uchun qo'shimcha ma'lumotni (*Albatta darslikda mavjudlarini*) o'quvchi o'zi mustaqil topa oladigan tarzda berishga harakat qilish kerak. (*Masalan, 5-sinfda havo bosimi tushunchasini mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqni berish mumkin: Maktab binosining balandligi 10 metr. Agar yer yuzasida bosim 750 mm simob ustuniga teng bo'lsa, maktab tepasidagi bosimni toping.*)
- O'quvchi olgan bilimlarini hayotdagi nostandart vaziyatlarda qo'llay olishi lozim. Ta'limning asl mohiyati ham shunda. Shu sababli bunday muammolar yuzaga kelganda ularni birinchi navbatda hal qilishga harakat qilinadi. Amaliy topshiriqlar bunday muammolarni bartaraf etishning eng qulay usulidir. Ammo shuni unutmaslik kerakki bunday topshiriqlarni berishda iloji boricha har bir o'quvchiga individual yondashuv talab etiladi. O'quvchining yosh, psixologik, hatto jismoniy imkoniyatlari inobatga olinadi. (*Bir sinf ichida ham bu omillar e'tiborga olinadi*) Tabaqalashtirilgan topshiriqlar tizimini qo'llash yaxshi samara beradi. (*Bir topshiriq murakkablik darajasiga ko'ra, turli darajada, shaklda bo'ladi. O'quvchi o'z imkoniyatlari darajasidagi topshiriqni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.*)
- Bilimlarni ko'nikma va malakalarga aylanishi, ba'zi bilimlarni to'liq egallash jarayoni bir sinf doirasida tugamay ta'limning keying bosqichlarida ham davom etishi mumkin. (*Masalan, daryo tushunchasi bilan o'quvchi 2-4- sinflarda tanishadi, 5-sinfda bu tushunchani bilim darajasida o'zlashtiradi, 6-10- sinflarda ham bu jarayon to'xtab qolmay uzluksiz davom etadi.*)

Shu sababli o'qituvchi oquvchilarining bilim darajasini monitoringini uzluksiz olib borishi lozim. Bu juda katta hajmdagi ish, shu sababli o'qituvchi o'z sharoitidan kelib chiqib o'zi uchun maqbul yo'lni tanlashi lozim. Bu ishni amalga oshirish uchun kompyuter tizimlaridan ko'proq foydalanish, ma'lumotlar bazasi yaratish tezkor nazorat usullari, ularning natijalarini tez olish mumkin bo'lgan kompyuter dasturlaridan foydalanish lozim. (*Masalan, "Easy Quizzi", "My test"*)

O'quvchilar bilan individual shug'ullanish sinfdagi ham kuchli, ham bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning optimal rivojlanishini ta'minlaydigan o'qitishning uslub va didatik vositalarini tanlashni nazarda tutadi. Darsni bunday tashkil qilish uchun o'quvchining o'quv – biluv imkoniyatlarini aniqlash kerak.



Individual o'qitishni amalga oshirish yo'llaridan biri – tabaqalashtirilgan individual topshiriqlar berishdir. Bu topshiriqlar chuqurligi va murakkablik darajasi bilan bir – biridan farq qiladi. *Bu topshiriqlarga kitob bilan ishlash uchun savollar, har xil ijodiy va maxsus uy ishlarini kiritish mumkin.*

Individual topshiriqlar darslikdagi asosiy topshiriqlardan o'zining izchilligi, oddiydan murakkabga qarab tadrijiy rivojlanishi, oddiy qayta takrorlashdan ijodiy ishga o'tishi bilan farq qiladi.

Masalan, bilimlarni egallab ulgurmaydigan o'quvchilarga quyidagi tizimga asoslangan topshiriqlar berish lozim:

- yechim va masalalarning tayyor namunalarini o'rganib, masalalar yechish;
- masala, amaliy ish yoki mashqni algoritmik ko'rsatmalar yordamida yechish
- har xil nazariy ma'lumotlar bilan tanishib, savollarga javob berish;
- solishtirish, taqqoslash, umumlashtirish va boshqalar.

O'quvchilarda o'zligini anglash, mustaqil fikr va erkinlikni namoyon qilishga imkon yaratish o'zlashtirilgan axborotlarni tahlil qilish, mustaqil bilim olish ko'nikmasini shakllantirish mustaqil faoliyat ko'rsatishini kuchaytiruvchi, topshiriqlarni bajarishga ma'suliyatli yondashuv jarayonini qaror toptirish, o'z-o'zini rivojlantirish imkonini beruvchi o'quv topshiriqlari tizimini yaratish. Jumladan,

Uyga vazifasi fikrlashga undovchi

- O'z qiziqishlari, qobiliyat va iqtidorlaridan kelib chiqib ta'lim berish.
- Nazorat va baholashning qulay, maqbul variantini vujudga keltirish.

Yoshga mos!!

Yosh taraqqiyotining turli bosqichlarida o'quv – biluv jarayoni dinamikasini hisobga olish.

Individual +jamoat tarzida bajarish.

O'quvchi o'zini qiziqitiradigan, yechishga kuchi yetadigan topshiriqlarni aynan o'zi tanlay olishi kerak.

O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlardan nostandart hayotiy vaziyatlarda mohirlik bilan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

Ish faoliyati davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xos, tizimini yaratib olsa, o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarni albatta amalga oshirish mumkin. *(Bu tizim o'z ichiga butun ta'lim jarayonini qamrab olishi, fanlararo bog'lanishni va hattoki hududiy mentalitetni ham nazardan chetda qoldirmasligi lozim).*

Geografiya fanini zamon talablari darajasida o'qitish, dars sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarda qiziqish uyg'otish har bir o'qituvchi oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. O'z faoliyati davomida mas'uliyat bilan, ijodiy yondashgan holda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda fanning o'qitilish jarayonini takomillashtirishga harakat qilish lozim. Geografiya fanini o'qitish jarayonida shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustaqil fikr yuritish, o'z ustida ishlash, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish kabi xislatlarning ham shakllanishiga zamin yaratish lozim.

Loyihaning maqsadi: Maktabda, sinfda o'quvchilarni ahil jamoaga jipslashtirish va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, o'quvchilarning talab va qiziqishlarini inobatga olib, erkin fikrlovchi o'quvchi shaxsini kamol toptirish, o'quvchilarga kasbni tog'ri tanlashda ko'maklashish. Har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishini diagnostik usulda aniqlash, "O'rgan-o'rgat" tizimini tashkil etishda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish. O'quvchilar bilimi samaradorligini oshirish va mavjud bo'shliqlarni aniqlab borish, aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish tizimini ishlab chiqish.


Loyihani amalga oshirish shakli:

1. Tayyorgarlik bosqichi-bu bosqichda sinflar va mavzular kesimida testlar banki shakllantiriladi. Kerakli o'quv qo'llanmalari, dasturiy ta'minot yo'lga qo'yiladi.

2. Jamoalarni shakllantirish usullari. Jamoalarni shakllantirishning eng qulay usuli bu tizimli testlardan foydalanishdir. Shu maqsadda "Easy Quizzi" dasturi yordamida darslikdagi har bir mavzu uchun testlar banki yaratildi. *(Bu testlar banki bir vaqtning o'zida iqtidorlilarni saralash, o'quvchilarning bilim samaradorligini aniqlash, bo'shliqlar hajmini aniqlash va ularni to'ldirishda foydalanish kabi bir nechta vazifani bajarishi mumkin.)*

3. Turlarni o'tkazish tartibi.


a) 1-tur sinflar ichida amalga oshiriladi, bunda fan bo'yicha sinfning bilim darajasi, iqtidorli o'quvchilar aniqlab olinadi. Testlarga qatnashish imkoniyati hamma o'quvchilarda bir xil, tenglik tamoyiliga asoslanadi. Sinf jamoasi-dinamik jamoa, yani uning tarkibi har oyda o'tkazilib boriladigan testlar natijasiga ko'ra shakllantirib boriladi. Imtiyoz sifatida nazorat ishigacha bo'lgan testlardan eng ko'p ball to'plagan o'quvchilarni nazorat ishini bajarishdan ozod qilish mumkin. *(Albatta bunda o'quvchi DTS talablarini bajara olganligini inobatga olinadi. O'quvchi o'z hohishiga ko'ra nazorat ishini bajarishi ham mumkin.)*



Tur natijalariga ko'ra eng yuqori ball to'plagan 5 ta o'quvchi sinf jamoasi sifatida shakllantiriladi.


To'plagan ballar asosida sardor saylanadi. (*Sinf jamoasi tarkibi o'zgaruvchan tarkib hisoblanadi. Har oydagi test natijalariga ko'ra jamoa tarkibi o'zgarib turadi. Uzoq vaqt jamoa tarkibida o'z o'rnini saqlab qola olgan o'quvchilar rag'batlantirilib boriladi. Sinfning qolgan o'quvchilarida har doim o'z bilimini namoyon qilib, test natijalariga ko'ra sinf jamoasini a'zosi bo'la olish imkoniyati saqlanib qoladi.*) (1-shakl)

b) 2-tur parallel sinf jamoalari orasida o'tkaziladi. Ixtiyoriy tanlangan test topshiriqlari yordamida sinf jamoalarining qaysi biri kuchli ekanligi aniqlanadi. 2-tur natijalariga ko'ra 5-sinflarning umumiy jamoasi shakllantiriladi. (*Umumiy sinf jamoasi 2 ta sardor va eng yuqori ball to'plagan 3 ta o'quvchidan iborat bo'ladi. Sardorlardan eng yuqori ball to'plagan umumiy jamoa sardori hisoblanadi.*) (2-shakl)



Shakl №2.

Umumiy sinf jamoasini shakllantirish



Shakl №3.

Maktab jamoasini shakllantirish

c) 3-tur 5-9 va 10-sinflarning umumiy jamoalari orasida o'tkaziladi. Tur natijalariga ko'ra maktabning eng kuchli jamoasi aniqlanadi. (*Eng zo'r jamoani aniqlashda jamoa a'zolari to'plagan umumiy ball yoki o'rtacha ko'rsatkich e'tiborga olinadi*)

d) Barcha tur natijalariga ko'ra eng ko'p ball to'plagan 5 ta o'quvchi (*Har bir sinf jamoalaridan bir o'quvchidan*) aniqlanadi. Ulardan maktabning umumiy jamoasi shakllantiriladi. (3-shakl)

Turlarning davriyligi:

1-tur. Har oyda 1 marta o'tkaziladi

2-tur. Har chorak oxirida 1 marta o'tkaziladi

3-tur. Yil yakunida 1 marta o'tkaziladi

Turlarni o'tkazish shartlari:

1. Jamoalar tarkibining barcha turlar natijalariga ko'ra doimiy o'zgarib turishi asosiy shart hisoblanadi.

2. O'quvchilarga ortiqcha yuklama tushmasligi uchun, beriladigan topshiriqlar darslik va xaritalar asosida bo'lishi shart.

3. Har bir tur ichida nazoratlar natijasi tahlil qilinib, bo'shliqlar hajmi aniqlanadi va bo'shliqlarni to'ldirish chora – tadbirlari ishlab chiqiladi.

Loyiha istiqbollari: Maktab jamoasi to'liq shakllantirilgandan so'ng, maktab jamoalari orasida yoki hududiy shaklda musobaqalar o'tkazilishi mumkin.

Keyingi turlarda sinflar umumiy jamoalari o'rtasida test olish orqali maktabning eng zo'r sinf jamoasi aniqlanadi. Topshiriqlar har bir sinf uchun alohida tuziladi, olingan ballar yig'indisi yoki o'rtacha ball hisobga olinadi.

Yil yakunida barcha turlar natijalari tahliliga ko'ra maktabning eng yaxshi 5 nafar o'quvchisi aniqlanadi.

Agar siz mana shu tizimni mukammal shakllantira olsangiz iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ular bilan ishlash, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va to'ldirish, o'quvchilaringizni fanga qiziqtirish, darslarda sog'lom raqobat tizimini vujudga keltirish kabi vazifalarni a'lo darajada uddalagan bo'lasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Ishmuhamedov R.J va b.q "Ta'limda innovatsion texnologiyalar".T.:2008.
2. P.G'ulomov, M.Avezov. 5-sinf "Geografiya" darsligi. Toshkent "Mitti yulduz" 2020.
3. A.Soatov, R.Qurbonniyozov, M. Mirakmalov, E.Nazaraliyeva. 6-sinf "Geografiya" O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent "Tafakkur" 2013.
4. M. Pardayeva va b. "Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish" "Tabiiy fanlar" o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. BAKTRIYA PRESS T. 2021.
5. <https://infourok.ru/> (o'qituvchilar uchun metodik yordam)



ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

EFFECTS OF DIGITAL GAMES ON SCHOOLCHILDREN'S SECOND LANGUAGE VOCABULARY LEARNING

Surayyo Abduazimova,

English teacher, School № 9, Yangier city,
Sirdarya region.

Annotation

This article reveals new approaches to foreign language teaching. Nowadays due to the attention towards the field of education our youth's world view is becoming clear and wide. Every lesson should be unforgettable event and new invention in pupils' life. It requires from teachers the great ability, the skills of reading other's mind and directing them to the objectives.

Key words

Educational technologies, Classroom management, foreign language, teaching, pronunciation, solutions, challenges.



Annotatsiya

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishning yangi yondashuvlari ochib berilgan. Hozirgi kunda ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor tufayli yoshlarimizning dunyoqarashi ravshan va keng bo'lib bormoqda. Har bir dars unutilmas voqea va o'quvchilar hayotida yangi ixtiro bo'lishi kerak. Bu o'qituvchilardan katta qobiliyatni, boshqalar fikrini o'qish va ularni maqsadlarga yo'naltirish ko'nikmalarini talab qiladi.

Kalit so'zlar

Ta'lim texnologiyalari, sinf boshqaruvi, chet tili, o'qitish, talaffuz, yechimlar, muammolar.

The significance of information technologies in any field is increasing considerably in the 21st century and careful usage of them is leading to great achievements. Moreover, personal computers are serving as a source of great entertainment as people use them to play games, watch movies, surf the internet and communicate with others on social networks. Information technologies have become an inseparable part of the field of education in recent decades since the students can access necessary information from all over the world straightforwardly by the help of World Wide Web. Besides that, there are many applications such as vocabulary-teaching, grammar-teaching and quiz-based ones that assist students to learn a second language efficiently. However, almost all of these educational applications are for adults and schoolchildren cannot use them in their studies.

The effective way to employ computers on children's education is to unite entertainment and education in digital video games. Reinhardt and Sykes (2012) divided language learning through digital video games into two forms, namely game-based and game-enhanced. Game-based learning includes games that consist of educational contents only and the main purpose of them is to teach the language. Game-enhanced learning is about mission completion games that require knowing the language to understand the instructions and to do the tasks more effectively. In this type of games, the language plays a secondary role.

This study will attempt to identify the effect of game-based learning on pupils' English vocabulary by experimenting two schoolchildren whom one of them will be taught by digital video games while the other will be taught with traditional paper-based way. The outcomes from the paper will likely to answer the following questions:

- 1) How do digital games affect pupils' motivation to learn new vocabulary?
- 2) How do digital games affect pupils' knowledge of new vocabulary?

3) How do digital games affect pupils' spelling of new vocabulary?

Literature review

Many scholars have mentioned that game is a normal part of children's life and they give diverse descriptions connected to game. Donmus (2010) claims that various outcomes of plays on characters' development. In today's developing period, changing education system is very rapid, it can be said that the games in every age group can be effective by influencing them properly during the progressive period. Educational games allow students to revise previous knowledge by repeating it over and over again. Games are software gadget fun that helps students learn problem-solving topics and develop problem-solving skills using their desire and passion to play.

Ludwig Wittgenstein (1953) was the first academic philosopher to talk about meaning of the word game. Wittgenstein explained that the games, which include play, rules, competition are not described what games are. According to him, people can join the game to different human activities that can only be called family similarities to each other. Piaget outlined games as familiarization process for external world and put the children into adjustment structure and this terms increase on kid's development.

According to Juul (2003) a game is a rule centered proper system with flexible and measureable results, where various results are given diverse ideas. He proposed six limitations of game descriptions.

- 1) Rules (games are based on rules)
- 2) Results (The games have different, quantitative results)
- 3) Rate (different potential results of the game are given different rates, some positive, some negative.)
- 4) Effort (player participates in order to effect the results)
- 5) Fitment (if the players achieve a positive result, they will be victorious and happy, if there is a negative result, the players will depend on the outcome of the game in the sense that they will lose and be unhappy.)
- 6) Agreed results (the same game can be played with or without real-life results)

According to Verenikina, Harris and Lysaght (2003) theories the games divided into classical and modern. The significance of this theory includes the intellectual or effective advantages of play for children.

Groos argued that games improve children's physical and mental opportunities that feel themselves like adults. He measured that while the player performing as an adult's role or action we can call the game as a stimulate play, creative play or artistic play as well.

Gunawardhana and Palaniappan (2015) have claimed about the negative consequences of playing digital games. Games lead to some cause such as; muscle, eye diseases and skin problems. Besides, Andersen (2004) has mentioned that children who play brutal digital games



demonstrated of violent behaves, emotions and behaviors. Most of the children are self-confident and enthusiastic; they bring interesting information and puzzles to the classroom, which is described, in English words.

Learner's profile. To make conclusions that can be helpful for larger population, the subjects have been selected from an elementary grade. The first subject is a nine-year-old girl, who studies at the third grade in my class at school. Her name is Shukrona. Her native language is Uzbek and she practices Russian with her parents every evening. She tries to speak English with me. Her knowledge of English is average among her peers. She got her initial knowledge of English language at school from me at her age seven. She loves watching English for kids' videos and sometimes it is hard for her to understand them. She needs systematic instructions for better understanding the language. At school, she has two hours of English lessons a week. She wants to be a doctor and she is interested in language learning.

The second participant is also nine-year-old girl who is Shukrona's classmate. Her name is Aziza. She only speaks Uzbek and not very good at Russian. She has slightly higher than average knowledge of English. Her educational background is almost the same with Shukrona's. Aziza wants to be a guide for tourists.

Both young girls understand the importance of English for their future life and this gives them enough motivation to learn the language. There are several reasons that they have been chosen for the study. Firstly, based on my ten years of second language teaching experience, I consider that they can represent most of the pupils from elementary grades. Only a few parents in our region know English well so that they can help their child to study this language and Shukrona's and Aziza's parents are not exception. Therefore, most children as well as the subjects of the study are dependent to schoolteachers to learn the language. Secondly, they both have all necessary conditions for the study such as a personal computer, spare time to learn and their parents' permission and understanding of the study.

Research Design

There are many electronic applications and games for pupils to learn English vocabulary. However, it was challenging to find a suitable game for the experiment since the vocabulary suggested by the game needed to be at the level of English knowledge of the subjects. "Learn the word" game has been selected for the study and it contains words which are new for the subjects while at their level.

The study has been carried out within six days period. Shukrona was selected as the experimental subject while Aziza was the control subject. The experimental subject spent two hours a day (one hour at the morning and one hour at the evening) to play "Learn the word" game for five days from Monday to Friday. At the same time, the control subject was taught by the teacher the same words from the game at the ordinary classroom with the help of a board and notes. On Saturday, the two subjects took an identical quiz revising all the vocabulary from previous five days. Shukrona's parents helped to control her playing time.

The quiz is designed using different types of questions to test the subjects' full knowledge of the vocabulary.

Matching words with pictures	®	to test the meaning
Multiple choice questions		to test the meaning
Filling the missing letters	®	to test the spelling
Writing the word given meaning	®	to test the spelling and meaning
Filling the gap in the sentence	®	to test the spelling and meaning

Data collection. The first outcome of the study answers the question “How do the digital games affect pupils’ motivation to learn new vocabulary?” Neither of the subjects knew that it was a study so that their motivation level was not influenced by the fact that they were involved in a study. Data collection process for this part has started from the first day. Both subjects were observed carefully during the first five days. Aziza was on time for classes for the first four days and she was very focused on that days. Her interest decreased on the last two days and it was obvious from the fact that she came late on the fifth day and had not completed the home tasks on fourth and the fifth day as satisfactory as the previous days. On the other hand, Shukrona was keen to play the game and her motivation to learn new words has been stable throughout the experiment. Her parents claimed that she always asked them for time and she sat in front of the computer ten minutes before the arranged time waiting to start. The subjects have been interviewed at the end of the experiment asking their opinions about the methods of learning vocabulary. Interestingly, both of them stated that digital video game based learning is interesting for them. Moreover, to the question asking “Would you like to continue this method of vocabulary learning for one more week?”, Shukrona said she really want to continue, while Aziza said that it would be better if she takes a break for two or more days.

The second observation was about the effect of digital games on pupils’ learning new vocabulary. The quiz taken on the sixth day provided information on the subjects’ knowledge of covered new words in the last five days. Questions such as “matching the words with pictures”, “multiple choice questions” helped to identify the subject’s knowledge on the meaning of the new words. The experimental subject who learned vocabulary playing the game has scored 88 out of 100, while the control subject has scored 72 out of 100. Furthermore, Aziza has spent 7 minutes more than Shukrona to complete this part of the quiz. Taking into consideration the fact that Aziza does better than Shukrona in the classes, this outcome shows that digital game based learning is more effective than traditional learning for schoolchildren to learn new vocabulary.

Electronic document creators such as Microsoft Office Word have a feature of spelling check and correction and it makes it easier to write without mistakes. However, learners of English or other language as a second language using this feature excessively so they make many spelling



mistakes when they write with pen and paper. Knowing correct spelling of words is as important as knowing its meaning. Therefore, the spelling of the new words was checked in the third observation since Shukrona, the experimental subject, did not write any word by pen or pencil. By the help of questions such as "filling the missing letters" and "writing the word given meaning", the two subjects were tested on how they remember the correct spelling of new vocabulary. Shukrona scored 69 out of 100, while Aziza made 91 out of 100. This result demonstrates that traditional paper-based teaching leads to decreased level of spelling mistakes.

Conclusion. Employing information technologies in studying can lead to great achievements in the field. However, children cannot use computers in an academically effective manner. The applications and programs are hard and boring for them to use. Most researchers claim that uniting entertainment and study together for kids can be efficient. The results of this study lead to several conclusions that are essential for second language acquisition of schoolchildren. Firstly, using information technologies in teaching positively influences pupils' motivation towards studying vocabulary. Since the motivation stands as a backbone for any achievement, including game-based teaching of vocabulary for pupils in curricula will be a wise idea for second language teachers. Secondly, due to the motivation and other factors, a pupil learns new vocabulary better with game-based method than with traditional paper-based method. Nevertheless, a pupil tends to make more mistakes in spelling of words when he or she learns through the game-based method. Since knowledge of the correct spelling of words plays a crucial role to become a professional in any field, one cannot ignore this drawback of learning by digital games. To overcome this problem and to achieve higher success in teaching, it is recommended for second language teachers to use traditional method at the beginning of the lesson and move to game-based learning afterwards. This manner solves the spelling problem and keeps pupils motivated at the same time.

Further implications. An effective game-based learning environment helps students choose any actions. Even if players make some mistakes in pronouncing the words, they would learn through the game-based language learning. Sometimes, game environments can lead to failure, so keep the player do own actions until they get it right way so they must know how to manage settings. Piaget outlined that the games as familiarization process for world and put the children into adaptation atmosphere and this terms increase on kid's development.

References

1. Anderson, J. (1980). "Cognitive psychology and its implications" New York: W.H. Freeman
2. Ashraf, H., Motlagh, F. G., & Salami, M. (2014). "The impact of online games on learning English vocabulary by Iranian (low-intermediate) EFL children." *Procedia-Social and Behavioural Sciences*, 98, 286-291. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.03.418>
3. Bakhsh, S. A. (2016). "Using games as a tool in teaching vocabulary to young children. *English " Language Teaching*, 9(7), 120.
4. Donmus, V. (2010). "The use of social networks in educational computer-game based foreign language learning". *Procedia Social and Behavioral Sciences*, 9, 1497–1503.
5. Gee, J. P. (2009). "Deep learning properties of good digital games: How far can they go?"
6. H. Reinders (et all.) "Digital Games in Language Learning and Teaching" (pp. 32-49). New York, NY: Palgrave Macmillan.
7. Hayo Reinders "Digital Games and Second Language Learning" https://www.researchgate.net/profile/Hayo_Reinders
8. Laleh Aghlara (MA)^a * and Nasrin Hadidi Tamjid (PhD)^b "The effect of digital games on Iranian children vocabulary retention in foreign language acquisition"
9. Peterson, M. (2011). "Digital gaming and second language development: Japanese learners interactions in a MMORPG. *Digital Culture & Education*"
10. Pulasthi Gunawardhana, Mohd Farizul Mat Ghani, "Psychology of Digital Games and Its Effects to Its Users" https://www.researchgate.net/publication/286400906_Psychology_of_Digital_Games_and_Its_Effects_to_Its_Users
11. Pauline Lysaght "Child's play: computer games, theories of play and children's development" https://www.researchgate.net/publication/234778099_Child's_play_computer_games_theories_of_play_and_children's_development
12. Reinhardt, J., & Sykes, J. M. (2012). "Conceptualizing digital game-mediated L2 learning and pedagogy": Game enhanced and game-based research and practice.
13. U. Ritterfeld, M. Cody, & P. Vorderer (Eds.), "Serious games: Mechanisms and effects" (pp. 65–80). New York: Routledge



TA'LIM SIFATI VA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

BAHOLASHNING INNOVATSION USULLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Farrux Abdullayev,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti.

Annotatsiya

Maqolada baholashning innovatsion usullari va zamonaviy yondashuvlar, baholashning o'qitishdagi ahamiyati, baholashda o'qituvchining va o'quvchining o'rne, baholash jarayonlarini tizimli amalga oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar

Baholash, summativ baholash, formativ baholash, baholash topshirishlari, baholash mezonlari, baholash usullari va yondashuvlari, XXI asr ko'nikmalari, Blum taksanomiyasi.



Hozirgi kunda o'qitish jarayoniga tatbiq etilayotgan Milliy o'quv dasturida (MO'D) ta'lim mazmuni yangilanib, o'quvchi, o'qituvchi, metodist, ota-onalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va rolga yangicha qarashlar shakllantirmoqda.

O'quv jarayonida qanday pedagogik usul va uslublar qo'llanilsa-da, asosiy maqsad - o'quvchilarning dastur materialini mazmunini o'zlashtirishi, mavzuga bo'lgan qiziqishlarining ortishi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishi. Darsda qo'llaniladigan usul va uslublar natijasida o'quvchi yakka holda, juftlikda va guruhda ishlashga o'rganadi, mustaqil fikrlaydi, izlanadi, tajriba o'tkazadi hamda olgan bilimlarini hayotda qo'llay oladigan shaxsga aylanadi.


Baholashning maqsadi ham o'qitishning asl natijalari bilan kutilganlarining mosligini aniqlashdir. Baholash natijasida, ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni esda saqlab qolish, tushunish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish, o'z bilimlariga tanqidiy baho, xulosalash va yakunda yangi g'oya yaratish darajalari aniqlanadi.

MO'D asosida o'quvchilarning ta'limiy natijalarini baholash va nazorat qilish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, quyida baholashning asosiy yondashuvlari va bu bo'yicha xalqaro tendensiyalar to'g'risida ayrim fikrlar keltirib o'tiladi.

Avvalambor, baholash va o'qitish alohida emasligini, baholash bu o'qitish jarayonining bir qismi ekanligi ta'kidlash lozim. Shuningdek, baholash faqat o'qish davrining natijalarini o'lchash uchun emas, balki o'quv yilining har kuni uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini yaxshilashda muhim hisoblanadi.

Milliy o'quv dasturining asosiy maqsadi XXI asr ko'nikmalariga ega, mustaqil, ijtimoiy faol, raqobatbardosh bitiruvchilarni yetishtirib chiqarish bo'lsa, baholash bu jarayonni haqiqatga aylantirishda muhim "kalit" vazifasini bajarishi qaysi etish kerak.

Agar baholash jarayonlari umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari, metodistlar va tegishli mutaxassislar tomonidan to'g'ri va samarali qo'llanilsa, o'quvchilarning natijalarini yaxshilashda, ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirishda, xalqaro baholash tadqiqotlarida (PISA, PIRLS, TIMSS va boshqalar) yuqori natija ko'rsatishga xizmat qiladi. Endi esa baholashdagi asosiy yondashuv va tendensiyalarga to'xtalib o'tsak.



Baholashning 3 ta yondashuvi mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning bilim olishiga katta hissa qo'shadi. [2]

Bu iboralar o'rnida quyidagilar qo'llanadi: diagnostik, shakllantiruvchi (formativ) va xulosalovchi (summativ) baholashlar.

1. O'rganish uchun baholash

O'rganish uchun baholash o'qituvchilarga o'quvchilarning bilimlari, tushunchalari va ko'nikmalari oid ma'lumot va dalillardan foydalanib, ularning ta'limini to'g'risida ma'lumot beradi. Ba'zan "formativ baholash" deb ataladi, odatda o'quvchilarning o'rganishi va tushunishini aniqlashtirish uchun o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Bunday baholash o'quvchilarning yutuqlarini yaxshilash uchun, o'qitish va o'quv faoliyatini o'zgartirish maqsadida o'qitish jarayonida doimiy ravishda o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan norasmiy baholash jarayoni. [1]

2. O'rganish sifatida baholash

O'rganish sifatida baholash o'quvchilar o'zlarining baholovchilari bo'lganda amalga oshiriladi. Talabalar o'z o'rganishlarini kuzatib boradilar, savollar berishadi va nima bilishlari va nima qilishlari mumkinligini va yangi o'rganish uchun baholashdan qanday foydalanishni hal qilish uchun bir qator strategiyalardan foydalanadilar.

1990-yillarda keng ko'lamlı tadqiqotlar o'rganish uchun (formativ) baholashning muhimligini ta'kidladi. [3, 4, 5] O'qituvchilar o'qitish va o'rganish jarayonining turli bosqichlarida diagnostika jarayonlari, joriy baholash va fikr-mulohazalarni shakllantirishda o'rganish uchun baholashdan foydalanganlar. Baholash jarayonida o'quvchining rolini belgilash uchun formativ baholash o'rganish uchun baholash va o'rganish sifatida baholashga ajratilgan.

3. O'rganishni baholash


O'rganishni baholash o'qituvchilarga kutilayotgan natijalar va ta'lim standartlariga muvofiq yutuqlarni baholash uchun yordam beradi. [3, 4, 5] Ba'zan "summativ baholash" deb ataladi, u ta'lim jarayonining ma'lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki chorak, o'quv yili oxiri, ta'limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdan oldin) ta'lim oluvchining ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini o'lchash jarayoni.

Summativ baholash o'quv davri oxirida o'tkaziladi va uning maqsadi o'qitishning qanchalik samarali bo'lganligini ko'rsatishdir. [1]

MO'D asosida o'quvchilarning ta'limiy natijalarini baholash va nazorat qilishda jahonda baholash bo'yicha tendensiyaga aylangan quyidagi jihatlariga ham e'tibor qaratish lozim.

Shulardan biri, kontentni baholashga asoslangan yondashuvdan ko'nikmani baholashga asoslangan yondashuvga o'tish. Ya'ni asosiy maqsad o'quvchi qancha hajmdagi materialni o'zlashtirganligi emas, olgan ma'lumotlari asosida o'quvchida shakllangan ko'nikmalarni baholash hisoblanadi.

Milliy o'quv dasturida baholash komponenti quyidagicha tuzilma bo'yicha ishlab chiqish maqsadga muvofiq. (1-rasm).



1-rasm. Baholash komponenti ishlab chiqish tuzilmasi

MO'D asosida ta'lim jarayonini tashkil etish orqali o'quvchilarda XXI asrning asosiy ko'nikmalari shakllantiriladi. Shu maqsadda XXI asr ko'nikmalari tayanch kompetensiyalarining mazmuniga singdirildi. O'z navbatida tayanch kompetensiyalari fanlarni o'qitishda fanlarga oid kompetensiyalar orqali shakllantiriladi. Fanlarga oid kompetensiyalarni baholash uchun ularning mazmuni xususiy ko'nikmalarga ajratildi. Ular asosida har bir sinf bitiruvchisi uchun malaka talablari belgilandi.

Baholash komponentining vazifasi aynan shu malaka talablariga qay darajada erishganligini oraliq va yakuniy baholashdan iborat. Shu sababli, mazkur strukturada Blum taksonomiyasidan foydalanib formativ va summativ baholash uchun o'quv maqsadlari va baholash mezonlari ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Qolaversa, baholash nazariyasi va amaliyotida formativ baholash va summativ baholashning chegaralari ajratiladi. Bu uch xil ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin.

Bular:

1. o'quvchilarning choraklik va yillik baholarini aniqlash mexanizmini o'zgartirish;
- 2) formativ va summativ baholash uchun xususiy mezonlar ishlab chiqish;
- 3) formativ va summativ baholarni alohida-alohida shkalalar orqali baholash.

Navbatdagi yondashuv baholash o'quv maqsadlari va malaka talablariga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim. Bunda baholash uchun ishlab chiqilayotgan har bir mezon yoki baholash topshirig'i ma'lum o'quv maqsadlari va/yoki malaka talablariga qanchalik erishganligini o'lchashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Baholash instrumentlari(vositalari)ning fanlar xususiyatlaridan kelib chiqib eng samaralilari qo'llanilishi lozim. Masalan, yopiq test topshirig'i asosida baholash qaysidir fanda yaxshi samara bersa, boshqa fanda yuqori samara bermasigi mumkin. Aniq va tabiiy fanlarda masala yechish, loyiha ishi orqali baholash qulay bo'lsa, filologiya fanlarida og'zaki va yozma ishlar ko'proq samarali bo'lishi mumkin.

O'quv yili davomida o'quvchilarning olgan formativ baholariga norasmiy tus berish, ya'ni formativ baholar o'quvchilarning o'zlashtirishlari tendensiyalarini, ular ta'lim olishdagi kuchli va zaif jihatlarini aniqlash hamda ular ustida ishlash uchungina xizmat qilishini ta'minlash ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda baholash jarayoni yuqoridagi yondashuvlar asosida tashkil etilsa, o'lchanilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yoki kompetensiyani aniq o'lchash imkoniyati yaratiladi hamda baholashda qo'llanilayotgan metod va vositalar ham yuqori samaradorlikni ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. K.Jalilov. Baholash nazariyasi asoslari (testologiya, pedagogik o'lch.) – T.: Akademnashr, 2020
2. Approaches to assessment. (<https://short.link/tx7pkh>)
3. Earl, L. & Katz, S. (2006). Rethinking Classroom Assessment with Purpose in Mind.
4. Growing Success: Assessment, Evaluation and Reporting in Ontario's Schools. Ontario Ministry of Education (2014).
5. Stiggins, R. J. & Arter, J. A. & Chappuis, S. & Chappius, S. (2007). Classroom assessment for student learning - Doing it right. Doing it well. New Jersey: Pearson Education Inc.
6. Tomlinson, C. A. (2008). Learning to Love Assessment. Educational Leadership, 65, 8 - 13.



TA'LIM AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLASHTIRISH



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

KATTALAR TA'LIMINI TASHKIL QILISHDA MASOFAVIY TA'LIMNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mohinur Nimatova,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti
magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada kattalar ta'limini tashkil qilishda masofaviy ta'limning ahamiyati, turlari, afzalliklari, yutuq va kamchiliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar

Andragogika, kattalar ta'limi, ijodiy fikrlash, innovatsiya, masofaviy ta'lim.

Аннотация

В данной статье описаны важность, виды, преимущества, достоинства и недостатки дистанционного обучения в организации образования взрослых.

Ключевые слова

Андрагогика, образование взрослых, творческое мышление, инновации, дистанционное обучение.



Hozirgi davr insondan umrbod ta'lim olishni, ya'ni o'z hayotiy faoliyati davomida muntazam kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirib borishni taqozo etmoqda. Albatta, bu elektron-kompyuter tarmog'i hamda internet texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. Barchamizga ma'lumki, XXI asr zamonaviy texnologiyalar asri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda hayotimizni telefon, kompyuter va shunga o'xshagan vositalarsiz tasavvur eta olmaymiz. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim sifatini oshirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun hozirgi kunda yurtimizda masofaviy ta'lim yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunda ta'lim oluvchilarga telefon, kompyuter, noutbook, planshet asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, pandemiya davri barcha yoshdagi insonlarning AKT savodxonligini oshishiga sabab bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish yosh avlodga unchalik qiyinchilik tug'dirmasa-da, lekin katta yoshdagilarga bir oz qiyinchilik ham keltirib chiqardi. Shunga qaramasdan katta yoshdagi ta'lim oluvchilar uchun masofaviy o'qitish usuli qulayliklarni olib keldi. Chunki ularning qo'shimcha o'qib o'rganishida vaqt masalasi muammo bo'lib turardi. Masofaviy o'qish turi esa kattalarning vaqtini biroz bo'lsa ham tejashga xizmat qiladi. Demak, zamonaviy texnologiyalar har bir ta'lim oluvchini egallayotgan bilimlarini o'zi qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishga, hattoki, xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Kattalar ta'limi – bu shaxsning ijodiy rivojlanishining eng muhim sharti bo'lib, ularsiz jadal rivojlanayotgan dunyoda insonning samarali ishlashi mumkin emas. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida kattalarni ijodkorlik, aql-zakovat yo'nalishida tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Kattalar ta'limini osonlashtirish uchun masofaviy ta'limning ahamiyati juda kattadir.

Bugungi kunda har bir katta yoshli kishi masofadan turib o'qish va zarur ta'lim olish imkoniyatiga ega. Buning uchun mavjud ta'lim muassasalarida malaka oshirish yoki qayta tayyorlash bo'yicha onlayn kurslardan o'tish, oliy yoki o'rta ma'lumot olish imkoniyati yaratilgan.

Keling, avvalo, masofaviy o'qish tushunchasiga e'tiborimizni qaratsak, **masofaviy o'qitish (distant learning)** – o'quv jarayonining maqsadi, mazmuni, uslublari, o'qitish vositalari va texnologiyasi yordamida tinglovchi va o'qituvchilar masofadan turib interfaol muloqot qilish jarayonidir. Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion uslublar, o'qitish vositalari va shakllarini o'z ichiga olgan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim shaklidir.

Kattalar uchun masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular o'zlari oladigan ta'lim nima uchun kerakligini bilishadi, ya'ni ular o'rganish uchun ko'proq motivatsiyaga egadir. Ko'pchilik o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlaydi, lekin kerakli ta'lim darajasiga (oliy – bakalavr yoki magistratura) ega emas, ya'ni kattalar faqat o'zlariga haqiqatda kerak bo'lgan narsalarni o'rganishadi va o'quv jarayonining o'zi amaliy misollarga asoslanadi. Kattalar maktabni endigina tugatgan o'smirdan farqli o'laroq, ongli ravishda mutaxassislik, ta'lim shakli va o'quv tashkilotini tanlaydilar, o'zlariga qulay vaqtda bilim olish imkoniyatiga ega va qulay shaklda, o'zilar joylashgan joydan qat'iy nazar o'qib o'rganishlari mumkin.

Kattalar uchun masofaviy ta'limning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Moslashuvchanlik, o'quv materiallarini talaba uchun qulay vaqtda o'rganish qobiliyati;
- Foydalanish imkoniyati: internetga bepul kirish imkoniga ega bo'lgan har bir shaxs yashash joyi va joylashgan joyidan qat'i nazar, ta'lim olishi mumkin;
- Ochiqlik: har bir talaba o'zi uchun qulay bo'lgan bilim olish shaklini tanlashi mumkin (ma'ruzalarni tinglash yoki tomosha qilish, o'qish, uslubiy yoki o'quv adabiyotlarini tanlash). Ta'lim mashg'ulotlariga kirish hamma uchun ochiq;
- Faoliyat: Voyaga yetgan kishi ta'lim jarayonining muhimligini tushunadi. Bu esa masofaviy ta'lim salohiyatni ochib beradi, yangi imkoniyatlar beradi. Inson dunyoning istalgan nuqtasida yangi bilim olishi mumkin.

Ammo kattalarni o'qitishda masofaviy ta'limning salbiy tomonlari ham borligini yodimizdan chiqarmasligimiz lozim.

- AKT salohiyatining yetarli emasligi;
- Zamonaviy axborot vositalarining mavjud emasligi;
- Online darslardan qoniqmasligi;
- Muloqotning kamligi.

Kattalar uchun masofaviy ta'limning o'ziga xosligi quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi:

- Talaba o'zini o'zi tashkil etish va o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- o'quv jarayonini tashkil etish, asosan, shaxsiy kompyuter va zamonaviy internet texnologiyalari bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi.

Masofaviy o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Interaktiv texnologiyalar:

- Audio konferensiyalar;
- Videokonferensiyalar;
- Ish stolidagi videokonferensiyalar;
- Elektron konferensiyalar;
- Ovoz kommunikatsiyalari;
- Ikki tomonlama sputnik aloqa;
- Virtual borliq.



Nointeraktiv texnologiyalar:

- Bosib chiqarilgan materiallar;
- Audiokassetalar;
- Videokassetalar;
- Bir tomonlama sputnik aloqa;
- Televizion va radio ko'rsatuvlari; disketa va CD-ROM lar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalari hayotimizning bir qismiga aylanib bo'lgan. Shuningdek, masofaviy ta'lim sifatini oshishida ham ularning o'rni muhim ahamiyatga egadir. Zamonaviy axborot texnologiyalari tinglovchilarning mashg'ulotlar jarayoniga faol jalb qiladi. Bundan tashqari, tinglovchilar internet tarmog'idan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lib boradilar. Masofaviy ta'lim berish o'qituvchi-professorlarning ish faoliyatini yengillashtirish bilan bir qatorda, ularni o'z ustida ishlashiga, mustaqil izlanishiga, ijodkorlikka undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim samaradorligining oshishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, Sh.R.Mirzayeva, M.M.Qo'ziboyeva "Ta'lim texnologiyalari" Toshkent-2020
2. O'.M.Asqarova, M. A. Abdullayeva, M. Boltayeva "Andragogika" Namangan-2014.

Internet manbalari

1. https://tami.uz/matnga_qarang.php?id=232
2. <https://goaravetisyan.ru/uz/metody-i-tehnologii-distancionnogo-obucheniya-primeneniye/>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-distantsionnogo-obucheniya-vzroslyh-lyudey>
4. https://spravochnick.ru/pedagogika/osobennosti_distancionnogo_obucheniya_vzroslyh/





TA'LIM AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLASHTIRISH



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

ХАЛҚ ТА’ЛИМИ:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

РАЗВИТИЕ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ, ИНФОРМАЦИОННОЙ И МЕДИА-ГРАМОТНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Камила Халмуратова,

Магистрант научно-исследовательского
института имени А.Авлони

Аннотация

В статье раскрывается потенциал библиотек и библиотекарей для обучения школьников медийно-информационной грамотности, намечаются перспективы дальнейших исследований для улучшения сфер образования

Ключевые слова

Медиаобразование, медиаграмотность, информационная грамотность, учебная программаб критического мышления, умений полноценного восприятия, интерпретации, анализа и оценки медиатекстов.



Медиаобразование в XXI веке рассматривается как процесс развития личности с помощью и на материале средств массовой коммуникации (медиа) с целью формирования культуры общения с медиа, творческих, коммуникативных способностей, критического мышления, умений полноценного восприятия, интерпретации, анализа и оценки медиатекстов, обучения различным формам самовыражения при помощи медиатехники. А вот медиаграмотность помогает человеку активно использовать возможности информационного поля телевидения, радио, видео, кинематографа, прессы, Интернета, помогает ему лучше понять язык медиакультуры. Медиаграмотный человек обладает развитой способностью к восприятию, анализу, оценке и созданию медиатекстов, к пониманию социокультурного и политического контекста функционирования медиа в современном мире, кодовых и репрезентационных систем, используемых медиа; жизнь такого человека в обществе и мире связана с гражданской ответственностью. Также можно добавить, что информационная грамотность – это набор индивидуальных компетенций, необходимых человеку для идентификации, оценки и использования информации в максимально этичной, оперативной и эффективной форме в самых разных сферах общественной жизни, видах деятельности и профессиях. Она также позволяет личностям правильно пользоваться информационными и коммуникационными технологиями.

Медиаобразование можно разделить на следующие основные направления:

- медиаобразование будущих профессионалов в мире прессы, радио, телевидения, кино, видео и Интернета – журналистов, редакторов;
- медиаобразование будущих педагогов в университетах и педагогических институтах, в процессе повышения квалификации преподавателей вузов и школ на курсах по медиакультуре;
- медиаобразование как часть общего образования школьников и студентов, обучающихся в обычных школах, средних специальных учебных заведениях, вузах, которое, в свою очередь, может быть интегрированным с традиционными дисциплинами или автономным (специальным, факультативным, кружковым и т.д.);
- медиаобразование в учреждениях дополнительного образования и досуговых центрах (домах культуры, центрах внешкольной работы, эстетического и художественного воспитания, в клубах по месту жительства и т.д.);
- дистанционное медиаобразование школьников, студентов и взрослых с помощью прессы, телевидения, радио, видео, DVD, системы Интернет (здесь огромную роль играет медиакритика);
- самостоятельное/непрерывное медиаобразование (которое теоретически может осуществляться в течение всей жизни человека).

Цели исследования:

- 1) поиск способов интеграции идеи медиа и информационной грамотности и образования из учебной программы ЮНЕСКО и концепции информационной культуры личности;
- 2) разработка механизма адаптации учебной программы ЮНЕСКО к условиям конкретной выбранной страны Узбекистана;
- 3) раскрытие потенциала библиотекарей как профессиональной группы, способной вести обучение школьников медиа- и информационной грамотности, и основам информационной культуры.

Основным объектом (материалом) для исследования послужила сама учебная программа ЮНЕСКО. Одной из задач проведенного исследования было выявление достоинств и ограничений этой программы, анализ ее сильных и слабых сторон.

Как показал анализ, учебная программа ЮНЕСКО обладает важными достоинствами. В её создании участвовали ведущие специалисты по медиа и информационной грамотности из разных стран мира. Она подготовлена в духе преемственности с Грюнвальдской декларацией по медиаобразованию и Александрийской декларацией об информационной грамотности и образовании на протяжении всей жизни. Программа базируется на системном подходе к осмыслению различных видов грамотности: медиаграмотности, информационной грамотности, а также гражданской грамотности. Этот подход особенно наглядно представлен в модуле №1 «Гражданская позиция, свобода самовыражения и информации, доступ к информации, демократический дискурс и обучение на протяжении всей жизни».

Программа характеризуется универсальностью. Она рассчитана на различные уровни и формы обучения. В программе подчеркивается, что развивать медиа и информационную грамотность нужно в течение всей жизни, а не только в годы ученичества.

Программа имеет чёткую структуру. В ней представлены базовые компетенции преподавателей, описаны цели, методы и результаты преподавания по каждому тематическому модулю. Как отмечает в предисловии к данной программе заместитель Генерального директора ЮНЕСКО по коммуникации и информации, «программа имеет новаторский характер: во-первых, она опирается на современные тенденции конвергенции радио, телевидения, Интернета, газет, книг, электронных архивов и библиотек на общей платформе, и впервые представляет единый подход к медиа и информационную грамотности; во-вторых, она создана с учетом потребностей учителей для интеграции в официальную систему их подготовки».

Важное достоинство программы – ее ориентация на последующее развитие и адаптацию к условиям и специфике конкретных стран.



Однако, как показало исследование, наряду с преимуществами, программе присущи и некоторые недостатки. Главная проблема – это дисбаланс разделов медиаграмотности и информационной грамотности. Результаты анализа позволяют утверждать следующее:

1) информационной грамотности в программе посвящен лишь один модуль из одиннадцати – модуль №8 «Информационная грамотность и библиотечная грамотность»;

2) общими для двух разделов (медиа и информационной грамотности) являются три модуля: модуль №1 «Гражданская позиция, свобода самовыражения и информации, доступ к информации, демократический дискурс и обучение на протяжении всей жизни», модуль № 7 «Возможности и вызовы Интернета», модуль № 9 «Коммуникация, медиа и информационная грамотность, и обучение»;

3) из 107 терминов в глоссарии информационную грамотность отражают лишь 7 терминов. Таким образом, можно сделать вывод о преобладании в программе раздела «Медиаграмотность» в ущерб изложению материала по информационной грамотности. На наш взгляд, с такой диспропорцией нельзя согласиться.

Учебная программа ЮНЕСКО стимулировала исследования по разработке способов органичного соединения медийной и информационной грамотности и адаптации результатов такой интеграции к специфике национальных программ обучения в разных странах мира, а также привлечение к решению этой задачи не только учителей, но и библиотекарей.

Поиск ответа на первый вопрос – «Как обеспечить содержательное наполнение обучения медийно-информационной грамотности, то есть как объединить информационный и медиа компоненты при обучении?» привел к разработке механизма интеграции медиаграмотности в содержание курса «Основы информационной культуры личности».

Интеграция медиаграмотности в содержание курса «Основы информационной культуры личности» заключается в органичном и последовательном дополнении каждого раздела этого курса элементами медиакомпонента. Под медиакомпонентом мы понимаем совокупность следующих элементов:

– медиатекст – сообщение, изложенное в любом виде и жанре медиа (газетная статья, телепередача, видеоклип, фильм и прочее). Новые медиа (Интернет, социальные сети, мобильная телефония) значительно расширили состав медиатекстов: сайты, блоги, электронные журналы и т.п.;

– алгоритм поиска медиатекстов. Он включает последовательность действий по эффективному и быстрому нахождению медиаинформации (музыка, картинки (изображения), видеоролики, фильмы, мультфильмы и др.);

– критический анализ медиатекстов. Он предусматривает совокупность специальных видов анализа медиатекстов: сюжетный, автобиографический, иконографический, семиотический, идентификационный, идеологический, философский,

эстетический, этический, герменевтический анализ, анализ медийных стереотипов, персонажей медиатекстов и другие. Назначение всех этих методов – формирование критической оценки и критического отношения людей (обучаемых) к медиатексту;

– технология создания обучаемыми собственных медиапродуктов. Медиапродукт – это результат самостоятельной интеллектуальной деятельности, направленной на создание новой или смысловой переработки имеющейся медийной информации, представленный в форме медиатекста. Примерами медиапродуктов могут служить мультимедийная презентация, заметка в газету, эссе, видеоролик, видеооткрытка, мультфильм и многие др. Задача школьника, студента при подготовке медиапродукта – не просто найти и скопировать готовый медиатекст, а проявить самостоятельность и творчество, создать на основе имеющейся медиаинформации что-то свое, оригинальное. Это невозможно сделать, если человек (обучаемый) не владеет технологиями создания видеоклипа, фотографии, новости, репортажа и т.д.

Обучение специалистов информационно-библиотечных учреждений Узбекистана осуществлялось в форме тренинга тренеров. Как известно, медийно-информационная грамотность и информационная культура предполагают владение широким спектром компетенций: это синтез традиционных библиотечно-библиографических знаний с другими видами грамотностей: медиаграмотностью, компьютерной, новостной, телеграмотностью, интернет-грамотностью и др. Трансляции такого широкого диапазона информационных знаний и умений требует, чтобы библиотекарь сам свободно владел ими. Кроме того, самостоятельную задачу представляет необходимость повышения педагогической компетентности библиотекарей. Тренинг-тренеров – это метод активного обучения, ориентированный на взаимодействие обучающихся и последующую трансляцию полученных во время обучения знаний. Применительно к задачам тренинга тренеров в сфере медийно-информационной грамотности это означает, что библиотекари должны овладеть методами и способами передачи, продвижения информационных знаний и умений не только среди школьников, но и среде своих коллег. Иными словами, после прохождения тренинга тренеров, его участники должны сами становиться тренерами в сфере медийно-информационной грамотности.



Список использованных источников и литературы

1. Declaration on Media and Information Literacy adopted by Fez International Forum / UNESCO. [http://www.unesco.org/new/fileadmin/MULTIMEDIA/HQ/CI/CI/pdf/news/Fe %20Declaration.pdf](http://www.unesco.org/new/fileadmin/MULTIMEDIA/HQ/CI/CI/pdf/news/Fe%20Declaration.pdf).
2. Gendina, N. Integrating the Personal Information Culture Concept and the Idea of Media and Information Literacy Offered in the UNESCO Curriculum for Teachers: Experiences of Russia and Uzbekistan. Editors: SerapKurbanoğlu, JoumanaBoustany, Sonja Špiranec, Esther Grassian, Diane Mizrahi, Lorie Roy, TolgaÇakmak. Springer, Cham. 2016. Vol. 676. pp 543-554.
3. Gendina, N. Media and Information Literacy in Russia and the countries of the Commonwealth of Independent States (CIS): A survey undertaken on behalf of UNESCO's Communication and Information Sector. <http://informationliteracy.blogspot.ru/2013/03/conceptual-relationship-of-information.html>.
4. Wilson, C., Grizzle, A., et al. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers (prepared by UNESCO). <http://unesdoc.unesco.org/images/0019/001929/192971e.pdf>





BOSHLANG'ICH TA'LIM



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

BOSHLANG'ICH SINFLARDA IJODIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Rahima Turdiyeva,

Guliston Davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich ta'limda ijodiy faoliyatini tashkil etish usullari, ahamiyati, ta'lim beruvchilar uchun tavsiyalar va o'quvchilarda ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar

ijodiy faoliyat, maqsad, o'qitish, mashg'ulot, boshlang'ich ta'lim, o'quv jarayoni, o'qituvchi, o'quvchi faoliyati, rag'batlantirish, hamkorlikda o'qitish.



Аннотация

В статье рассматриваются вопросы организации и эффективности творческой деятельности в начальных классах, пути развития творческих способностей учащихся.

Ключевые слова

Творческая деятельность, цель, обучение, обучение, начальное образование, учебный процесс, учитель, активность учащихся, мотивация, совместное обучение.

Hozirgi kunda ta'limga qo'yilgan talablardan biri bu – o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish, mustaqil fikrlashga, munosabat bildirishga, ijodkorlikka o'rgatishdan iborat. Ijodkorlik (kreativlik) ijtimoiy jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, ta'lim tizimida ham muhim ahamiyatga ega. Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSH olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyati deb ta'riflagan. (Barcha o'rinlarda "o' " va "g' " haflari "o' " va "g'" shakliga to'g'rilansin!)

Kreativlik (lot. creatio - yaratish, vujudga keltirish) - bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmasdan, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir.

Ijodiylik-ijodiy mahsulot, ijodiy shaxs, ijodiy muhit va ijodiy jarayonning mahsuli ekanligi haqidagi xorij tadqiqotchilarning fikri ham turlichadir, jumladan:

- F.Barron, P.Harrington, N.Gardnerlar - "ijodiy jarayon – muammoni izlashda faollik shakli, bilimlarning mavjud chegarasini ongli va maqsadga yo'naltirib kengaytirishga urinish, mavjud cheklanishlarning buzilishidir", – degan fikrga tayanadi.
- D. Feldman, P. Langly, R. Jonnslar – "ijodiy mahsulotlar jarayonda tanlash va paydo bo'lish bosqichlarining tasodifiy o'zgarish natijasidir", – degan nuqtayi nazarni ilgari suradi.
- E.Torrance – "Ijodiy jarayonni tushuntirishdagi mufaqqiyatsiz urinish yoki tasdiqlanmagan faraz, mavjud bilimlarga yangi g'oyalarni kiritishga urinish"– sifatida qaraydi.

P.Torrens ma'lumotlariga ko'ra, ijodkorlik rivojlanishidagi asosiy bosqich, kichik maktab yoshi sanaladi. Shuning uchun bu davrda bolaning ijodkorligini rivojlantirish juda muhim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu muammoni hal qilishga tayyor bo'lishlari hamda o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish sohasidagi bilim, ko'nikma va vositalarni egallashlari lozim.

Darhaqiqat, ijodiy fikrlash ta'lim va o'qitishning markaziy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, o'quvchilarga o'quv materialini ma'noni tushunishga, kuzatishga, keyin uni kundalik hayotlari bilan bog'lash orqali o'rganishga va saqlashga yordam berish uchun mo'ljallangan ta'lim tizimidir.

Erkin va ijodiy fikrlash o'quvchilarning muloqotga kirishuvida, o'z fikrini erkin bayon qilishida, o'zganing fikrini to'ldirib, qo'shimchalar qila olishida, voqelikni idrok etib, o'z qarashlarini ifoda eta olishlariga xizmat qiladi. Ammo ayrim o'quvchilar o'zlari o'qigan, ko'rgan, eshitgan voqealarini o'zgalarga gapirib bera olmaydi, shuningdek, bu voqealarga nisbatan ijodiy, erkin va mustaqil fikr bildirsa olmaydilar.

Xo'sh, o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun o'qituvchi nimalarga rioya qilishi kerak?

O'qituvchilar o'z g'oyalarini innovatsion yo'nalishlarda ifodalashlari uchun maqsadli usullardan foydalanishlari kerak:

- avvalo, ta'lim jarayonida maqsadni belgilash;
- ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ijodiy dasturlar ishlab chiqish;
- bolalarning qiziqishlari va layoqatlarini inobatga olish;
- o'quvchilarni ijodiy faollikka chorlash va ijodiy muhit yaratish;
- ijodiy o'qitish usullari to'g'ri tanlash;
- o'qituvchilarning ijodkorligini rag'batlantirish;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash;

Ta'limning maqsadi jamiyat maqsadidan kelib chiqadi, shunday ekan, yosh avlodni kreativ, mustaqil fikrlaydigan, turli vaziyatlardan chiqib keta oladigan, ijtimoiy faol, raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalab berish ta'lim tizimining eng asosiy maqsadlaridan biridir.

Agar maqsadlar aniq bo'lsa, odamlar o'z energiyalarini yo'naltira oladilar. Maqsadlar harakatga bilvosita ta'sir qiladi, insonlarga yordam beradigan yo'llarni kashf qilish va ulardan foydalanishga undaydi. Maqsadni belgilash juda samarali motivatsion texnikadir. Maqsadlar o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlariga ta'siri orqali motivatsiyaga ta'sir qiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarida qanday qobiliyatlarining borligi, ularning o'qishga bo'lgan intilishlari, o'quv materialini o'zlashtirish darajalari, eslab qolishlari va o'z bilimlarini o'quv topshiriqlarni bajarishda qo'llay olishlari, masalalarni yechishda puxta fikr yuritishlari, yozma va og'zaki nutqni qanchalik egallaganliklariga qarab bilib olishi mumkin. Shuningdek, quyidagi sifatlar: ziyraklik, tez va puxta eslab qolish, o'ylay olish, topqirlik, rivojlangan xayol, ishda tashabbuskorlik, mustaqillik va uning mahsuldorligi bolalar qobiliyatlarining ba'zi bir ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin.

O'quvchilardagi individual xususiyatlarni, ularning iqtidorlarini, iste'dodlarini inobatga olib ta'limning tashkil etilishi ham o'qitish sifatiga ta'sir etadi. Har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularni ijodiy faollikka chorlash uchun bolalar ruhiyatiga ta'sir qilish; "Bog'da gul teramiz", "Kemada sayohatga chiqamiz", "Quyovvoyga sabzilarni yig'ishga yordam beramiz", "Asalarilarning uylariga kirishiga yordam bering" kabi so'zlar orqali ularni xayolot olami orqali



topshiriqlarni bajarishga, nutq boyligini o'stirishga, tasavvurlarini kengaytirishga, bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, quyidagi so'z birikmalaridan foydalanish: «faraz qiling», «tasavvur eting», «ijodiy parvoz eting ...» kabi so'zlar ham bolalarning tasavvurlarini boyitishga, fikrlashga, ijod qilishga undaydi.

Darslarni guruhlar o'rtasida musobaqa tarzida tashkil etishning bir qancha afzalliklari bor:

- Bolalar hamkorlikda ishlashni o'rganadi.
- Bir-birlarining fikrlarini eshitadi va to'ldiradi.
- Fikrni bayon qilish natijasida nutq malakasi shakllanadi.
- Tezlikda ishlashni o'rganadi.
- Bir-birini hurmat qilishni o'rganadi.
- O'zlariga ishonchlari ortadi.
- Erkin va mustaqil fikrlashga o'rganadi.

Bundan tashqari, noan'anaviy usullar, turli xil metodikalar, didaktik o'yinlar, musobaqalar, ijodiy topshiriqlar, suhbat, demonstratsiya, muammoli savol, muammoli vaziyatlar yaratish, kichik guruhlar bilan ishlash, axborot texnologiyalardan foydalanib ta'limni tashkil etilish o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan yana biri bu o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligidir. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikkiyoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topgan.

Agar siz o'quvchilaringizning bilimli, ijodkor bo'lishini xohlasangiz, darsda sinfdagi chegaralarni olib tashlang va "Jim o'tir", "Qimirlama", "Qo'lingni partaga qo'y" kabi so'zlardan voz keching. O'quvchilaringizni bildirayotgan fikrlari, harakatlari, sho'xliklari uchun koyimang. O'quvchilarning bilimini sinash tizimining keskin qolipga solinishi va mas'uliyatning oshirilishi ularning kreativ fikrlashlarini pasaytiradi. Ularni erkin qo'ying va sinfda yoqimli, dostona muhitni yaratishga harakat qiling. Masalan: "Sizlarni yaxshi ko'raman", "Hammamiz birgalikda sayohatga chiqamiz", "Men sizlarga ishonaman", "Albatta, sizlardan kelajakda olimlar, shoirlar... chiqadi", "Biz yagona oilamiz", "Biz olimlarmiz" kabi motivatsion so'zlar o'quvchilarni yakdillikka, izlanishga, kreativlikka chorlaydi.

O'quvchilarda ijodiy mustaqil fikrlashni shakllantirishda darslarda matn yuzasidan savol-javob qilish, mustaqil jikrini so'rash: "Sizning shaxsiy fikringiz?", "Nega qahramon shunday yo'l tutdi deb o'ylaysiz?", "Voqealarga munosabat bildiring". "Muallif bu asar orqali nima demoqchi?" "Agar qahramonning o'rnida siz bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?" kabi savollar bilan o'quvchilarni bahs-munozaraga jalb etish juda ham muhim.

Har bir o'quvchining fikrini eshitish, eng ma'qulini namuna qilib ko'rsatish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Bu orqali o'quvchilar voqeani obyektiv baholay olishni o'rganadilar, o'z fikrlarini

erkin bildirilgan fikrni qanday bo'lsin o'qituvchi oxirigacha eshitishi va boshqa o'quvchilarni ham bu fikrni eshitishlari va o'z munosabatlarini bildirishlariga jalb qilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki boshqalar fikrini tinglashga o'rgatish o'qituvchidan e'tibor va mas'uliyat talab etadi. Boshqalar fikrini tinglagan o'quvchi voqeani to'la idrok etadi, o'z munosabatini bildiradi va eng muhimi, boshqaning fikrini takrorlamaydi. Bu bilan to'g'ri va noto'g'ri fikrlarning barini qabul qilish deyishdan xolimiz. Noto'g'ri fikr bildirgan o'quvchining fikri to'g'ri emasligini tushuntira bilish, uni to'g'ri fikrlashga yo'naltirish lozim. Bolaga qarorlarni mustaqil qabul qilish va uning uchun javobgar bo'lish imkonini bering. Bolalarning bildirgan fikrlari va harakatlarini «noto'g'ri» yoki «to'g'ri» munosabatlar bilan emas, balki “ajoyib fikr”, “fikringga qo'shilaman”, “yanada ijodiy yondashing”, “juda yaxshi”, “barakalla”, “chuqurroq fikrlang” kabi so'zlar bilan qo'llab-quvvatlash ham bolani mustaqil fikrlashga, munosabat bildirishga o'rgatadi.

Bizda ma'lumki, uydagi yoki ishxonadagi jihozlarning joylashuvi ham inson ruhiyatiga ta'siri qiladi. Respublikamizdagi deyarli barcha maktablaridagi sinfda partalar uch qator qilib joylashtirilgan. Keling, an'anaviylikdan bir oz chetga chiqaylik, siz bunga bir oz o'zgartirish kiriting. Sinfga gilam to'shang. Sinfidagi bolalar soniga qarab partalarni 4-5 ta guruhga bo'lib qo'ying. Davrani ochib qo'ying. Dars mashg'ulotlarini gilamda ham o'tish mumkin. Masalan, o'qish, musiqa, atrofimizdagi olam, tarbiya darslarini partada emas, balki gilamda o'tirib, o'ynab yoki davra qurib otilsa, bolalarning darsga bo'lgan munosabat o'zgaradi. Ta'limiy o'yinlarda o'zingiz ham ishtirok eting. Shunda bolalarda zavq-shavq va o'zlariga, bir-birlariga, sizga bo'lgan ishonchi, hurmati ortadi. Mustaqil fikrlarini ekrin bayon qilishga zamin tayyorlaydi.

Rag'batlantirish kreativlikning kalitidir. Rag'batlantirish o'quvchining ruhini, kayfiyatini ko'taradi, ularni tetiklantiradi, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi va ijodiy faollik samaradorligi kuchayadi. Rag'batlantirilgan bo'lada o'z kuchiga ishonchi ortadi, natijada yanada yaxshi o'qishga, o'z ustida ishlashga, ijodiy izlanishga kuch topa oladi.

Ijodkorlikka o'rgatishning muhim asoslardan yana biri ishonchdir. O'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi yoki sizning ularga bo'lgan ishonchingiz bola uchun juda muhim. Agar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi bo'lsa, u mustaqil fikrini, voqeliklarga munosabatini bemalol bayon qila oladi. Agar aksincha bo'lsa, bilgan narsasini ham ayta olmaydi, tushkunlikka tushadi. Bu, ayniqsa, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga taalluqli. Agar siz bolaga ishonch bildirsangiz, o'quvchining o'z-o'ziga ishonchi, g'ayrati, ishtiyoqi oshishiga sabab bo'ladi. Darslarda “albatta, qo'lingdan keladi”, “senga ishonaman”, “sen bilan faxrlanaman”, “sen uddalaysan” kabi iboralar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlari va xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

Sinfidagi vaziyatlarni kengaytirish u yerda ijodiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan muayyan muammo yoki ijodiy topshiriqlar yaratish ta'lim beruvchilarning zimmasiga yuklanadi. “Muammo izlash” ijodkorlikning barcha turlari asosida yotadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchilar g'oyani yetkazish yoki muammolarni topish va hal qilish, sinfidagi vaziyatlarni kengaytirish, u yerda o'quvchilarga ijodiy faoliyatni amalga oshirishga imkonini yaratish lozim.



Insonda bilim qanchalik ko'p bo'lsa va u sohaga oid turli ma'lumotlarning bir-biriga bog'liqligini yaxshiroq tushunsa, kreativ g'oyalarni kashf etish imkoniyati kattaroq bo'ladi. Demak, ta'lim beruvchilarning o'zlari ham ijodkor, kreativ fikrlaydigan, doimo o'z ustida ishlaydigan, so'nggi yangiliklardan boxabar, zamon bilan hamnafas bo'lmoqlari lozim. Ijodkor va yaratuvchan insonlar "sa'y-harakat qilishga xohish-istak topa oladigan" insonlardir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'rganish va rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun zamon, ta'lim talablarini o'rganish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun ijodiy dasturlar ishlab chiqish, o'quvchilarning qiziqishlarini, layoqatlarini o'rganish va shu asosida metodikalar yaratish, ta'limning texnologik yondashuvlar asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Ijodiy sifatni shakllantirish jarayonida o'quvchilarning oddiy va murakkab xatti-harakatlari, ijobiy va salbiy holatlardan kelib chiqib atrof-olamdagi voqelikni tushuntirish hamda o'quvchilarni kelajak hayotga tayyorlash, kreativlikka xos fazilatlarini tushunish va olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olish malakalari shakllanadi. O'quvchilardagi yashirin is'tedodlarni, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, mustaqil fikrini erkin bildirishga, ulardagi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehnlilik, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltayeva Sh.T. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.// Maktab ta'limi, 49-51 betlar.
2. Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. -Toshkent, 2003.
3. Lloyd H. Barrow .Encouraging Creativity with Scientific Inquiry . *Creative Education*, 2010, 1, 1-6
4. Savenkov, A.I. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish. [Matn]: qo'llanma/ A.I. Savenkov - Yaroslavl: Nashriye MCHJ akademiyasi Taraqqiyot Akademiyasi, 2007 yil. 32C.
5. G'afforova T. "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Toshkent, "Tafakkur", 2011.
6. Innovatsiya ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 150 b.





BOSHLANG'ICH TA'LIM



A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN SHAXMAT O'YININI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK ASOSLARI

Umidjon Xoliqov,

Guliston davlat universiteti tayanch
doktoranti

Sayyora Xoliqova,

Guliston davlat universiteti
o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga shaxmat o'yinini o'rgatish orqali mantiqiy fikrlash ham shaxsiy sifatlari shakllantirilishi; shaxmat o'yinlaridan foydalanish orqali ularning diqqati, idroki, tafakkuri, xotirasi va mantiqiy fikrlashi rivojlantirilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilari, shaxmat o'yini, idroki, tafakkuri, xotirasi, mantiqiy, diqqat, shaxsiy sifatlari, ruhiy-ma'naviy, ta'lim muassasalari, mahalla.



Shaxmat - murakkab hodisa, u inson hayotining ko'plab sohalari bilan, turli xil ilmiy tadqiqotlar bilan bog'lanib ketadi va ilmning predmeti, mavzusi hisoblanadi. Jamiyat hayotida shaxmatning vazifasini aniq bilish uchun tarix, falsafa, jamiyatshunoslik, pedagogika, ruhiyatshunoslik, matematika, san'at tarixi, xulq-atvor va boshqa bilimlar sohasidan foydalanish kerak. Shaxmat o'yinining juda boy aloqalari doirasi va uning kundalik hayotdagi faol roli, shaxmatning moddiy va ma'naviy madaniyatning bir qismiga aylanib, har safar yangi yutuqlar va qimmatli fazilatlar bilan boyitib borishini ta'kidlaydilar.

Shu bilan birga, mamlakatda shaxmatni jadal rivojlantirish uchun iqtidorli bolalar va o'smirlarni tanlash va saralab olish (seleksiya), shaxmat sohasida yuqori malakali sport menejerlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish zarur, murabbiylarni munosib rag'batlantirish, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shaxmat infratuzilmasini shakllantirish lozim.

2021-yil 14-yanvarda "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarori qabul qilindi.

Shu qaror asosida 150 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tajriba tariqasida shaxmatga o'qitishni tashkil qilish amaliyoti kengaytirilib, yana qo'shimcha 150 ta maktab (jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda (Toshkent viloyatidan tashqari) 10 tadan, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 15 tadan maktab) shaxmatga ixtisoslashtiriladi; tegishli 1000 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida 2, 3 va 4-sinf o'quvchilarini "Jismoniy tarbiya" fani doirasida 18 soatlik reja asosida shaxmatga o'qitish yo'lga qo'yiladi hamda ularga metodik yordam ko'rsatiladi. Qolgan barcha maktablarning 2 – 4-sinf o'quvchilari "Jismoniy tarbiya" fani doirasida shaxmatga o'qitilish belgilandi.[1]

Shaxmat o'ynashning boshlang'ich ta'lim uslubiy tamoyillarini ishlab chiqish. Zamonaviy bolalar shaxmat pedagogikasi ikkita asosiy yo'nalishga ajraladi:

1-yo'nalish. Sportni takomillashtirish va yuqori natijalarga erishish maqsadida turli seksiyalarda bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish.

2-yo'nalish. Turli yoshdagi o'quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida, maktablarda shaxmatni o'qitish darsdan tashqari mashg'ulotlar sifatida yoki o'quv mashg'ulotlari shaklida o'tish.

Hozirda shaxmatni o'rgatish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular darsliklarda, uslubiy tavsiyalarda, kombinatsiyalar va mashqlar to'plamlarida aks ettirilgan. Shaxmat o'yinini o'rgatish masalalari o'tmishdagi ko'plab taniqli shaxmatchilarni tashvishlantirgan edi, chunki shaxmat hozirgi kabi ommalashmagan; foydaliligi va ularning bolalar tafakkurini rivojlantirish ahamiyati to'g'risida nazariy ishlanmalar bo'lmagan. **Emanuel Lasker** birinchilardan bo'lib shaxmatni o'qitish muammosiga e'tibor qaratdi. U shaxmat o'ynash qobiliyati faqat xotira bilan bog'liq bo'lishi mumkin emas va shaxmat o'ynashni o'rganish, mantiqiy fikrlash sifatlarini rivojlantirish kerak, deb hisoblagan. Em. Lasker ko'plab maxsus ishlarni birlashtirgan va tizimlashtiradigan shaxmat qoidalarini o'zlashtirish muhimligini

ta'kidlaydi; ma'lum bir malakaga erishish uchun zarur bo'lgan mashg'ulotlar soatlari bo'yicha tavsiyalar beradi.

X.R.Kapablanka o'yin uchun o'quv dasturini taklif qildi. Shaxmatni so'nggi o'yindan (endshpildan) boshlash zarurligini ta'kidladi. Uning darsligi turli xil tanlangan pozitsiyalar va ularning chuqur tahlili bilan ajralib turadi, shuningdek, unda yechimini kutuvchi masalalar yo'q. Ushbu ta'lim yaxlitligicha partiyalar haqida tushuncha berishga va ularni tahlil qilishga bag'ishlangan. [2] XIX asr oxirlarining kuchli shaxmatchisi R. Reti tomonidan yaratilgan darslik qiziqarli hisoblanadi, chunki muallif bunda shaxmat san'ati tamoyillarini uning tarixiy rivojlanishida yoritib bergan. Ushbu asar muallifning o'tmish va zamondosh shaxmatchilarining sara partiyalari jamlanmasi (to'plami) emas, balki shaxmat o'yini bo'yicha darslik hisoblanadi. Bunda aniq amaliy variantlar ko'rib chiqilgan, uning asosida esa debyut va mittelshpil (shaxmat partiyasining boshlanishi va o'rtasi) dagi o'yinning umumiy tamoyillari belgilangan. R. Reti uchun markaziy tushuncha bo'lib, shaxmat partiyasining haqiqiyliigi (realligi) hisoblanadi.[3]

XX asr oxirlarining kuchli shaxmatchisi jahon chempioni xalqaro grossmeyster Rustam Qosimjonov tomonidan yaratilgan "Shaxmat – sehrli olam" nomli darslik qiziqarli hisoblanadi, chunki muallif bunda shaxmatni ommalashtirish, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxmat o'yinini o'rganish usullarini yoritib bergan.[5]

Shunday qilib, birinchi shaxmat o'quv dasturlari turli malakaga ega shaxmatchilarning o'yin texnikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar, alohida maslahatlar bilan boyitilgan. Shaxmat o'quv adabiyoti o'yinni istagan har bir kishi o'rganishi uchun bo'lib, asosan, katta yoshlilarga qaratilgan. Hozirgi kunda shaxmat bo'yicha dasturlar va texnikalarni ishlab chiqish ma'lum pedagogik tamoyillarga muvofiq amalga oshirilmoqda, o'rganuvchilarga qo'yiladigan talablar (yoshi, tayyorgarlik darajasi va boshqalar) hisobga olinmoqda, mashg'ulotning davomiyligi va tezligi belgilanmoqda.

R.Mavlonova o'zining asarida boshlang'ich maktab yoshidagilar bilan mashg'ulotlarni tashkillashtirish tavsiyalarini beradi. Uning fikricha, muammoni shaxmat nazariyasini o'rganish 7 yoshlilar uchun nihoyatda qiyin deb emas, aksincha, "gap bola tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ushbu yosh uchun samarali o'qitish usulini tanlashda bo'lishi kerak". U mashg'ulotlarni tashkil qilishda, e'tiborni ko'proq o'yin lahzalariga qaratib, shaxmatning hamma qoidalari ma'lum bo'lmagan taqdirda ham o'yinni davom ettirish kerakligini ta'kidlaydi.

Materialni taqdim etishda induktiv usuldan, ya'ni xususiydan – umumiyga o'tish usulidan foydalanish. Umumiy tushunchalar haqidagi ma'lumotlarni cheklash. O'yin qoidalari va maqsadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan asta-sekin tanishib chiqqandan keyin, kombinatsiyalar va oddiy endshpillarni o'rganib, shundan keyingina debyutlarga e'tibor qaratish talab etiladi. R.Mavlonovanning fikriga ko'ra, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar debyut tuzilishlarning (sxemalarining) mohiyatini tushuna olmaydilar, chunki ular mavhum ma'lumotlarni o'rganishga tayyor emaslar. [6] Ammo yosh o'quvchilar ongi uchun maqbul bo'lgan materiallarni o'rgatish mumkin. Shaxmat o'qitishdagi qiziqarli yondashuv B.Fisherning D. Mozenfelder va S. Margulislar bilan hamkorligida



yaratilgan. Mualliflar ishlab chiqilgan usulni dasturlashtirilgan o'qitish usuli deb atashgan, uning mohiyati o'quv jarayonida o'rganuvchining faol ishtirok etishidir. Dastur darslardan tashkil topgan. Har bir darsda bir qancha ma'lumotlar beriladi va qoida tariqasida o'quvchidan javob talab qiladi. Darslikda uslubiy tanlangan pozitsiyalar va chizmalar talaygina. Darslikning kamchiliklari qatoriga o'qitish jarayonida shaxmat yozuvlarining yo'qligi kiradi. Darslik shaxmat o'ynashni biladigan va o'yin texnikasini takomillashtirmoqchi bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallangan.

G.Y.Gorenshteyn, V.V.Zak, A.N. Kostev, G.Y.Levenfish, M.Muhitdinovlar tomonidan ishlab chiqilgan yosh shaxmatchilarni o'qitish dasturlari ommalashgan va tan olingan manba hisoblanadi. V.Grishin tomonidan yaratilgan 4–6 yoshdagilarni bolalar bog'chasida shaxmatga o'rgatish bo'yicha yaratilgan metodik tavsiyalar alohida qiziqish uyg'otadi. M. Muhitdinovning asarida esa keltirilgan o'quv ma'lumotlari keng talqinga ega bo'lib, unda muallif o'quvchilarni zamonaviy tamoyillarga muvofiq shaxmat asoslari bilan tanishtiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi shaxmat darsliklarida shaxmat donalarining yurishlari va o'yin qoidalari bo'limlari tavsiflangan bo'lib, bu holat yod olish kerakligini anglatadi. Yechish uchun berilgan topshiriqlar, o'quvchi shaxmat o'yinining asoslarini, asosiy qoidalarini bilgan paytidan boshlanadi. Mavjud dasturlar, uslublar, darsliklar murabbiylar tomonidan keng qo'llaniladi. Ammo qoida tariqasida ular faqat batafsil individual mavzulardan foydalanadilar, holbuki, uning yaxlit versiyasidagi uslubiyat asos sifatida qabul qilinmaydi.[7:8]

5–8 yoshdagi bolalarga shaxmatni o'qitishning o'ziga xos uslubi I. G. Suxin tomonidan ishlab chiqildi. Muallif shaxmat o'qitishning rivojlanishi tarafdori. U o'quv jarayonida vazifalarni shaxmat taxtasida qismlardan, nostandart didaktik o'yinlaridan, sahnalashtirilgan mualliflik didaktik ertaklardan ("maqtanchoq mushukchalar", "shaxmat shiyponchasi" va boshqa.), har bir shaxmat donasining imkoniyatini alohida o'rganish (har bir donani o'rganish uchun 2 soat ajratish), o'quv jarayonida foydalanishni taklif qiladi, cheklangan miqdordagi shaxmat donachalari qatnashgan o'yin holatidan o'quv jarayonida ko'proq foydalanish, mat va boshqa shaxmat atamalarini o'rganishda shoshmaslik nazarda tutiladi. O'qitishning birinchi yilida shaxmat mavzularini tushuntirishda shaxmat ma'ruzalaridan foydalanilmaydi.[9]

Ta'lim dastlabki bosqichlarda ko'ngilochar shaklda va shaxmatga xos bo'lmagan ertak qahramonlari bilan boyitilgan holda o'tiladi. M. Xaylayev darslarning ketma-ketligini tavsiya qiladi, unda shaxmat donalari to'plami bilan o'yin tashkil qilishni 29-darsdan boshlab o'tish kerakligini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, uslubiyat qiziqarli rivojlanish vazifalarini o'z ichiga oladi, ammo unda boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning bilim qobiliyatlari kam baholanadi va mashg'ulotlar ushbu yosh uchun maqbul darajadagi murakkablikda o'tkazilmaydi.

M.Xaylayev ta'limni rivojlantirish g'oyalari asosida yosh shaxmatchilarni o'qitish uslubiyatini ishlab chiqdi. Uslubiyat reflektiv faoliyat usullarini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxmatchilarning yosh sportchilarini tayyorlash samaradorligi va sifatini oshirishga qaratilgan. O'quvchilar orasida shakllanishi kerak bo'lgan markaziy tushuncha (muallifning fikriga ko'ra) bu - "pozitsiyani baholash".[10]

Dunyoning ayrim mamlakatlarida (Isroil, Ispaniya, Italiya, Chexiya, Shvetsiya va boshqalar) maktabda dars jarayonida bolalarni shaxmatga o'rgatish bilan bog'liq yo'nalish rivojlanmoqda, maxsus davlat dasturlari qabul qilinib, hayotga tatbiq qilinmoqda. Maktab o'quvchilarining bilim qobiliyatini rivojlantirish va tarbiyalashning samarali vositasi sifatida shaxmatdan foydalanish imkoniyatlari "Maktab uchun shaxmat" kitobi mualliflari tomonidan ko'rib chiqilib, mamlakatimizda shaxmatni umumta'lim maktablariga joriy etish juda sust ekanligi ta'kidlanadi. "Qiyinchilik shundan iboratki, shaxmat o'qitish metodikasi, ayniqsa, yangi boshlovchilar uchun hali ishlab chiqilmagan va bolalarga ushbu o'yinni o'rgatishga qaror qilgan g'ayratli o'qituvchi nafaqat mashg'ulotlar o'tkazish to'g'riligiga tabiiy shubha tug'diradi, balki o'zining shaxsiy metodik materiallarini tayyorlashga majbur bo'ladi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy, grossmeyster Georgiy A'zamov shaxmatni maktablarga tatbiq qilish jarayonida darsliklarning yetishmasligi (maktablar uchun maxsus yozilgan) va kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilarning yetishmasligi to'sqinlik qilmoqda, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, bolalarni shaxmatga o'qitish bo'yicha ko'plab dasturlar faqat o'ynashga o'rgatish uslubidir va hozirda shaxmatning ilmiy asoslangan dasturlari mavjud emas. Shunday qilib, hozirgi paytda o'quv shaxmat adabiyoti keng doirada taqdim etiladi. Ya'ni, turli yoshdagi bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha individual tavsiyalardan tortib, jalb qilinganlarning sportga tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda, shaxmat o'qitishning turli uslublariga qadar shaxmat o'yinining ko'rib chiqilgan darsliklari, dasturlari, usullari turli darajadagi ustalarini mazkur sport turini takomillashtirishga jalb etilib, maqsadli intellektual rivojlanish vazifasi qo'yilmagan va faqat o'quv vazifalari va o'yinning o'zi bu rivojlanishni ta'minlaydigan darajada hal qilinadi. Yoki boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning kognitiv imkoniyatlarini to'liq hisobga olmasak, bu o'quvchilarning intellektual rivojlanish vositasi sifatida shaxmatga o'rgatish imkoniyatlari kamayadi. Maktab shaxmatining muvaffaqiyati o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga va kognitiv rivojlanish darajasini hisobga olishga yo'naltirilgan shaxmat, boshlang'ich ta'limning samarali usullarini ishlab chiqishga bog'liq.[11]

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning aql-zakovat kompleksi rivojlanishi bir necha xil yo'nalishlarda olib boriladi:

- fikrlash vositasi sifatida nutqni o'zlashtirish va undan faol foydalanish; fikrlashning barcha turlarini o'zaro boyitish va bir-biriga bog'lash;
- vizual-samarali, og'zaki-mantiqiy;
- ikki bosqichning intellektual jarayonida nisbatan mustaqil rivojlanish va kerakli ma'lumotlarni ajratib olish;
- tayyorlovchi va ijro etuvchi.

Muammoni hal qilishning tayyorgarlik bosqichida, uning shartlari tahlil qilinadi va reja ishlab chiqiladi, ijro bosqichida esa ushbu reja amalda ko'rib bajariladi. Olingan natija shart va muammo bilan bog'lanadi. Ushbu yo'nalishning birinchisi bolalarda nutqni shakllantirish, turli muammolarni hal qilishda faol foydalanish bilan bog'liq. Agar bola ovoz chiqarib fikrlasa, uni so'zlarda ifodalasa



va olingan natijani nomlay olsa, bu yo'nalish muvaffaqiyatli yakun topadi. Rivojlanishning ikkinchi yo'nalishi bolalarga ishlab chiqilgan amaliy harakatlarni, shuningdek, tasvirlar bilan ishlash qobiliyatini, mantiqiy mavhumlik darajasida mulohaza qilishni talab qiladigan vazifalar berilsa, muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Agar ushbu jihatlarining birortasi to'g'ri yo'naltirilmasa, unda bolaning intellektual rivojlanishi bir tomonlama jarayon sifatida davom etadi. Amaliy harakatlarning ustunligida vizual-faol fikrlash ko'proq rivojlanadi, ammo obrazli va og'zaki-mantiqiy fikrlash orqada qolishi mumkin. Faqat ovoz chiqarib fikr yuritish qobiliyatiga alohida e'tibor berib, bolalar ko'pincha amaliy fikrlash va xayolot dunyosining qashshoqligidan orqada qoladilar. Bularning barchasi bolaning umumiy intellektual rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shunday qilib, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning kognitiv rivojlanishini nazariy tahlil qilish ma'lum yoshdagi bolalarning bilim jarayonlarining psixologik tarkibiy qismlari: ko'rgazmali-amaliy va tasvirli-majoziy fikrlash, obrazli xotira, yodlash mexanizmining ustunligini aniqlashga imkon beradi.

Shaxmatni o'rganish jarayonida yosh o'quvchilarning intellektual rivojlanishida hissa qo'shadigan psixologik va pedagogik sharoitlar.

O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasi shaxmatga o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishiga yordam beradigan quyidagi psixologik va pedagogik shartlarni shakllantirishga imkon berishini ko'rsatadi:

1. Ta'lim jarayonida axborotning turli kodlash turlaridan foydalanish: samarali, tasvirli, ramziy-belgili.
2. Ta'lim jarayonida modellash va sxemalash usullaridan foydalanib, sxemaga asosan vazifalarni bajarishga va grafik modellar bilan ishlashga o'rgatish.
3. Ta'lim jarayonida o'quv mavzusini eslab qolish uchun maxsus usullardan foydalanish; axborotni kodlash tilini boshqasiga tarjima qilishni amalga oshirish; emotsional manbalarni kiritish, "generatsiya natija" siga erishish maqsadida, berilgan ichki qonuniyatlarga asoslanib, pozitsiyalarni mustaqil ravishda tuzish. O'quv materialini eslab qolish mexanizmini cheklab, tushunish jarayonini rivojlantirishni rag'batlantirishga etibor qaratish.
4. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning fikrlash harakatini faollashtirishga qaratilgan usullardan foydalanish. Ta'lim jarayonida o'quv hamkorligi munosabatlarini tashkil qilish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, shaxmat o'yini boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotirasini kuchaytirishda, fikrlashdagi parishonxotirlikni yo'qotishda muhim omil vazifasini bajaradi. Yuqorida bildirilgan fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy taraqqiyotga mos holda tarbiyalash, ularning ongi, tafakkuri va dunyoqarashini zamon talablari darajasida shakllantirish borasida bir qancha olimlar o'z tadqiqot ishlarida ilmiy asoslangan fikrlarini bayon qilishgan. Ularga tayangan holda, boshlang'ich sinflarda shaxmat o'yinlarini tashkil qilish yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- shaxmat o'yinlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqishda milliy metodologik, tarixiy va mantiqiy ilmlarga tayanish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxmat o'yinlaridan foydalanish asosida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish;
- amaliy va nazariy mashg'ulotlarda shaxmat o'yinlarining o'rne va mavqeyini belgilash;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxmat o'yinlaridan foydalanish asosida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy shakllari va tamoyillarini ishlab chiqish;
- maktab yoshlari orasida har yili shaxmat bo'yicha maktab, tuman, viloyat, respublika miqyosida an'anaviy musobaqalarni o'tkazish;
- iqtidorli, mantiqiy fikrlaydigan bolalarni saralash asosida, respublika shaxmat maktabini tashkil etish chora va tavsiyalarini bildirmoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4954-son.
2. Вершинин М. А. Теория проектирования системы формирования логического мышления шахматистов: дис. доктора педагогических наук, Волгогр. гос. акад. физ. культуры. — Волгоград, 2005. — 506 с.
3. Тарасова О. В. "Педагогические условия формирования логической культуры младших школьников средствами шахматной деятельности": дис.канд. пед. наук.- Казан, 2005. — 209 с.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboeva R.N. "Mustaqil fikrlash" o'quv qo'llanmasi — T.: 2000. 25 bet.
5. Qosimjonov R. "Shaxmat — sehrli olam" — Toshkent : " Infocom.uz", 2008 — yil.
6. R. Mavlonova, O.To'raeva, K. Xoliqberdiev «Pedagogika» darslik — T.: Fan, 2015. — 156 b.
7. Muhiddinov M. "Kataklarda yashiringan olam". —T.: O'zbekiston, 1976. 66-bet.
8. Габбазова А.Я. Учимся играть в шахматы: учеб. пособие / А.Я. Габбазова.—Ульяновск: УлГТУ, 2002. — 96 с.
9. Suxin I.G. 2008. Shaxmat o'ynashni o'rganish kontekstida maktabgacha yoshdagi bolalarning «ongida» harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun didaktik yordam
10. Xalayev M , Shaxmat alifbosi —T. : Tafakkur -2015
11. Nosir Muhammad "Shaxmat mo'jizasi" —T.: 2014-y. 5-9 bet
12. Vershinin M.A. Shaxmatchilarning mantiqiy fikrlashining tarkibiy qismlarini shakllantirishning tavsifi va xususiyatlari // Fundamental tadqiqotlar. № 11, 1412-1417.
13. Махмудов А.Х., Джуроев Р.Х., Ахунжанова А.Т. Дидактический потенциал шахматной игры.- М.:Наука и образование сегодня, — Москва, №6 (53), 2020.- Част 2.- С. 70-71
14. Блонский П. П. Памят и мышление / П. П. Блонский. — СПб.: Питер, 2001.—288 с.
15. Зак А.З. Различия в мыслительной деятельности младших школьников / А. З.Зак. — М.: Московский психолого-социальный институт, Воронеж: Изд-во НПО «МОДЕК», 2000. — 192 с.
16. Авербах Ю. Л. Путешествие в шахматное королевство / Ю. Л. Авербах, М.А. Бейлин. — М. : ФиС, 1976. — 288 с.



KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH MASALALARI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA KASBGA YO'NALTIRISHDA VARIATIV TA'LIMNING AHAMIYATI

Nargiza Ermetova,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti
ilmiy xodimi

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarini kasbga yo'naltirishda o'quvchi tomonidan mavjud bilimlarning o'zlashtirilish darajasi va uning qobiliyatlarini inobatga olgan holda tabaqalashtirilgan variativ ta'limni joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar

O'qituvchi, o'quvchi, ta'lim muassasasi, ta'lim, ta'lim sifati, variativ o'quv reja, variativ ta'lim, kasb, kasbga yo'naltirish.



Аннотация

В статье рассматриваются вопросы внедрения дифференцированного вариативного образования при профессиональной ориентации выпускников средних общеобразовательных школ с учетом уровня усвоения знаний и способностей учащихся.

Ключевые слова

Учитель, ученик, учебное заведение, образование, качество образования, вариативный образовательный план, вариативное образование, профессия, ориентация на профессию.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omili sifatida ta'lim sohasida muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda, taraqqiy etgan insoniyat o'tmish natijalarini jadal baholab, uning rivojlanishi mumkin bo'lgan istiqbollarni belgilab bermoqda. Uchinchi ming yillik muammolariga mos keladigan ta'limning yangi qiyofasini topish vazifasi davlat, fan va amaliyotning aqliy, tashkiliy va resurs sa'y-harakatlarini talab etadi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimi shaxs imkoniyatlari va ehtiyojlarini har doimgidan ham ko'proq inobatga olish zarur. Zero, ta'lim shaxsning kasbiy jihatdan takomillashuvini ta'minlovchi asosiy omil sanaladi. Takomillashgan, davr talablariga to'la javob bera oladigan ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi, demakki, uning hayotiy intilishlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelishi lozim. Bu esa o'quvchi tomonidan mavjud bilimlarning o'zlashtirilish darajasi hamda uning qobiliyatini inobatga olgan holda tabaqalashtirilishi maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunga qadar jahonning ko'pgina rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida ustuvor o'rinni egallab kelgan hamda bilimlarni o'zlashtirishning o'rtacha darajasiga ega bo'lgan ta'lim oluvchilarga mo'ljallangan an'anaviy ta'lim iste'molchilar ehtiyojini qondira olmayapti[6]. Uzluksiz tadqiqotlar, ta'lim samaradorligi va istiqbolini belgilash yo'lidagi amalga oshirilgan tahlillar zamonaviy sharoitda an'anaviy ta'limning davlat tomonidan erkin, mustaqil va har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishga qo'yilayotgan ijtimoiy talabni qondirish imkoniyatiga ega emasligini ko'rsatmoqda. Takomillashgan ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarning ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Ayni vaqtda, deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda markazda o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchisi bo'lgan o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishga imkon beruvchi barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bunday sharoitlarga variativ ta'limning joriy etilishi va rivojlanishi hisoblanadi. G'arbdagi ko'plab ta'lim muassasalari o'z faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida uzoq vaqtdan buyon variativ ta'limdan foydalanib kelmoqda. Masalan, **Amerika** dunyodagi eng yirik ta'lim tizimlaridan biriga ega. AQSH ta'lim tizimi turli ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etiladi, bu yerda o'quvchilar yoshi, maqsadlari va qobiliyatlariga qarab turli darajadagi ta'lim olishlari mumkin[10].

Amerikada o'qish 5 yoshdan boshlanib, 18 yoshgacha davom etadi. Tuzilishi nuqtayi nazaridan Amerika maktab tizimi O'zbekiston xalq ta'limi tizimiga bir qancha o'xshash jihatlari bor. Jumladan, maktabga tayyorlov va boshlang'ich sinflarni birlashtiruvchi "boshlang'ich ta'lim" (1-5-sinf) kabi tushunchalar mavjud. Shuningdek, o'rta maktablar (6-8-sinflar) va yuqori maktablar (9-12-sinflar) ham bor.

O'rta ta'limning oxirgi bosqichi yuqori maktabdir (high school). 14 dan 18 yoshgacha bo'lgan yuqori maktab o'quvchilari uchun maktab muayyan fanga va kelajakdagi oliy ta'lim uchun tor doiradagi mutaxassislik profiliga qaratilgan keng miqyosli o'quv va fakultativ kurslarni taklif etadi. 9-12 sinf o'quvchilari sinf va fanlarni tanlashda erkindirlar.

Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarning individual iste'dodlarni rivojlantirish maqsadida qobiliyatlariga ko'ra sinflarga bo'linadi. Boshlang'ich maktabda o'qitiladigan fanlarni chuqur o'rganishga va uyga beriladigan vazifalarning murakkablik darajasi bog'liq holda iqtidorli va o'zlashtirish darajasi past bo'lgan o'quvchilar uchun alohida sinflar mavjud. Uchinchi sinfdan boshlab har bir bola maxsus imtihonlar topshiradi va ularning natijalariga ko'ra ta'lim berishda o'qituvchilar ma'lum bir fanlarga e'tiborlarini qaratadilar.

O'rta maktabda majburiy fanlarga matematika, ingliz tili, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar (shu jumladan, jahon tarixi) va jismoniy tarbiya fanlari kiritilgan. 8-sinfdan boshlab o'quvchilar o'qiydigan fanlarini mustaqil tanlashlari mumkin.

Yuqori maktabda o'quvchilar bir necha qo'shimcha sinflarda ta'lim olishlari mumkin. Bu yuqori talabga ega mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'limga kirish uchun zaruriy fanlardir: chet tillari, kompyuter grafikasi va veb-dizayn, informatika, robototexnika, jurnalistika, kinematografiya, teatr san'ati.

Yakuniy imtihonlarni topshirganlaridan so'ng, barcha o'quvchilar O'rta maktab bitiruv shahodatnomasini oladilar. Oliy ta'limda ixtisoslashuvi rejalashtirayotgan fanlar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishni istaganlar 13-sinfga – ilg'or maktablarga (Advanced Placement) borishlari mumkin. Ushbu dastur doirasida ta'lim olish Amerika Qo'shma Shtatlari universitetlari, Kanada, Buyuk Britaniya va 50 ko'proq mamlakatlar oliygohlariga kirishda 90%gacha imtiyoz beriladi.

Amerika ta'limining o'ziga xos xususiyatlaridan biri raqobatning yuqoriligidir, bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalari tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga majbur qiladi.



Yevropa mamlakatlarida maktab ta'limi majburiy va bepul bo'lib, xususiy maktablar bundan mustasno. Majburiy ta'lim 10 yil davom etadi, keyingi ikki yil (11-, 12-) oliy ta'lim dasturlariga tayyorgarlik bosqichi bo'lib, o'quvchilar o'z xohishlariga ko'ra qatnashishlari mumkin.

G'arb va O'zbekiston maktablarining o'rtasidagi asosiy farqlardan biri shundaki, ular o'quvchilarni katta miqdordagi umumiy fanlar bilan zo'riqtirmaydilar. Avvalboshdan, bolaga bir necha asosiy fanlar beriladi, ular atrofida ta'lim quriladi. Masalan, Buyuk Britaniya kollejlari ixtisoslashuv 14 yoshdan boshlanib, bunda bola o'z ambitsiya hamda qobiliyatlariga mos keladigan bir qancha fanlarni tanlaydi va o'quvchi oliy ta'limga kirish uchun kerak bo'ladigan atigi 3-4 ta akademik yo'nalish bo'yicha ta'lim oladi. Maktablarda o'qish muddati 11 yildan 13 yilgacha bo'lgan muddatni tashkil etadi. Yevropadagi o'rta maktabda kamida oxirgi ikkita yuqori sinfni tamomlab, yakuniy imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tish oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarisiz talaba bo'lish huquqini beradi.

13-14 yoshdan boshlab o'quvchilar o'z xohish-istaklari va kasbiy qiziqishlariga ko'ra fanlarni tanlash imkoniyatiga egadirlar. Odatda bunday fanlar 4-6 ta bo'lib, ular yanada chuqurroq o'rganiladi.

Agar kasb yo'nalishi hali aniqlanmagan bo'lsa, nufuzli oliygohlarda yuqori reytingga ega bo'lgan fanlarni tanlash imkoniyati mavjud.

G'arb ta'lim muassasasi mahalliy ta'limga nisbatan taqdim etilayotgan afzalliklar quyidagilardan iborat:

- jamoaviy amaliyot va loyiha faoliyatiga ko'proq e'tibor beriladi;
- ingliz yoki boshqa tilda doimiy muloqot qilish zarurati mavjudligi tufayli boshqa tillarni ham qiyinchiliklarsiz o'zlashtiradi;
- oiladan uzoqda yashayotgan bolalarga o'z-o'ziga ishonish, mas'uliyat va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;
- xorijiy o'rta ta'limdan keyin chet el olimlari kirish ancha oson. O'rta maktabda kasbga yo'naltirish ishlari juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu o'quvchi uchun ma'naviy jihatdan ham yaxshi, chunki bu holat, taxminan, uni kelajakda nima kutayotganini biladi;
- stereotipik fikrlash yo'qoladi va dunyoqarash kengayadi.

Yaponiya ta'lim xizmatlari ilm-fan va texnologiya yutuqlarini ta'limga tatbiq etishni nazarda tutadi. Yaponiya maktab tizimi uch bosqich bilan ifodalanadi: boshlang'ich maktabda o'quvchilar 6 yil, o'rta maktabda-3 yil, yuqori maktabda-yana 3 yil o'qiydilar.

Boshlang'ich maktabda yosh yapon bolalari matematika, yapon tili, tabiiy (kimyo va fizika boshlang'ich sinfdan o'rgatiladi) va ijtimoiy fanlarni (odobnoma, tarix va etika), uy xo'jaligini yuritish, musiqa, jismoniy tarbiya, shuningdek, tasviriy san'atni o'rganadilar.

O'rta maktab boshlang'ich maktab bilan bir xil fanlarni o'rganishda davom etadi, biroq qo'shimcha ravishda (maktabga qarab) ingliz tili va maxsus tanlov fanlari qo'shiladi.

Yuqori maktablarda o'quvchilarning ta'lim dasturi avvalgi bosqichlardan katta farq qilmaydi. Biroq, o'quvchilar muayyan mutaxassislik bo'yicha materialni o'rganishga ko'proq vaqt sarflashlari mumkin.

Umuman olganda, ta'lim dunyoda iqtisodiyotning eng tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan va istiqbolli sohalaridan biridir. Mutaxassislarning fikricha, dunyo bo'yicha ta'lim xizmatlariga talab va taklif hajmi juda sezilarli darajada o'smoqda va jadallik bilan rivojlanayotgan mamlakatlarda ularning yillik o'sish sur'ati 10-15% ga yetadi. Rivojlanish salohiyati va mantiqiyligi bilan ta'lim sohasi investorlar e'tiborini tobora ko'proq jalb etmoqda.

Xorijiy tajribada samarali tashkil etilgan variativ ta'lim muassasaning ijobiy imidjini shakllantirib, maktab bitiruvchilari va ularning ota-onalari uchun alohida e'tiborga sazovor qo'shimcha dasturlar ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Tahlil va tahlil natijalari muhokamasi. Variativ ta'lim dasturlari xorijiy mamlatlarda turlicha tatbiq etilgan bo'lib, mehnat bozorining ehtiyoji, zamon talabi va milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda shakllangan hamda ijtimoiy-iqtisodiy va milliy-madaniy sharoitlarni chuqur anglashni talab qiladi.

Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim sohasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni ijrosini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar va ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash, o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish, maktab o'quvchilarining oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rishlariga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida, Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi 405-son buyrug'i qabul qilindi. Unga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2019-2020-o'quv yilidan boshlab variativ o'quv rejalarni tajriba- sinovdan o'kazish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tatbiq etilgan variativ o'quv rejalarning o'quvchi-yoshlar hayotiy maqsadlariga to'g'ri kelishi, variativ dastur asosida tashkil etilgan ta'lim sifati va darajasidan qoniqishlari, variativ o'quv reja yo'nalishlarini bitiruvchilarning bo'lajak kasbi va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida Toshkent, Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahar maktab bitiruvchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazilib, aniqlangan muammolar tahlil qilindi. So'rovnomada Toshkent shahridan – 125, Farg'ona viloyatidan – 157 va Toshkent viloyatidan – 116, jami 398 nafar umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilari ishtirok etdi.




1-rasm. Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining ta'lim sifatiga baholari (%)

Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilari tajriba-sinov davomida maktabida olayotgan ta'lim sifatiga baho berish imkoniyatiga ega bo'ldilar. "Maktabingizda olayotgan ta'lim sifati Sizni qoniqtiradimi?" – degan savolga "qoniqaman" – degan javobni eng ko'p (80%) Farg'ona viloyati va eng kam (52%) Toshkent shahar bitiruvchilari, "qoniqmayman" – degan javobning eng ko'pini (13%) Toshkent shahar bitiruvchilari bergan.



2-rasm. Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining ta'lim sifatidan qoniqmaslik sabablari (%)


Olingan natijalar asosida umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining ta'lim va o'qishiga e'tibor va qiziqishlarini uyg'otish, kasb tanlashga yo'naltirish va mustaqil hayotda o'z o'rnini topish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.



3-rasm. Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining kasb tanlashlaridagi ustuvor omillar %

Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining kasb tanlashlaridagi ustuvor omil sifatida ishning ommabop, hozirgi davrda talab yuqori bo'lgan kasb bo'lishi (66,3%), ikkinchi o'rinda maoshi yuqori bo'lishi (48,4%) hamda keyingi o'rinlarda ish joyidagi qulay shart-sharoitlari (38,2%) va yuqori lavozimga ko'tarilishi (28,0%) deb belgilangan (3-rasm). Shahar va qishloq joylaridagi maktab bitiruvchilarning kasb tanlashdagi asosiy omillari birmuncha farqlanadi: shahar yoshlari (39,6%) yuqori maosh olishni kasb tanlashdagi asosiy omil deb ko'rsatishgan bo'lsa, qishloq maktab bitiruvchilari (34,5%) ish joyidagi qulay shart-sharoit tanlaganlar. Bunday natijani shaharlarda aholi ko'p qavatli uylarda istiqomat qilishi va uy-joy kommunal to'lovlar yuqoriligi hamda qishloq joylarning o'zida dehqonchilik va chorva mahsulotlari yetishtirilganligi bois narxlar birmuncha pastligi, oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyatini sotib olishga ehtiyojlari yo'qligi bilan izohlash mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilari iqtisodiyot tarmoqlari kesimida quyidagi ustuvor sohalarni tanlashdi: ta'lim sohasi (16,8%), sog'likni saqlash (13,6%), moliya, bank, kredit, sug'urta (10,1%), savdo va oziq-ovqat (9,4%), tadbirkorlik, biznes (8,3%), aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (5,8%), huquqni muhofaza qilish organlari (4,9%). (4-rasm).



4-rasm. Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining iqtisodiyot tarmoqlari kesimida tanlagan sohalari, %

Umuman olganda, maktab bitiruvchilarining tadbirkorlik, sanoat, va aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, turizm sohasida ishlash niyatlari davlatimiz iqtisodiy dasturining ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Tadbirkorlik, sanoat, aloqa va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, turizm sohasida ishlashning nufuzli ekanligi borasida bitiruvchilar ehtiyojini o'rganish ta'lim xizmatlari marketingining vazifasi bo'lib, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq. Bitiruvchilar kasb tanlashlari, mehnatga munosabatlari ularning ijtimoiy barkamolligi va javobgarlik darajasini aniqlab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchi-yoshlarning mehnatga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar asosida bugungi kun yoshlari kelajak hayotining muhim tanlovi bo'lgan mehnat foliyatini yo'nalishlarini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 9-sentabrdagi 293-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 2019-2020-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja asosida o'qitiladigan (odatdagi, an'anaviy) 10-11-sinflar bilan birga, variativ (o'zgaruvchan) o'quv reja asosida o'qitiladigan 10-11-sinflar (keyingi o'rinlarda tanlov sinfi deb yuritiladi) uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etilgan:

birinchi yo'nalish: xorijiy til va filologiya yo'nalishi;

ikkinchi yo'nalish: moliya – iqtisod yo'nalishi;

uchinchi yo'nalish: texnologiya yo'nalishi;

to'rtinchi yo'nalish: tabiiy fanlar yo'nalishi;

beshinchchi yo'nalish: ijtimoiy-gumanitar yo'nalish.

Tanlov sinfi yo'nalishi 10-, 11-sinflar kesimida o'quvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali aniqlandi. Bunda, bir nafar o'quvchi faqat bitta yo'nalishni tanladi.

Tanlov sinfida variativ (o'zgaruvchan) o'quv rejani tajriba-sinovdan o'tkazishda quyidagi 8 ta majburiy fan o'qitildi: ona tili va adabiyoti, o'zbek tili/rus tili, o'het tili, tarix, matematika, informatika, ma'naviyat asoslari, jismoniy tarbiya. Mazkur majburiy fanlarga ajratilgan soatlarning miqdori tayanch o'quv rejada belgilangan miqdordan (10-sinfda jami 19 soatdan, 11-sinfda 19,5 soatdan) kam bo'lmasligi belgilandi.

An'anaviy sinf 15 ta majburiy fanni, tanlov sinfi 8 ta majburiy fanni o'qishi belgilangan.

Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 15-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarni tajriba-sinovdan o'tkazish bo'yicha tavsiya" to'g'risidagi 144-son buyrug'i asosida 2020-2021-o'quv yilida 7-8-9-10-11-sinflarida tanlov sinfini tashkil etish uchun tashkil etish uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etilgan:

1-yo'nalish:	10-11-sinf	xorijiy til va filologiya yo'nalishi
2-yo'nalish:	10-11-sinf	moliya - iqtisod yo'nalishi
3-yo'nalish:	7-8-9-10-11-sinf	vab-frilanser (internet tarmog'i orqali mehnat daromadi olish) yo'nalishi
4-yo'nalish:	10-11-sinf	texnologiya yo'nalishi;
5-yo'nalish:	10-11-sinf	tabiiy fanlar yo'nalishi
6-yo'nalish:	10-11-sinf	ijtimoiy-gumanitar yo'nalish
7-yo'nalish:	10-11-sinf	boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
8-yo'nalish:	10-11-sinf	kimyo texnologiya yo'nalishi
9-yo'nalish:	10-11-sinf	geografiya va geologiya yo'nalishi
10-yo'nalish:	10-11-sinf	maktabgacha ta'lim va psixologiya yo'nalishi
11-yo'nalish:	10-11-sinf	tarix va arxeologiya yo'nalishi
12-yo'nalish:	10-11-sinf	turizm yo'nalishi

Xulosa va takliflar. Taqdim etilayotgan 12 ta variativ o'quv reja yo'nalishlari, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha amaldagi tizimni o'rganish natijasida quyidagi muammolar aniqlandi:

- taqdim etilayotgan 12 ta variativ o'quv reja yo'nalishlari zamonaviy kasblarni egallashga yo'naltirilgan bo'lib, asosan, shaharda keng tarqalgan kasblarni qamrab olgan hamda hududning o'ziga xos xususiyatlari, milliy hunarmandchiligi inobatga olinmagan;
- variativ o'quv reja asosida ta'limni tashkil etishda pedagogik kadrlar yetishmaydi;



- dars jarayonida amaliy mashg'ulotlarning deyarli o'tilmasligi, amaliyot va hayot bilan bog'lanmaganligi, berilgan materialni yodlash bilan cheklanib qolinmoqda;
- o'quvchilarni kasbga tayyorlashda hududning mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji o'rganilmagan.

Bundan tashqari, variativ o'quv reja asosida ta'limni tashkil etish uchun darsliklar yaratilmaganligi, sinfda o'quvchilar soni ko'pligi tufayli ular bilan individual ishlash imkoniyati mavjud emasligi, variativ o'quv reja asosida ta'limni tashkil etish uchun maktabning moddiy-texnik bazasi qoniqarli ahvolda emasligi, XTV tomonidan tanlov fani doirasida belgilangan "Khan Academy O'zbek – Onlayn ta'lim platformasi" ta'lim resurslaridan internet tarmog'i mavjud bo'lmagan hamda olis hududlarda foydalanish imkoniyati mavjud emasligi ham variativ ta'limni sifatli joriy etishda yechim topish lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, variativ ta'limni tashkil etishda quyidagi vazifalar qo'yilishi lozimligini ko'rsatadi:

- shaxs rivojlanishining madaniy va tarixiy psixologiyasida, rivojlanish, individual va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyalarida mavjud bo'lgan ilmiy shart-sharoitlarni o'rganish;
- pedagogikada variativ ta'lim tajribasidagi tendensiyalarni tarixiy-pedagogik tahlil qilish;
- umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarining ta'lim va o'qishga qiziqishlarini uyg'otish, kasb tanlashga yo'naltirish hamda mustaqil hayotda o'z o'rnini topish mexanizmlarini takomillashtirish;
- variativ ta'limni tashkil etish shart-sharoitlarini aniqlash, o'quvchi shaxsining individual rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- yuqori sinflar uchun variativ ta'lim yo'nalishlarining muqobil variantlarini ishlab chiqish;
- sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tizimli muammolar bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqish;
- amaliy mashg'ulotlar hajmini yanada oshirib, ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlari integratsiyalashuvining aniq mexanizmlarini ishlab chiqish;
- maktab bitiruvchilarining kelajak maqsadlari, rejalari, kasb tanlashi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, ta'lim imkoniyatlarini doimiy oshirishga qaratilgan umumta'lim maktablarida ta'lim xizmatlari marketingini tashkil etish.

Maktab bitiruvchilarining kelajak maqsadlari, rejalari, kasb tanlashi, ta'lim imkoniyatlarini doimiy oshirishga doir masalalar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning davlat dasturlarini tayyorlash va amalga oshirishda, shuningdek, yoshlar siyosatiga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqishda hisobga olinishi lozimligini ko'rsatadi.

Mazkur tahlillardan xulosa qilgan holda, har tomonlama rivojlangan, mustaqil hayotga tayyor bo'lgan komil insonni tarbiyalashda milliy ta'lim tizimini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabridagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi 405-son buyrug'i.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 9-sentabrdagi 293-sonli buyrug'i.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 15-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarni tajriba-sinovdan o'tkazish bo'yicha tavsiya" to'g'risidagi 144-son buyrug'i.
6. Дони́на И. Концепция и маркетинговая стратегия развития школы как общеобразовательной организации. Дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.01 : Великий Новгород., 2015 г. 475 с.
7. Шемя́тихина К.С. Управленческая деятельность как профессия: подходы и ресурсы менеджера // Актуальные вопросы современной науки. 2011. № 20. С. 102-109.



KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH MASALALARI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

MAKTAB O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISH MEXANIZMLARI VA JAHON TAJRIBASI

Muzaffarjon Mansurov,

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti

yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimining o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, bu boradagi tajribasi va ustuvor yo'nalishlari hamda xorij mamlakatlardan Xitoy, Singapur, Yaponiya, AQSH, Finlandiya kabi mamlakatlarning kasbga yo'naltirish bo'yicha tajribalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar

iqtidor, qobiliyat, iste'dod, qiziqish, psixolog.



Аннотация

Опыти и приоритеты системы народного образования Узбекистана в этом отношении, а также опыт зарубежных стран в сфере профориентации Китая, Сингапура, Японии, США, Финляндии.

Ключевые слова

Талант, способность, талант, интерес, психолог.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasida o'quvchilarda kasbiy tafakkurni shakllantirish orqali ularni ongli ravishda mustaqil kasb-hunar tanlashga tayyorlash ta'lim jarayonining mazmuni sifatida e'tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "yoshlarga sifatli ta'lim berish va malakali kadrlar tayyorlash" dolzarb vazifa sifatida belgilab o'tilgan. Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, fuqarolik jamiyatida o'quvchilarni ongli ravishda mustaqil kasb-hunar tanlashga tayyorlash jarayonini samaradorligiga erishish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. Umumta'lim maktabida o'quvchilarni kasb-hunarni to'g'ri tanlashga yo'naltirish ishlarini tashkil etish umumiy o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi [1.].

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularni mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini ham shakllantirib borish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda, maktab ta'limi jarayonida zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish hamda yoshlar orasida o'zini-o'zi band qilish kabi mehnat shakllarini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi[2.].

O'quvchilarga kasblar to'g'risida ma'lumotlar berish o'quvchi va ota-onalarning xohish-istaklari, kasbga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, malakali kasbiy maslahatlar berishni tashkil etish asoslari ishlab chiqildi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi yo'lga qo'yildi[3.]. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-

hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish, o'quvchilarda kasbiy bilimlarni va motivatsiyani, ijtimoiy hayotdagi kasbiy olamga moslashuv va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida "Kasblar oyligi" o'tkazish tartibi ishlab chiqildi va tasdiqlandi[4.].

Mamlakatda masofaviy mehnat shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalari bitiruvchilari va yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun sharoitlar yaratish hamda qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning har tomonlama yetuk malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash maqsad qilingan [5.].

Kasb tanlashda o'quvchi ijtimoiy kelib chiqishi, imkoniyati va qiziqishi asnosida yondashishi kerak. Hozirgi kunda ko'pgina ota-onalar farzandining kasb tanlashida ularning qiziqishiga emas, balki kasbning moliyaviy tomoni va obro'siga e'tibor qaratadi. Har bir o'quvchining aynan bir fan yoki mashg'ulotga qiziqishi ko'proq bo'ladi. O'qituvchilar bu qiziqishlarni vaqtida anglay bilishi kerak. Fanning yutuq, kamchilik, qiyinchiliklari haqida o'quvchilarga batafsil ma'lumot berish va ushbu fan orqasidan qanday kasblarda mehnat faoliyatini olib borish mumkinligini tushuntirish zarur[6.].

Kasb-hunarga yo'naltirish o'quv-tarbiyaviy ishlarining qismi sifatida ko'riladi. Kasb-hunar tanlashga tayyorgarlik esa shaxsga jamiyat tomonidan ta'sir etuvchi bir tarbiyaviy tizim asosida ko'riladi. Maktab, oila, mahalla va ishlab chiqarishning hamdo'stligi yosh avlodni yangi ruhda tarbiyalashning asosiy prinsipi hisoblanadi[7.].

Maktabning ota-onalar bilan o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimidagi ishi eng muhimidir. Ota-ona farzandlarining hayotiy kasb rejalarini belgilashlarida faol ishtirok etadi. Hamma ota-onalar ham farzandlar istak va xohishlarini bilavermaydi. Kasbga yo'naltirish, o'quvchi-yoshlarning ma'lum sohadagi muayyan bilim-ko'nikmalarini izchil amalga oshirish, dolzarb muammolardan biridir[8.].

Kasb-hunarga yo'naltirishning xorij tajribasi ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasida o'quvchilarni maktab davridan kasbga yo'naltirishga alohida ahamiyat qaratgan. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish uchun, eng avvalo, mehnat bozori talablari o'rganib chiqilib, talablar doirasida takliflar ishlab chiqishga e'tibor qaratiladi. Maktablarda kasb-hunarga yo'naltirish ixtiyoriy ahamiyatga ega bo'lib, qishloq xo'jaligidagi mehnatning og'irligi o'quvchilarning shaharga intilishi hamda zamonaviy kasblarni o'zlashtirishlariga ehtiyoj uyg'otdi.

Xitoyda 1987-yilda ilk bor o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va karyerani belgilashning xitoy modelini ishlab chiqildi. Xitoy modelining asosiy xususiyati o'quvchilarda kasblar haqida bilish darajasini oshirishdan iborat. Xitoy maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Mehnatsevarlik ulug'lanadi hamda davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan.

Maktablarda ota-onalarning istaklari ham inobatga olinadi. Xitoy maktablarida, Yevropadan farqli o'laroq, o'quvchilar ongiga ota-onaga itoat ruhi singdirib boriladi. Kasb-hunar bo'yicha o'qituvchilar, eng avvalo, ota-onalar bilan maslahat qiladi.

Yoshlar uchun uzoq istiqbolli karyerani ta'minlashda yaqinlarining qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Kasb tanlashda ijtimoiy holatni hisobga olishga ham alohida ahamiyat berilgan.

Karyeraga o'quvchilarni qiziqtirishning nazariy asoslari ishlab chiqilib, quyidagicha tavsiflanadi:

birinchidan, o'z-o'zidan qoniqish va muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili hisoblanadi;

ikkinchidan, natijakorlik demakdir;

uchinchidan, qiziqishlarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi.



Xitoy alohida an'analarga ega bo'lsa-da, globallashtirish hamda xorij mamlakatlari tajribasi ham inobatga olingan. Bu esa raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, axloqiy qarashlar inobatga olinadi. Xitoyda kasbga yo'naltirish jarayoni maktablar bilan bir qatorda, mehnat vazirligi quyi bo'g'inlari bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilgan. Kasbga yo'naltirish ishlari bilan markaz xodimlari, o'qituvchi va o'quvchilarga trening darslar tashkil etiladi. Bu mamlakatda mehnat va ish taqsimoti turlicha bo'lganligi sababli, kasblarga intilish ham turli mintaqalarda turlicha taqsimlangan. Maktab psixologlarining kasbiy psixologiya ko'nikmasi ta'lim ko'nikmasi bilan birga singdirilgani uchun, ularning o'quvchilarni muayyan sohaga yo'naltirishlarida muammolar bo'lmaydi.

Psixolog kasbga yo'naltiruvchi asosiy vositachi hisoblanadi. Ayollarni kasbiy yo'naltirish ishlariga alohida ahamiyat qaratiladi, chunki xitoy ayollari oila qurgunga qadar ma'lum kasb egasi bo'lishi shart bo'lib, oila qurgach, oliy o'quv yurtlarida o'qish imkoni mavjud emas.

Tanlagan kasbida eng yuqori muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin bo'lgan cho'qqi haqida ham o'quvchilarni ruhlantirish ishlari amalga oshirilganligi tufayli o'quvchilarda, hech qanday kasbiy karyerada tushkunlik yoki stresslar sodir bo'lmaydi, o'zining mehnat bozorida o'rnini topa olishi uchun ishtiyoqni oshirishga e'tibor qaratiladi. Xitoyda kasblar va ularning oylik maoshlari statistikasi doimiy yuritiladi. Bu esa o'quvchilar uchun asosiy ko'rgazmali qurol vazifasini bajarishi

o'laroq, o'quvchilarni moddiyat bilan bog'liq holda rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Chunki raqobat o'ta kuchli bo'lgan Xitoydek davlatda o'z o'rnini topish juda qiyin masala hisoblanadi.

Xitoyga tegishli Gonkongda o'quvchilarga kasbga yo'naltiruvchi maxsus mutaxassislik mavjud. Gonkongda o'quvchilar, asosan, aniq fanlar kesimida o'qitishga hamda zamonaviy kasblar tanlashga alohida ahamiyat qaratgan. Bu yerda kasbga yo'naltirish ko'proq Xitoy an'analari bo'yicha emas, aksincha, AQSH an'analari asosida shakllangan. Gonkongda asosan o'qituvchilar loyihalarini rag'batlantirishga hamda ta'limga berilgan katta e'tibor natijasida o'quvch-yoshlarning hayotda o'z o'rnini topish darajasiga ijobiy ta'sir qilgan[9].

Finlyandiyada o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga alohida ahamiyat qaratiladi. O'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi maxsus maslahatchilar mavjud bo'lib, ular ota-ona va o'quvchilar o'rtasida vositachi hisoblanadi. O'quv dasturlari bevosita kasbiy ta'lim bilan integratsiya qilish asosida amalga oshiriladi. Kasbga yo'naltirish ishlari ta'lim tizimi bilan bir qatorda, bandlik markazlari bilan hamkorlikda ish olib boriladi.

O'quvchilar bilan ijtimoiy moslashuv hamda kasbga yo'naltiruvchi markazlar muntazam aloqasi yo'lga qo'yilgan. O'quvchilarni kasbiy yo'naltirish barobarida, ularni ruhiy qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratilgan. Kasbga yo'naltirish ishlari davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Finlyandiyada o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha bugunga qadar to'liq strategiya ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, mazkur jarayon davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi[10].

Finlyandiyada o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda globallashtirish hamda tashqi ta'sir, ichki rivojlanish imkoniyatlari doirasida muntazam mavjud yo'nalishlar yangilab boriladi. Kasbiy rivojlanish dasturlari har ikki yilda yangilanadi. O'quvchilarda tavakkalchilik hamda ijodkorlik rivojlantiriladi. Bu mamlakatda qadriyatlarga hamda tarixga hurmat alohida shakllantiriladi. O'quvchilar kasb tanlashda ixtiyoriy bo'lib, ularning xohish-istaklari inobatga olinadi. Mavjud iqtidoriga qarab psixologlar tomonidan yo'naltiriladi. Mamlakatda ishsizlik darajasi bor-yo'g'i 13 foizni tashkil etadi, ammo bu ham doimiy ko'rsatkich hisoblanmaydi. Mamlakat kelajagiga ishongan yosh avlod esa o'zi qiziqqan sohada faoliyat olib borishni maqsad qilib oladi. O'quvchilar an'anaviy hunar turlariga emas, aksincha, zamonaviy kasblarga ko'proq yo'naltirish orqali ularning kasbiy ko'nikmalarini globallashtirish jarayonlariga moslab boriladi.

Fin o'quvchilari, asosan, IT texnologiyalari, biznes hamda ijodiy yo'nalishlarga ruhlantiriladi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda barcha o'qituvchilar birdek mas'ul. Bu, eng avvalo, inson kapitaliga berilayotgan e'tiborning alohida ko'rinishi hisoblanadi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish boshlang'ich sinfdanoq amalga oshiriladi.

O'quvchilar o'rtasida tengsizlik va mehnat bozorida o'z o'rnini topishi uchun mamlakat bo'ylab kambag'al aholi qatlami uchun maxsus 400 ta kasb markazlari tashkil etilgan. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha barcha maktablarda turli seminarlar muntazam ravishda tashkil etib boriladi. Maktab rahbariyatining kasbiy komponentlaridan biri ham o'quvchilarning hayotda o'z yo'lini topishlarini muvofiqlashtirish hisoblanadi[11].



Finlyandiyada o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ota-onalar bilan ham alohida ish olib boriladi hamda o'quvchi qobiliyatini rivojlantirish uchun oilada barcha shart-sharoit yaratiladi. Haftada ikki soat kasbga yo'naltiruvchi alohida darslar mavjud. Umumiy haftalik yuklama soati 38 soatni tashkil etadi. Maktab – kollej – universitet aloqasi mustahkam bo'lib, g'arb mamlakatlari amaliyotidan tubdan farq qiluvchi tomonlari ham mavjud. Bu yerda nafaqat o'qituvchi qo'llab-quvvatlanadi, balki o'quvchiga mustaqil shaxs sifatida qaralganligi tufayli ham ularning kelajakda o'z yo'lini topishida qiyinchiliklarga kam duch kelinadi. Chunki ularda yoshlikdan kattalarga qanday munosabatda bo'linsa, kelajakda o'zlariga ham shunday munosabat bo'lishi mumkinligi orqali hayotiy tajribasi mustahkamlangan[12.].

Yaponiya iqtisodiyoti rivojlangan bo'lib, inson kapitalini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratmoqda. Yaponiya maktab bitiruvchilarining 98,6 foizi o'z kelajakdagi kasblarini to'g'ri tanlay oladi. O'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish ishlariga bevosita maktablar javobgar hisoblanadi. Yaponiyada "yaxshi maktabdan yaxshi kompaniyaga" iborasi keng tarqalgan. Barcha maktablarda boshlang'ich sinfdan o'quvchilar kasbiy ko'nikmalar shakllantiriladi. Boshlang'ich sinflar 6-sinfgacha davom etadi.

7- sinfdan esa maxsus kurslar joriy etiladi hamda kasbga yo'naltiruvchi fanlar kiritilgan. Yaponiyada kasbiy kompetensiya va mehnat qadriyatlarini uyg'un ravishda olib boriladi hamda bu yapon milliy mentalitetining xususiyatlaridan biri sanaladi. Yaponiyada kasbga yo'naltirish tushunchasi 1915-yilda kiritilgan bo'lsa, kasbga yo'naltirish bosqichi 1957-yilgacha, kasbiy ta'lim bosqichi 1999-yilgacha davom etgan. Yapon olimlari, agar yapon ta'lim tizimi taqqoslanishga ehtiyoj tug'ilsa, faqatgina AQSH ta'lim tizimi bilan qiyosiy tahlil qilish mumkin, deb baho beradilar [13.].

Germaniyada o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari federal hukumatlar tomonidan nazorat qilinadi. Barcha maktablarda psixologik maslahatxonalar tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilarning qobiliyatlari, iqtidorlarini hisobga olgan holda ularni turli kasblarga yo'naltirish bilan shug'ullanadi. Maktablarda kasbiy ta'lim o'quv dasturlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Germaniya maktablarida bandlik markazlari bilan doimiy aloqa yo'lga qo'yilgan bo'lib, bandlik markazi xodimlari muntazam maktablarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etib keladi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda maktab psixologi muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, maxsus treninglar tashkil etilib, kasblar bo'yicha gid amaliyotchilar xizmatlari tashkil etilgan. Ijtimoiy ahvoli og'ir o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha alohida yo'nalishda ishlar tashkil etilgan. Kasbga yo'naltiruvchi o'quv qo'llanmalar nashr etib boriladi. Germaniya xorij mehnat bozoriga ham malakali kadrlar tayyorlab berishga ham alohida ahamiyat beriladi. O'quvchilarning kasbiy kompetentlarini oshirish bilan bir qatorda, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda ham kasbiy rivojlanish bo'yicha alohida ko'rsatuv hamda veb saytlar orqali ham targ'ib qilib boriladi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha maxsus uzluksiz konsepsiya ishlab chiqilgan [14.].

O'quvchilarni, asosan, xizmatlar sohasiga yo'naltirishga harakat qilinadi. Chunki Germaniya mavjud ish o'rinlarining 60 foizi aynan xizmatlar sohasida yaratilmoqda.

Buyuk Britaniya maktablarida o'quvchilarning katta qismi kasbga yo'naltiruvchi xususiy o'quv dasturlari orqali kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga harakat qilinadi. Kasbga yo'naltirish ishlari ko'proq 16 yoshdan boshlab amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada bandlik markazlari maktablarda o'quv treninglar o'tkazadi. Kasbiy ko'nikmalar aslida boshlang'ich sinflardan shakllantirib boriladi. Kasbiy ta'lim asosiy ta'lim tizimi bilan uzviylikda, ya'ni dual tizimda shakllantirilgan. O'quvchilarning o'zi tanlagan kasbga sadoqat bilan ishlash ko'nikmalari bilan bir qatorda, ustoz-shogird an'anasi saqlanib qolgan. Maktab davridan o'quvchilarda turli hunar ko'nikmalari ham shakllantirilib, ularning shaxsiy qiziqishlari ham inobatga olingan. 8-sinfdan boshlab o'quvchilar bilan kasbiy testlar o'tkazish amaliyoti joriy qilingan. Shuningdek, kasbga moslashuvchanlik ko'nikmalari ham shakllantirilib, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga barcha o'qituvchilar uchun birdek mas'ul hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minot markazlari o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, ayniqsa, nogiron va ijtimoiy ahvoli og'ir bo'lgan aholi farzandlarining hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashadi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligi davlat tomonidan moliyalashtiriladi. O'quvchilar ongiga kelajakka ishonch ruhi singdirilgan. Yoshlarni ishlashga o'rgatish modeli ishlab chiqilgan bo'lib, ishlab chiqarish va maktablar o'zaro integratsiyasi ta'minlangan. Kasblar haqida o'quv qo'llanmalar nashr etilgan. O'quvchilarga mehnat muhofazasi ham alohida dars sifati o'rgatiladi. O'quvchilarga kasblar haqida tushunchalar Yevropa ittifoqi standartlari asosida tushuntirilgan. 12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, bunda o'qituvchi va psixologlar o'quvchilar qiziqishini inobatga olgan holda, ota-onalar bilan muntazam suhbatlar tashkil etib borgan. O'quvchilarning kelajakda qanday yuqori darajalarga erishishlari uchun bevosita ota-onalar va ularning bola uchun ajratib bergan shart-sharoit yaratib berishlari bilan ahamiyatlidir. Barcha maktablarda maslahatchi lavozimi bo'lib, ular bevosita o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bilan shug'ullangan. Kasbga doir ma'lumotlar bilan ingliz yoshlari, asosan, internet ma'lumotlari asosida tanishadi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchilarga ta'lim bilan bir qatorda, ularni kasbga yo'naltirish siyosat darajasiga ko'tarilgan. O'quvchilarni muayyan kasbga yo'naltirish jarayonida ularni ishga qabul qilish va o'zaro ish beruvchi bilan suhbatlashish etikasi ham o'rgatib borilgan. Kasbga o'rgatish alohida fan sifatida o'qitilgan. O'quvchi o'zi qiziqqan kasbning tanlashi bu mehnat unumdorligi hamda raqobatbardoshlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Barcha guruhlar uchun ajratilgan murabbiylik yo'riqnomasi mavjud bo'lib, ushbu yo'riqnomada o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ham alohida qayd etilgan. Guruh rahbari o'quvchi va ota-ona o'rtasida advokat vazifasini bajarib, u kelajak ko'nikmalarini rivojlantirishga va taraqqiyot yo'llarini belgilashga xizmat qilgan.

Singapurda, asosan, ta'lim sohasini moliyalashtirishga alohida ahamiyat qaratilgan. Maktab o'quvchilariga potensial kapital sifatida qaratilganligi tufayli ham Singapur bugungi taraqqiyot darajasiga ko'tarila oldi. O'quvchilar uchun alohida muvaffaqiyat ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.



Singapur, ayniqsa, kam ta'minlangan oila farzandlarining o'z yo'lini topishlariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'quvchilarni kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va malakali kadr qilib yetishtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Har bir o'quvchiga alohida mo'ljallangan test tizimlari mavjud bo'lib, bu o'quvchilarni qobiliyat va iste'dodlarini aniqlashga xizmat qilgan. Bunday tadqiqotlar o'quvchilarning xohish-istaklarini inobatga olgan holda, muntazam yangi dasturlar ishlab chiqish va taraqqiyot strategiyalarini belgilashga alohida ahamiyat qaratilgan.

AQSHda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlariga alohida ahamiyat qaratiladi. O'quvchilarning kasbiy maqsadlarini aniqlash orqali to'g'ri yo'naltirishga asoslangan metoddan foydalaniladi. O'quvchilar muntazam mehnat yarmarkalariga ekskursiyalar tashkil etish orqali kasblar hamda ularning oylik maoshlari haqida qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Ota-onalarning o'quvchilarning kasb tanlash erkinligiga aralashishlarining oldini olishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Ota-onalarning xohishlari bilan emas, balki o'quvchi o'z irodasi bilan kasb tanlagandagina yaxshi natijalarga erishishi mumkin. AQSH da o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga beriladigan e'tibor ularning kasbiy komponentlari rivojlanishiga xizmat qilishi aniqlangan. Ammo shu bilan bir qatorda, bir qancha muammolar ham aniqlanganki, ish yuklamasining ko'pligi, maktab sohasiga yanada ko'proq e'tibor zarurligi ko'rsatilgan[15.].

Kanadada o'quvchilarni kasbga yo'naltirish hamda ularni mehnat bozorining ajralmas qismi qilib tayyorlashga alohida ahamiyat qaratiladi. Jumladan, Kanadada o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari nazorati federal hukumat tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, maktablarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni nazorat qiluvchi Kengash mavjud bo'lib, bu o'quvchilarni yo'naltirish bilan bir qatorda, kelgusida qaysi yo'nalishlarda ish o'rinlarini egallash haqida strategik tadqiqotlar amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa aholi bandligini to'liq ta'minlash bilan bir qatorda, mehnat bozori va maktab integratsiyasini ta'minlaydi.

O'quvchilarga kasbiy tushunchalar bevosita boshlang'ich sinflardan boshlab berila boshlanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish haqida axborot texnologiyalari asosida yaratilgan turli videokontentlar yaratilgan. Shuni qayd etish lozimki, Kanadada kasbiy ta'lim uzoq yillik tajribaga ega emas. Ammo tizimli tarzda tashkil etilgan. Kanadada maktablarda o'quvchilar uchun kasbiy yo'l-yo'riq ko'rsatish, kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lgan. 8-sinf o'quvchilari mavjud kasblar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, allaqachon eskirgan. Bugungi kun talablariga mos mexanizm yaratish va zamonaviy va istiqbolli kasblarga o'quvchilarni yo'naltirish hamda kasblar to'g'risida o'quvchilar xabardorligini oshirish maqsadida xorij mamlakatlarining ilg'or tajribalaridan milliy xususiyatlarimizni inobatga olgan holda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar

1. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/940/html/>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/uvchilarni-kasbga-y-naltirishda-oila-ma-alla-va-talim-muassasalarining-amkorligi-masalalari/viewer>
3. <https://kun.uz/26149411>
4. <http://asrnews.uz/6867/>
5. <https://th-th.facebook.com/uzedu/posts/2790548034553804>
6. <https://oqdaryoovozi.uz/tu/5311-pedagog-minbari.html>
7. <http://od-press.uz/xabarlar/5487>
8. <https://hub.hku.hk/bitstream/10722/216045/1/Content.pdf?accept=1>
9. https://www.ess.gov.si/_files/4250/raimo_vuorinen_guidance_qualityfinland.pdf
10. <https://journals.pan.pl/Content/109808/PDF/07%20Suwalska.pdf>
11. <https://vamlas.fi/wp-content/uploads/2018/03/from-school-to-work.pdf>
12. <https://trace.tennessee.edu/cgi/viewcontent.cgi?referer=&httpsredir=1&article=1020&context=internationaleducation>
13. https://www.forumberatung.de/cms/upload/English/nfb_2014_Career_Guidance_in_the_Life_Course.pdf
14. https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/966252/International_Approaches_to_Careers_Interventions_March_2021.pdf



KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH MASALALARI



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARI UCHUN KASB HAQIDA TUSHUNCHA VA KASBIY MOTIVATSIYA

Gulzoda Tashmatova,

Guliston Davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada kasb haqida umumiy tushunchalar, kasbiy motivatsiya berish usullari va pedagogik-psixologik jihatlari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy motivatsiyasini baholash yo'llari va tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar

Kasb, motivatsiya, ta'lim, sinf, tarbiya, muloqot, suhbat, so'rovnoma, pedagog, tarbiyachi, psixologiya, maktab, yosh davrlari, individual xususiyatlar.



Kasbiy psixologiya tushunchasining asosiy maqsadi – boshlang'ich ta'lim jarayonidan boshlab o'quvchilarga kasb egalari sifatida kasb haqida umumiy tushunchalar (albatta, yosh davrlariga asoslangan holda) tanlagan mutaxassisliklariga bo'lgan jamiyatning ma'naviy ehtiyojlari, turli kasblardagi professional mehnatning mazmuni, kasbning insonga qo'yadigan psixologik talablari (professiogramma), kasbga nisbatan shaxsdagi psixologik imkoniyatlar (psixogramma), mehnat sharoitlari, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga tanlangan kasbning mosligi, kasbni egallash mumkin bo'lgan o'quv muassasasida bo'lg'usi kasb egasi shaxsiga qo'yiladigan talablar, kasb etikasi, odobi, malakasi, professional yo'nalganlikning psixologik tabiati, turli kasbiy ixtisosliklarning xarakteri va o'ziga xosliklari to'g'risidagi bilimlarning pedagogik-psixologik asoslarini yetkazishdir. Bunda kasb haqidagi ilk tasavvurlar va tushunchalarning bola ongiga yetkazilishida quyidagi maqsad hamda vazifalarni o'z oldiga qo'yadi:

- Bolalarga o'zlari qiziqish bildirgan kasblarning mohiyati, kasb haqida tushunchalarning paydo bo'lishi va mehnat psixologiyasining taraqqiy bosqichlarini sodda va ravon tilda tushuntirib berish;
- O'zlari tanlagan kasbning qiziqishlari doirasidan kelib chiqib tanlashlari kerakligini tushuntirish;
- Kasblarning psixologik mohiyati hamda milliy istiqlol g'oyalari asosida jamiyat oldidagi ahamiyatini to'la anglatish;
- Tanlangan kasbning professional yo'nalish sifatidagi jamiyatda tutgan nufuzi va ahamiyatiga xolis baho berishga o'rgatish;
- Har bir o'quvchining tanlangan kasbi to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirish, boyitish;
- Kasb etikasi, odobi, professional axloq tushunchalari doirasida tanlangan kasbning murakkab qirralarini jamiyatda barqaror bo'lgan qadriyatlar va ma'naviy mezonlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish, kasbga sadoqat tamoyillarini belgilash va boshqa qator tadbirlarni ko'zlagan holda amalga oshiriladi.

Muhim tomonlaridan biri, ushbu jarayonlarni bola ongiga yetkazib bera olishda pedagog va tarbiyachilardan talab etiladigan mahoratlar, ko'nikmalar hamda bolajonlarning fiziologik va aqliy rivojlanishlaridan kelib chiqqan holda, ularga to'g'ri munosabatda bo'lishlari talab etiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan maqsad va vazifalarni yetkazishda, ularni bajarish jarayonida bolalar bilan turli davra suhbatlari, qisqa so'rovnomalar, anketalar, ota-onalar bilan bolajonlar ishtirokida savol-javoblar va albatta, harakatli o'yinlardan tashkil topgan metodikalar, treninglar orqali ularga kerakli ma'lumotlarni yetkazish zarur. Ota-onalarning o'z bolalari bilan mashg'ul bo'lgan vaqtlarini inobatga olgan holda, ular bilan o'z farzandlarining qiziqishlarini o'rganish va shu o'rganishlar asnosida boladagi aynan bir yoki bir nechta kasbga bo'lgan qiziqishlarini aniqlab olish talab etiladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalardagi xarakter aksentuatsiyasidan kelib chiqqan holda, ulardagi mavjud, taqlidchanlik bir necha kasblarga bo'lgan qiziqishlarni keltirib chiqaradi. Bu yoshdagi bolalar kasblarga turli omillar orqali bog'lanib qoladi va kelajak kasblari deb topishga turtki bo'ladi. Shunday omillardan biri

sifatida oila davrasidagi yaqinlarning egallagan kasblari va ularning kasb to'g'risida bildirgan ijobiy fikrlari, ayrim kasb egalarining maxsus joriy etilgan formalari borligi ham bolajonlarda ushbu kasbga bo'lgan qiziqishlarning yanada ortishiga sabab bo'ladi. Sharq mutafakkirlarining kasb haqida tushunchalarini ham bolajonlarga tushuntirish, milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizga sodiqlik hissini uyg'otish zarur. Tahlil qilganimizda ularning inson kamoloti, ma'naviyati va mehnatsevarlik xislatlariga, bolalar va yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirish va kasb-hunarga o'rgatishga taalluqli ibratli, qimmatli mulohazalarni o'rganib tatbiq etish nazarda tutiladi. To hozirgacha saqlanib kelayotgan qator me'moriy inshootlar, buyuk tarixiy obidalar, xalq amaliy san'ati asarlari (naqqoshlik, ganchkorlik, me'morchilik) arxeologik izlanishlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlari, bularning barchasi buyuk ajdodlarimizning kasb-hunar o'rganishga, yuksak iste'dod va qobiliyat sohibi bo'lishlariga imkoniyat yaratishimiz zarur. Tariximizga nazar soladigan bo'lsak, hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar avval o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, ajdodlarimizning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga oid qarashlari, o'g'itlari haqidagi qimmatli ma'lumotlariga ega bo'lishimizda eng qadimgi yozma yodgorligimiz – "Avesto"ning o'rni beqiyosdir. Umumiy ravishda – "Avesto"da inson mehnati bilan barcha yovuzliklardan qutulishi mumkin, degan ulug' g'oya ilgari suriladi. Shu g'oyalar va fikrlar yuzasidan boshlang'ich ta'lim to'rtinchi sinf o'quvchilari bilan maxsus kasblar yuzasidan qiziqishlarini o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqot olib boriladi va xulosalar aniqlanadi. Kasb tanlashda o'quvchilar qobiliyatlaridan tashqari, salomatlik holatini ham hisobga olishlari zarur, chunki kasb tanlovchilarning barchasi ham sog'liklarini e'tiborga olgan holda kasbni to'g'ri tanlaydi, deb bo'lmaydi.

To'g'ri, batafsil tavsiyalarni tegishli tekshiruvlardan so'ng shifokor beradi, lekin dastlabki cheklovlarni (agar ular mavjud bo'lsa) tanlovchining o'zi belgilashi lozim. Bu undan qandaydir maxsus bilimlarni talab qilmaydi, chunki, ko'pchilik asosiy qarshi ko'rsatkichlar organizm anomaliyasining (normadan chetga chiqish) to'rt guruhi bilan belgilanadi:

A. Skelet-mushak apparati anomaliyalari - skelet, bo'g'imlar, umurtqaning jarohatlanishi yoki kasalligi, muskullar kamchiligi bor bo'lgan o'quvchilar uchun quyidagi kasblarni tanlashlari tavsiya etilmaydi:

Ko'plab jismoniy energiyani, uzoq vaqt oyoqda turishni, tez-tez engashib turishni talab qiladigan kasblar (yukchi, g'isht teruvchi, stanokchi, temirchi, metallurgiya ishlab chiqarishdagi bir qator kasblar va boshqalar)

B. Sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish) da kamchiligi bor o'quvchilar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi:

Haydovchilik mutaxassisligining barcha turlari, mayda detallar bilan ishlash, oziq-ovqat, parfyumeriya sanoatining qator kasblari, oshpaz, degustator (mzasiga qarab ta'm bilish) va boshqalar

V. Asab tizimining buzilishi – bosh aylanishi, qo'l qaltirashi kabi kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi:



Balandlikda (montajchi, minorali kran mashinisti, va h.k.) transportda ishlash bilan bog'liq kasblar (yig'uvchi, soatsoz, zargar, va b.)

G. Ichki a'zolar: yurak qon-tomir va nafas tizimi kasalliklariga chalinganlar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi:

Changlangan, gazlangan muhitda, havoning siyrakligi muhitida yoki uning aksi bo'lgan yuqori atmosfera bosimi ostida, shuningdek, yuqori harorat sharoitlari bilan bog'liq kasblar va boshqalar.

Shunday qilib, kasb tanlashda yana bir qadam - bu o'z qobiliyatlari va sog'lig'iga baho berishdir. Bunda ushbu baholashning zarur, lekin yetarli bo'lmagan muolaja ekanini inobatga olish lozim.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida to'rtinchi sinf o'quvchilarining kasbga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash uchun

SAVOLNOMA

Sinaluvchining ismi _____

Yoshi _____ Jinsi _____

1. Sayohat qilish yoqadimi yoki tayin bir joyda ishlashmi?

Javoblar: _____

2. Ota-onangiz qaysi kasb egalari bo'lishini istar edingiz?

Javoblar: _____

3. Sizningcha, mamlakatimizda qaysi kasb egalarining soni ko'proq?

Javoblar: _____

4. Ma'lum ish kiyimiga ega bo'lgan qanday kasb egalariga havas qilasiz?

Javoblar: _____

5. Jamiyatimizning rivojiga eng ko'p hissa qo'shuvchi kasb egalari kimlar?

Javoblar: _____

6. Oltin baliq tutib olsangiz, qaysi kasb egasi bo'lib qolishni so'radingiz?

Javoblar: _____

7. Qaysi kasb egalarining bayrami sizga yoqadi?

Javoblar: _____

8. O'zingiz yoqtirgan beshta kasb nomini yozing.

Javoblar: _____

9. Kelajakda o'zingizni qaysi kasb egasi deb tasavvur qila olasiz?

Javoblar: _____

10. Kosmonavt yoki o't o'chiruvchilik kasblarini egallashni istaysizmi?

Javoblar: _____

Savolnoma tarzidagi ushbu so'rovnoma o'quvchilarning kasblarga bo'lgan qiziqishlarini aniqlashga va kelajak kasblarini tanlay olishga imkon beradi. Savolnoma bir necha omillarga tayangan hoda tuzilgan. Jumladan, sinaluvchining tezda zerikib qolmasligi uchun savollarning soni kam va sodda tilda bayon etilgan. Ushbu savolnomaning javoblari bilna tanishtaradigan bo'lsak:

1-savol uchun. Aniq ish joyiga ega, ya'ni, ko'chib yuruvchi bo'lmagan (uchuvchi, tarjimon) yoxud aksincha, tayin ish joyiga ega bo'lgan (o'qituvchi, shifokor) kasb egalarini tanlashlari mumkin.

2-savol uchun. Sinaluvchi bu savolda orzusidagi kasblarni tasavvur etib yozadi. Natijada biz o'quvchining qaysi kasb egalariga havas qilishlarini yanada yaqinroqdan bilib olamiz.

3-savol uchun. Bunda ham o'quvchi o'zi bilgan kasb egalarini qayd etadi. Savol orqali u qaysi kasb egalarini ko'proq e'tirof etishini aniqlaymiz.

4-savol uchun. Ushbu savolda kasblarning qaysi tomonlariga ko'proq e'tibor berishlarini birmuncha bilib olishimiz mumkin. Masalan, maoshga qiziquvchilar, ish kiyimiga qiziquvchilar, lavozimga qiziquvchilar va h.k.

5-savol uchun. O'quvchining bu savolda to'laqonli mustaqil fikrlashi ochib beriladi.

6-savol uchun. O'z istagini hech qanday to'siqlarsiz ifoda etish usuli.

7-savol uchun. E'tibor doirasidan chetda qolmagan kasb egalari madh etiladi.

8-savol uchun. O'quvchi uchun kasblarning daarjasi aniqlanadigan savol.

9-savol uchun. To'siqlarsiz oddiygina tasavvur orqali sinaluvchining psixologik holatga ko'ra javob berishi talab etiladi. O'zini tasavvur eta oladimi yoki yo'qmi? Tasavvur etishga qiynalgan sinaluvchilar bilan alohida ish olib borilib, ular bilan, kasblar va faoliyatlar, maqsad va orzular haqida minitreninglar o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

10-savol uchun. So'nggi savolda ayrim oilalar uchun taqiqlangan kasb egalari haqida so'z yuritiladi. Bolaning qiziqishlarini o'rganish bu savolnomaning maqsadi bo'lganligi uchun aynan shu savol kiritilgan bo'lib, bunda sinaluvchi o'zi istagan kasbni tanlashi mumkin. Har qanday kasb jamiyat uchun muhim, ishlayotgan kishilar uchun sharafl bo'lib, ularning mehnatga talabini qanoatlantirishi mumkin. Ularga bo'lgan munosabatlardagi farqlar jamiyat bahosi, ularning obro'yi, yoshlarning shaxsiy manfaati, istagi va mayli bilan izohlanadi. Bularning barchasi esa ijtimoiy muhit va o'z qobiliyatiga o'zi baho berish natijasida vujudga keladi. U yoki bu kasbga bo'lgan iste'dodlarini, orzu, mayl va istaklarini o'quvchilarda oldindan uyg'otish va har tomonlama rag'batlantirish zarur. Umumiy ma'lumot darajasiga qiziqishni uyg'otish bilangina chegaralanmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.I.Haydarov, N.I.Xalilova.Umumiy psixologiya.T.2010
2. G'oziev. E. G. Umumiy psixologiya.T.2010-544 bet.
3. V.M.Karimova, N.X.Xolyigitova Psixologiya. T. 2014 – 172 bet.



TA'LIMDA MENEJMENT



A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini
o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot
institutining ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASASI RAHBARLARINING HUQUQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Hamidov Akmal Amrullayevich

A.Avloniy nomidagi ITI "Ta'lim menejmenti"
yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta'lim maktablari rahbarlarini huquqiy kompetensiyalarini oshirish va personalni boshqarish tizimi keltirilgan. Personalni boshqarishdagi asosiy qoidalari, ta'lim muassasalarini boshqaruv usullari berilgan, uning asosida xodimlarni boshqarishda rahbar tomonidan bajariladigan asosiy talablar va qoidalar izohlab berilgan.

Kalit so'zlar

Umumta'lim maktablarida personalni boshqarish, maktab direktorlarini personalni boshqarishda huquqiy kompetentligini oshirish, boshqaruvning usullari va qoidalari.



Аннотация

В данной статье представлена система совершенствования правовых компетенций и управления персоналом директоров общеобразовательных школ. Приведены основные правила управления персоналом, методы управления образовательными учреждениями, на основе которых разъяснены основные требования и правила, которые должен выполнять руководитель при управлении персоналом.

Hozirgi vaqtda korxona va tashkilot personalini boshqarish konsepsiyasi asosini xodim shaxsiy rolining ortib borayotganligi, uning asosiy yo'l-yo'riqlarini bilishi, ularni shakllantira olishi, korxona va tashkilotlar oldida turgan vazifalariga muvofiq ravishda yo'naltira bilishni tashkil etadi.

Respublikamizdagi iqtisodiy va siyosiy tizimlarda ro'y berayotgan o'zgarishlar har bir shaxs uchun, uning yashashining barqarorligi uchun katta imkoniyatlar tug'dirish bilan bir qatorda jiddiy xavf-xatar ham tug'diradi, amalda har bir kishining hayotiga ma'lum darajada noaniqlik kiritadi. Bunday vaziyatda personalni boshqarish alohida ahamiyatga egadir, chunki u shaxsning tashqi sharoitga moslashish, tashkilotdagi personalni boshqarish tizimining tuzilishida shaxsiy omilni hisobga olish masalalarining butun bir majmuini amalga oshirish imkonini beradi. Shuning uchun ham ma'naviyat va qadriyatlarning ustivorligiga butunlay yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi. Korxona va tashkilot ichidagi asosiy jihat – xodimdir, tashkilotdan tashqarida esa – mahsulot iste'molchilaridir. Ishlovchining ma'naviy ongini boshliqqa emas, balki tashabbuskorga tomon yuz burish zarur. Sog'lom iqtisodiy mohiyatga asoslanadigan ijtimoiy normalarga o'tishni unutmaslik kerak. Ierarxiya ikkinchi o'ringa o'tib, o'z o'rnini ma'naviyat, madaniyat va bozorga bo'shatib beradi.

Personalni boshqarishga doir yangi xizmatlar odatda an'anaviy xizmatlar: kadrlar bo'limi, mehnatni tashkil etish va ish haqi bo'limi, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo'limi va hokazolar asosida tuziladi. Yangi xizmatlarning vazifasi korxona va tashkilotdagi kadrlar siyosatini amalga oshirishdan, mehnat potensialini boshqarish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishdan iboratdir. Shu munosabatlar bilan bu xizmatlar o'z vazifalari doirasini kengaytira boshlaydilar va sof kadrlar masalasidan mehnat faoliyatini rag'batlantirish tizimlarini ishlab chiqishga, kasbiy jihatdan ilgari siljishni boshqarishga, ixtiloflarga barham berishga, mehnat bozorini va shu kabilarni o'rganishga o'tadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5538-son Farmoni, 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3931-sonli Qarori, shuningdek, rahbar va pedagog xodimlarni tanlash,

tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha umumta'lim maktablari direktorlarida menejerlik ko'nikmalarini shakllantirish va kasbiy kompetentligini muntazam oshirish zarur.

Bu esa o'z navbatida quyida keltirilgan masalalarga e'tibor qaratishni taqozo etadi:

- "Ta'limda personalni boshqarish" umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbar kadrlarining personalni boshqarishida nazariy va amaliy, pedagogik-psixologik, metodik tayyorgarligi darajasini orttirish, xodimlarni motivatsiyalash va boshqaruvni tashkiliy tuzilmasini shakllantirish borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish;
- umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbar kadrlarida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, rahbar xodimlarga davlat talablari asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish;
- ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining zamonaviy boshqaruvga oid zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish hamda chet tillarini intensiv o'zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini muntazam yuksaltirish zarur.

Xalq ta'limi tizimida umumta'lim maktablari faoliyatining samaradorligini ta'minlashda direktor asosiy o'rin egallaydi. Maktab faoliyatining mazmuni direktor jamoani qanday qilib va qaysi yo'nalishga boshlashiga bog'liq bo'ladi.

Demak, ta'limning samaradorligiga bevosita maktab jamoasiga va uning rahbariga bog'liq.

Mamlakatimizda hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar davrida quyidagilar jiddiy ahamiyatga ega:

- Bugun maktabni kim boshqarmoqda?
- Ular o'z majburiyatlari va mas'uliyatlarini to'g'ri anglaganlarmi?
- Ularda nazariy, metodik va tashkiliy bilimlar hamda zamonaviy maktabni boshqarish uchun qobiliyatlar yetarli?
- Ularda vijdonlilik, halollik, insonparvarlik liderlik va menedjerlik kabi sifatlar shakllanganmi?

Maktab direktorlari bilan (direktor, direktor o'rinbosarlari bilan) olib borilgan suhbatlarni ko'pgina javoblarida byurokratlik, hujjatlar bilan ishlashda ijodiy yondashuvning yo'qligi,



nazoratsizlik, me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini to'liq anglamasligi, yuqori tashkilotlarning ko'rsatmalarini bajarishda mas'uliyatsizlik kabi salbiy sifatlar hanuz mavjud ekanligi ma'lum bo'lmoqda.

Bugungi kunda, umumta'lim maktablari rahbarlarini huquqiy kompetensiyasini oshirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarurati mavjud. Bunda:

Boshqaruvning asosiy qoidalariga amal qilish lozim:

- kelajakni oldindan ko'ra bilish, o'rganish, xodimlar bilan ishlash dasturini tuzish va uni amalga oshirish;
- boshqaruvni tashkil qilish – xodimlarning ijtimoiy-moliyaviy faoliyatini yaxshilash uchun sharoitlar yaratish;
- vazifalarni taqsimlash – qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish, ularni hal etish maqsadlarida buyruqlar chiqarish;
- kelishish – xodimlarning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelgan vaziyatni o'rgangan holda jamoada ishlar taqsimotini o'zaro moslashtirish;
- nazorat – o'rnatilgan tartibda buyruqlar va qarorlar ijrosini kuzatib borish.

Ta'lim strategiyasini o'rnatish.

Bu bosqichda maktab direktori va uning hamkasblari yangi g'oyalar va tashabbuslarni izlashlari, rejalashtirishlari hamda jamoani ular bilan tanishtirib borishlari lozim (masalan: o'quvchilarda davlat manfaatlari yo'lida foydalanish uchun zarur bo'lgan, o'z kelajagi uchun ishonch va olingan bilimlardan hayotiy maqsadlarga erishish yo'lida foydalana biladigan bo'lib egallangan bilimlar uchun to'liq mas'uliyat va burchni his qilishni tarbiyalash; qator fanlarni chuqurlashtirilgan o'qitish bo'yicha ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil qilish, maktabning moddiy texnika bazasini yaxshilash).

Ta'lim muassasasini faoliyatini boshqarishda quyidagi boshqaruv usullaridan foydalanish.

Liberal – faoliyat erkinligini shaxslararo munosabatlarda rahbar va xodimlarning o'zaro hamkorligini tan oladigan boshqarish usuli;

Demokratik – o'zaro kelishuvga, boshqa xodimlar fikrini hisobga olishga, teng huquqlilikka intiladigan, mustaqil fikrlashga undaydigan, ishlarni ishlayotgan xodimlar bilan o'zaro ijodkorlik asosida olib boradigan boshqarish usuli.

Kadrlarni boshqarish juda murakkab va ko'p qirrali jarayon. Xodimlarni boshqarishda rahbar quyidagi asosiy talablar va qoidalarga rioya qilishi lozim:

- xodimlar bilan xushmuomala bo'lish;
- har qanday vaziyatda yetakchi bo'lish;
- ziddiyatli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish;
- axborotni tez o'zlashtirish, uning ustida ishlash va o'z vaqtida pedagogik jamoaga yetkazish;
- mavjud imkoniyatlardan maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish;
- yangi, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkorlik bilan joriy qilish;
- pedagogik faoliyatning sifati, ijtimoiy maqomi, nufuzi va obro'-e'tiborini oshirish borasida faoliyat ko'rsatish;
- o'z faoliyatini hamda pedagogik jamoa faoliyatini tahlil qilish, takliflar kiritish jarayonida jamoani boshqarish;
- xodimlarni ularning shaxsiy va ish qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda boshqarish;
- pedagoglarning kasbiy malakalarini uzluksiz oshirib borishlarini tashkil qilish;
- ta'lim jarayonini davlat ta'lim standartlari talabalari asosida boshqarish, o'quv-tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlash va sifatini oshirish;
- amaliyotda yangi darsliklar o'quv qo'llanmalar va axborot vositalaridan foydalanish hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- pedagoglarni "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida ularning malkasini oshirib borish;
- Pedagoglarga kasbiy mahorati va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib borishi uchun ish haqiga ustama tayinlash hamda mehnatni rag'batlantirib borish;
- davlatimizda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlardan kelib chiqqan holda milliy mafkura asosida erkin fikrlaydigan, hayotga vatanparvarlik, tinchliksevarlik qarashlariga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash.



ONLINE TA'LIMNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI

Unicef ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 200 milliondan ko'p bolalar maktablar yopilsa, masofaviy ta'limdan qolib ketishlari mumkin. Bu davlatlarning, avvalo, iqtisodiy, ijtimoiy ahvoliga to'g'ridan to'g'ri bog'liq holat. Yodimizda bor: O'zbekistonda 2020-yil 16-martdan karantin e'lon qilingan bo'lsa, atigi 14 kun ichida O'zbekiston onlayn ta'limni tezkorlik bilan yo'lga qo'ya oldi. Bu borada hali hech qanday tajriba va katta resursga ega bo'lmagan, rivojlanayotgan davlat uchun katta yutuq edi. Shunday qilib, masofaviy (online) ta'lim III chorak va yangi o'quv yilining ham deyarli ikki choragi, ya'ni butun bir yil davom etdi. Bu muddatda O'zbekistonda masofaviy ta'lim uchun online resurslar bazasi to'plandi va muntazam boyitib borildi. Onlayn ta'limning yutuqlari va kamchiliklari tahlil qilindi. Shaxsan men onlayn ta'lim vaqtida o'qituvchi sifatida dars berib yurganman va quyida onlayn ta'limning o'zim sezgan yutuq va kamchiliklarini sanab o'tmoqchiman:

- onlayn ta'lim, avvalo, o'quvchiga psixologik ta'sir ko'rsatadi, bolani jamiyatdan uzib qo'yadi, ma'lum ma'noda, o'z tengdoshlari bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni to'sadi.
- ushbu ta'limda nazoratchilar soni ko'payishi talab qilinadi, bola baribir ma'lum nazorat ostida o'qishga o'rgangani bois, aksariyat hollarda, maktab vaqtida, asosan, sinf rahbari va fan o'qituvchisi bu nazoratni qondirib, o'quvchini boshlab turgan bo'lsa, endi uyda onlayn ta'lim olayotgan o'quvchi uchun bu nazorat ota-ona zimmasiga ko'proq tushadi, tabiiyki, ota-onalar boshqa sohada mehnat qilishi va yoki o'zlarining ta'limiy bilimlari talab darajasida bo'lmasligi mumkin. Bu bevosita ta'limning sifatiga kata ta'sir qiladi.
- keyingi ko'zga ko'ringan kamchilik, bu aloqa vositalarining O'zbekistonning hamma joyida ham bir xil emasligi, onlayn ta'lim, asosan, internet vositasiga tayanganligini, dars olish va uni vazifalarini yuborish internet bilan amalga oshirishini hisobga olsak, bu holatlar O'zbekistonda ko'p muammolarni keltirib chiqardi. O'tgan karantinda "tomga chiqib dars o'tgan o'qituvchilar"ni bejiz ko'rmadik... internet sifatini oshirish lozim, yanada yechim sifatida:
- Har bir ma'ruzachi elektron ta'lim platformasidan qanday foydalanishni o'rganishi kerak. Afsuski, bu ham bizning pedagoglarimizdagi kamchilik ekani ko'rinib qoldi. Deylik ,

Zoom dasturini boshqarib, uning imkoniyatlarini o'rganishi lozim.

- Pedagoglarimiz onlayn darslarni samarali o'tkazish usullarini o'zlashtirishi kerak.
- Odatiy ta'limda bo'lgan singari, har bir o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun usullardan foydalanishi muhimdir. Aks holda, o'quvchilar kompyuterda yoki audiovizual ma'lumotni uzatuvchi boshqa qurilmada "uxlab qolishlari" mumkin.

Endi onlayn ta'limning yutuqlarini sanab o'tsak:

- UNISEF qayd etib o'tgan 200 mln o'quvchining "ta'limdan judo bo'lish" xavfi turganda, O'zbekiston o'quvchilari masofaviy ta'lim bilan ta'minlangani jamiyatimiz uchun katta yutuqdir.
- Qulay texnik vositalardan foydalanish tufayli yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Avvalo, bu taqdimotlar, testlar, videochat, ekran almashish va darsni qayta-qayta ko'rib chiqish imkoniyatining taqdim etilishini nazarda tutmoqdaman.
- Har bir o'quvchining bilim samaradorligini kuzatish osonroq. Chunki o'quv dasturlari buning uchun qulay testlar va statistikani taklif qiladi.
- Elektron ta'lim pulni tejaydi. Masalan, pedagoglar yoki o'quvchilar kundalik yo'l xarajati va boshqa xarajatlarni sarf qilmasdan uyda ta'lim berish va olish imkoniyatini egallashi mumkin.
- Siz har qanday joydan mashg'ulot o'tkazishingiz mumkin, lekin har doim professional ko'rinishga egasiz. Yoki kamerani butunlay o'chirib qo'yib ham dars o'taverasiz.
- Hech kim ma'ruzalarga kechikmaydi. Mobil ilova tufayli siz tirbandlikda yoki ... "endigina uyg'onganingizda" ham qurilma yordamida darsga ulanishingiz mumkin))

Xulosa qilib aytishim mumkinki, masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim o'rnini bosa olmaydi, lekin karantin paytida va yoki tabiiy ofat vaqtida o'quvchilarning bilim olishdan ortda qolmasliklari uchun yaxshi chora, yagona najot.

Isroil Tillaboyev,
Respublika ta'lim markazi direktor o'rinbosari

XALQ TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

PUBLIC EDUCATION:

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

Bosh muharrir:

RADJIYEV Ayubxon Baxtiyorxonovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

PARDAYEVA Mehriniso Doniyarovna

Mas'ul kotib:

ABDULLAYEV Farrux Rustam o'g'li

Dizayner:

DONIYOROV Sanjar

Adabiy tahrirchilar:

DO'SMATOVA Yulduzxon Qambarovna

NURMUHAMEDOVA Dildor Uralovna

Tahrir hay'ati:

PAXRUTDINOV Shukritdin Ilyasovich	SHARIFXODJAYEV Usman Ulfatovich
RAXMANKULOVA Nargiz Xadjiakbarovna	MIRSOLIYEVA Muhabbat To'xtasinovna
XODJAYEV Begzod Xudoyberdiyevich	XALIKOV A'zam Abdusalomovich
KARIMOV Farxod Erkinovich	BAXRAMOV Anvar Axrarovich
XIDOYATOVA Dilafruz Abdugaffarovna	AXMEDOV Murodjon Ubaydullayevich
IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich	BOTIROV Hamid Hakimovich
ABDULLAYEV Farxod Abdurashidovich	RO'ZIQULOV Faxriddin Rasulovich
QODIROV Umarali Do'stqobilovich	